




Shuhrat ERGASHEV

UCH BUYUK FRANSUZ

Kardinal Rishelye

Napoleon Bonapart

Sharl de Goll



TOSHKENT
«O'ZBEKISTON»
2016



UO'K: 94(44) (092)
KBK 63.3(4 Fra)
E 74

Mas'ul muharrir:

*R. Farmonov — Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya
universiteti professori, tarix fanlari doktori*

Taqrizchilar:

*R. Siddiqov — O'zMU dotsenti, tarix fanlari nomzodi;
S. Tillaboyev — Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti,
tarix fanlari nomzodi*

ISBN 978-9943-28-049-6

© Sh. Ergashev, 2016
© «O'ZBEKİSTON» NMIU, 2016

UO'K: 94(44) (092)
KBK 63.3(4 Fra)
E 74

Mas'ul muharrir:

R. Farmonov — Juhon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti professori, tarix fanlari doktori

Taqrizchilar:

R. Siddiqov — O'zMU dotsenti, tarix fanlari nomzodi;
*S. Tillaboyev — Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti,
tarix fanlari nomzodi*

ISBN 978-9943-28-049-6

© Sh. Ergashev, 2016

© «O'ZBEKİSTON» NMIU, 2016

Akam Iskandar Ergashevning
xotirasiga bag'ishlayman.

Muallif

TARIXNI YARATGAN SIYMOLAR

Fransiya Respublikasining hozirgi hududini Atlantik okeani, O'rta Yer dengizi va Shimoliy dengiz, La-Mansh bo'g'ozi, Alp va Pireney tog'lari tabiiy chegaralagan. Tabiat Fransiyani ummon va dengizlar, tog'lar va o'rmonlar, yam-yashil o'tloqlar va bog'lar bilan saxiyarcha siylagan.

Ammo Fransiyaning mashhurligi uning tabiatidagi-na emas, avvalo, uning xalqida, ijodkor va yaratuvchan, jasur va erksevar kishilaridadir. Monteskye va Volter, Russo va Didro kabi mutafakkirlar, Laroshfuko va Molyer, Kornel va Rasin, Stendal va Balzak, Gyugo va Mopassan, Zolya va Anatol Frans kabi buyuk adiblar, Buyuk Karl va Janna d'Ark, Napoleon Bonapart va Sharl de Goll kabi arboblar Fransiyaning sha'ni va shavkati uchun kurashdilar, Fransiyaning buyuk davlat bo'lishiga cheksiz hissa qo'shdilar.

Fransiya tarixiga, uning mashhur kishilariga bag'ishlangan tadqiqotlar, ommabop asarlar, avvalo, fransuz tilida, ingliz, nemis, rus va boshqa tillarda millionlab nus-xada nashr qilingan. O'zbek kitobxoni Fransiya tarixi bilan, asosan, rus tilida chop etilgan kitoblar orqaligina tanish bo'lib, ular ko'pchilik hollarda Rossiya — Fransiya munosabatlarini aks ettirgan, bu munosabatlarga bevosita bog'liq bo'lgan. Sovet davrida yaratilgan asarlar esa kommunistik mafkura ehtiyojlariga xizmat qilgan.

Albatta, ushbu kitobni yaratishda E.V. Tarle, A.Z. Manfred, L.A. Zak, N.N. Molchanov, V.V. Zagladin, P.P. Cherkasov kabi rossiyalik tarixchilarining, shu bilan birga fransuz tarixchilari Ernest Laviss va Alfred Rambo, Lui-Jozef Marian, Jak Barra, Jan Tyular, nemis tarixchilari Emil Ludvig, Oskar Yeger, ingliz siyosatshunosi Charlz Uilyams, yozuvchi va tarixchi Xiler Bellok kabilarning asarlaridan ham foydalanildi.

Ko'pchilik kitobxonlar o'zbek tiliga tarjima qilingan fransuz adabiyoti va san'ati namunalari orqali, ayniqsa, fransuz romanlari va filmlari orqali Fransiya haqida tasavvur hosil qilganlar.

Buyuk tārixning vorislari bo'lган va shu ma'noda bir-biriga munosib ikki xalq — o'zbek va fransuz xalqlari bugun bevosita aloqalar orqali bir-birini yanada yaqinroq o'r ganish imkoniyatiga egadirlar. Fransiyaning uchta ulug' kishilari hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan ushbu tadqiqot o'zbek kitobxonlarida qiziqish uyg'otadi va Fransiya haqidagi bilimlariga qo'shimcha bo'la oladi.

Kitobning yuzaga kelishida yordamlarini ayamagan tārix fanlari doktori, professor Rahmon Farmonovga va Iskandar Ergashevga muallif o'z minnatdorchiligini bildiradi.

Kitob Fransiyaning XVII—XX asrlardagi qariyb 350 yillik tarixining eng murakkab, ayni paytda eng sharafli davrlariga mansub bo'lган va zamonaviy Fransiyaning yaralishiga ulkan hissa qo'shgan arboblari — kardinal Rishelye, Napoleon Bonapart va Sharl de Goll hayoti hamda faoliyatiga bag'ishlangan.



Kardinal hazrati olyylari



*Mening davlat dushmanlaridan
boshqa g‘animlarim bo‘laman.*

Kardinal Rishelye.

Ludovik XIII ning birinchi vaziri Arman Jan dyu Plessi — kardinal Rishelyening hayoti murakkab jumboqlarga va sirlarga boy. Bunday sirlilik Rishelye hayotining birinchi kunidanoq boshlanadi. Bu qudratli hukmdor dunyoga kelgan manzilni hech kim ishonch bilan aniq aytib bera olmagan. Ba’zi tadqiqotchilar, kardinalning sevimli jiyani bo‘lgan gersog xonim d‘Egiyon guvohligiga asoslanib, u Puatu provinsiyasidagi Rishelyelar oilaviy qo‘rg‘onida tug‘ilgan, degan xulosaga kelganlar. Kardinalning o‘limidan keyin, uning qayta qurilgan qo‘rg‘onda mehmonlarga uzoq vaqtlar bir xonani ko‘rsatib, go‘yoki u aynan ana shu xonada dunyoga kelganligini ta’kidlardilar. Bu da’vo hujjatlar bilan tasdiqlanmagan, chunki Rishelyelar qo‘rg‘oni Brey qavmiga qarashli bo‘lib, qavmning ro‘yxatga olish kitobidagi 1580—1600-yillarga taalluqli bo‘lgan yozuvlar saqlanib qolmagan — aynan ana shu sahifalarni kimdir yirtib olgan.

Rishelye hali hayot paytida uning birinchi biografi Andre Dyushen va undan keyingi ko‘pgina tarixchilar bo‘lajak kardinalning tug‘ilgan joyi Parij ekanligini aytganlar. Lekin ular ham buning bevosita daliliy hujjatini keltira olmaganlar. Rishelyening cho‘qintirilganligi haqidagi birinchi bor 1867-yilda chop qilingan hujjat esa buni bilvosita tasdiqlashi mumkin. Unda Fransua dyu Plessi janob de Rishelye hamda uning xotini Suzanna de La Port

xonimning o‘g‘illari bo‘lib, u 1585-yil 5-sentabrdan dunyoga kelganligi va 1586-yilning 5-may kuni Parijdagi Sent-Estash cherkovida cho‘qintirilganligi hamda unga Arman Jan ismi berilganligi ko‘rsatilgan. Chaqaloqning otanasi Parijdagi Bulua ko‘chasida yashaganlarini ham ana shu hujjatdan biliш mumkin.

Bola dunyoga kelgan va u cho‘qintirilgan sanalarni taqqoslash kishini hayron qoldirishi mumkin: chaqaloq faqat to‘qqiz oylik bo‘lganidagina unga ism berilgan. Gap shundaki, go‘dak juda zaif tug‘ilgan: uning sog‘lig‘i ancha vaqtgacha jiddiy xavf ostida bo‘lgan va uning kech cho‘qintirilishi ham shu bilan izohlanadi.

O‘sha davrlar an’anasiga ko‘ra yangi tug‘ilgan o‘g‘il bolaning ikkita cho‘qintirgan otasi (qiz bolaning ikkita cho‘qintirgan onasi) bo‘lishi kerak edi. Go‘dakka o‘z nomlarini bergen Fransiyaning ikki marshali — Arman de Gonto-Biron va Jan d‘Omonlar uning cho‘qintirgan otalari, qizlik nasabi Rosheshuar, ota tomonidan buvisi Fransuaza de Rishelye xonim esa cho‘qintirgan onasi bo‘lgan.

Dyu Plessi de Rishelyelar oilasi Puatuning aslzodalar nasabiga mansub edi. Rishelyelarning ota tomonidan ajdodlari haqidagi dastlabki yozuvlar XIV asrga oid hujjatlarda tilga olingan. Dyu Plessi de Rishelyelar omadli nikoh ittifofqlari bilan fransuz aslzodalari orasida o‘z mavqelarini mustahkamlab olganlar. Armanning buvisi — Fransuaza de Rosheshuar Polinyaklar, Laroshfukolar va Fransiyaning boshqa eng qadimiy aslzoda oilalari bilan yaqin qarindosh bo‘lgan.

Rishelyening otasi qirol Genrix III ning eng ishonchli kishilari safida bo‘lgan. Qirol Genrix II va Yekaterina Medichining uchinchchi o‘g‘illari, Anju gersogi bo‘lgan Genrix III Polshaning bo‘sh turgan taxtini egallash uchun u yerга tashrif buyurganida — 1573-yildayoq taqdir ularni uchrashadiradi. Krakovda Polshaning yosh qiroliga boshqalar qatorida, qandaydir janob de Brishetyerning o‘limiga bog‘liq voqealar tufayli vatanini tark etgan 25 yoshli fransuz

zodagoni Fransua dyu Plessi de Rishelye ham tanishtiriladi. Rishelye zodagonlarning axloq qoidalariga mutlaqo zid ravishda, Brishetyerni duelga chaqirish o'rniga uni aldov bilan qopqonga tushiradi va o'zining qurolsiz raqibini sovuqqonlik bilan o'ldiradi. Bu Rishelyening duelda o'ldirilgan akasi leytenant Lui dyu Plessi uchun olingan qasos edi. Dushmanini o'ldirganidan so'ng Rishelye Fransiyadan qochib ketadi va bir necha yil Germaniyada sarson bo'lib yuradi. Nihoyat, taqdir uni uzoq Polshaga olib keladi.

Ikki yosh vatandoshlar o'rtasida dastlabki uchrashuv-danoq ishonchli aloqalar o'rnatiladi va tez orada Fransua dyu Plessi de Rishelye Krakov saroyidagi taniqli shaxslardan biriga aylanadi. Aynan u Polsha qiroliga Parijda uning akasi Karl IX to'satdan vafot etganligi haqidagi xabarni yetkazadi. U 1574-yilning may oyida Polshadan yashirin tarzda Parijga qochib ketgan Genrix Anjuning yaqin kishilari qatorida uni kuzatib boradi.

Genrix III taxtga chiqqanidan so'ng janob de Rishelye obro'li davlat arbobiga aylandi. Yosh qirol o'z «arzanda»sini qirollik xonadoni prevosi¹ lavozimiga — nufuzli amalgatayinladi, 1576-yilda esa uni Fransyaning bosh prevosi lavozimiga ko'tardi. Ayni paytda, faqat kamdan kam omad-lilargina ega bo'ladigan Muqaddas Ruh ordeni ham unga in'om etildi. Shafqatsiz diniy urushlar davrida bosh prevos amalda ham oliy sudya, ham adliya vaziri, ham qirollik maxfiy xizmati rahbari kabi muhim lavozimlarni o'zida mujassamlashtirgan edi. Ko'p mehnat talab qiladigan vazifalarni faqat qattiqqo'l, g'ayratli, ayni paytda, nozik tabiatli

¹ Prevo — Fransiyada XI—XVIII asrlarda o'ziga biriktirilgan okrugda sud, soliq va harbiy hokimiyatga ega bo'lgan qirol amadori. XV asrdan faqat sud funksiyalarini bajargan.

bo'lgan kishigina bajara olishi mumkin edi. O'z qiroliga cheksiz sadoqatli bo'lgan Fransua dyu Plessi de Rishelye yuqorida aytilgan barcha xislatlarni o'zida mujassam etgandi. Harholda, kechagi janjalkash odam o'z yuksak lavozimida bosiqlik va sog'lom fikrlash namunalarini namoyish qila oladi. U qattiqqo'l, lekin shafqatsiz emas, g'ayratli, lekin shoshqaloq emas, hisob-kitobli, lekin xasis emasdi. Fransua qirol hamda davlat manfaatlarini shaxsiy va oilaviy manfaatlaridan yuqori qo'ya olgandi: bu hol, ayniqsa, uning o'limidan so'ng yaqqol namoyon bo'ladi.

Fransua de Rishelye so'nggi nafasigacha o'z qiroliga sodiq qoladi. «Barrikadalar kuni»¹ da Genrix III ning qo'zg'olon ko'tarilgan Parijdan Bluaga qochib ketishiga yordamlashadi. Rishelye Genrix III o'ldirilishining beixtiyor shohidi bo'ladi. Bosh prevo ligachilar² qirol qarorghiga yuborgan dominikchi³ ruhoniylari Jan Klemanning jubbasi ostiga yashirilgan xanjar zarbasining oldini olishga bir necha soniyagina kech qoladi, xolos.

Farzandsiz bo'lgan Genrix III ning o'limi bilan Valular⁴ sulolasi yakun topdi. Taxtga chiqish huquqi Valualarning yaqin qarindoshi, gugenotlar⁵ yo'boshchisi Genrix Navarralikka

¹ «*Barrikadalar kuni*» – 1588-yil 12-may kuni Parijda Fransiya tarixida birinchi marta Katolik Liga tarafдорлари barrikadalar o'rnatdilar.

² *Ligachilar* – 1576-yilda tashkil qilingan Katolik Liga vakillari.

³ *Dominikchilar* – 1215-yilda rohib Dominik tomonidan asos solingen darveshlik ordeni a'zolari. 1232-yilda Rim papasi inkvizitsiya ishlarini shu ordenga topshirgan. XVI asrda Iyeziutlar ordeni tashkil qilinganidan keyin dominikchilar ordenining ta'siri pasayib ketgan.

⁴ Valular sulolasi Fransiyada 1328–1589-yillarda hukmronlik qilgan.

⁵ *Gugenotlar* – protestantlik mazhabidagilar Fransiyada shunday atalardi.

o‘tadi va u qirol Genrix IV nomi bilan Fransiya taxtiga keladi.

Bosh prevo uzoq vaqt ikkilanib o‘tirmadi. Davlat manfaatlari tezda diniy shubha-gumonlardan ustun keladi. Yuzaga kelgan vaziyatda Fransua de Rishelye ko‘z o‘ngida gugenot Genrix IV qonun va intizom, Katolik Liga esa boshboshdoqlik va tartibsizlik ramzi bo‘lib qoldi. Fransiya-ning bosh prevosi to o‘limiga qadar yangi qiroliga ishonchi va sadoqat bilan xizmat qiladi. Bedavo bezgakdan azob chekkan Fransua de Rishelye 1590-yil 19-iyulda, 42 yoshida olamdan o‘tdi.

Uning bevasi Suzanna de Rishelye beshta farzandi bilan qoldi: Anri — 10 yoshda, Alfons — 7 yoshda, Arman — 5 yoshda, katta qizi Fransuaza — 12 yoshda va kichik qizi Nikol 4 yoshda edi. Oila iqtisodiy jihatdan ancha qiyin ahvolda qolgandi. Son-sanoqsiz diniy urushlar bir zamonlar gullab-yashnagan Puatu muzofotini qash-shoqlashtirib qo‘ygan edi. Uncha katta bo‘Imagan yer-mulki amalda hech qanaqa daromad keltirmasdi. Ustiga-ustak bosh prevo o‘z oilasiga qarzlardan boshqa hech narsa qoldirmagandi. Uni nufuziga munosib dafn etish uchun marhumning onasi Muqaddas Ruh ordenining olmos bezakli zanjirini garovga qo‘yishga majbur bo‘ladi. To‘g‘ri, o‘zining xasisligi bilan mashhur bo‘lgan Genrix IV xazinaboniga, marhum bosh prevoning xizmatlariga hurmat belgisi sifatida, de Rishelye xonimga 20 ming livr berishni buyuradi. Kelgusi yili qirol uning oilasiga yana 16 ming livr ajratdi.

Ayol fidoyiligining ramzi hisoblangan inson — Kardinal Rishelyening onasi haqida ham aytib o‘tmoqlik joiz.

Suzanna de La Port (uning qizlik nasabi) — aslzodalar oilasidan emasdi. U o‘rtacha daromadga ega bo‘lgan burjua nasliga zodagonlik unvonini olish imkonini beruvchi yurisprudensiyani a’lo darajada bilishi bilan mashhur bo‘lgan, Parij parlamentining kamtar advokati oilasidan edi.

16 yoshida janob de Rishelyega turmushga chiqqan va besh farzandning onasi bo'lgan Suzanna de La Port o'z hayotini to'laligicha ularga bag'ishlaydi. U saroyning olag'ovur hayotiga zo'rg'a toqat qilardi. Genrix III saroyida hukm surgan hayosizlik va xiyonatkorlik muhitida lato-fatli Suzanna de Rishelye kamtarlik va sadoqat ramziga aylanadi. Kardinal onasining namunasini kam uchraydigan holat deb bilgan shekilli, ayol zoti haqida uncha yuksak fikrda bo'lмаган: hayoti davomida unga butunlay boshqacha turdag'i ayollar uchragan va u bu ayollardan ochiqdan ochiq nafratlangan. Lekin ayollarga nisbatan salbiy munosabati ham, ruhoniylig libosi ham unga nazokatli xonimlar ko'nglini ovlash borasida xalaqit ber-magan.

Bosh prevo oilasi qo'zg'olon ichida qolgan Parijni 1588-yilning 12-mayida Genrix III va uning saroyi bilan (yoki ularning ortidan) tark etgan.

Qahramonimizning dastlabki hayotiy taassurotlari Rishelyelarning oilaviy qo'rg'oni bilan bog'liq. Aynan o'sha yerda, 1429-yilda barpo etilgan, sakkiz minorali qo'r-g'onning salobatli devorlari ortida Fransua de Rishelye oilasi fuqarolar urushining tugashini kutib yashaydi.

Armanga boshlang'ich ta'lif berish Sen-Floran-de-Somur abbatligining bosh ruhoniysi Ardi Gyuilloga topshiriladi. O'zi taqvodor bo'lgan Suzanna de Rishelye farzandlari tarbiyasining diniy-axloqiy tomonlariga alohida e'tibor qaratadi. Suzanna xonim o'rnatgan tartibga ko'ra, har oqshom qo'rg'ondag'i barcha kishilar oilaviy ibodatxonaga umumiy ibodat uchun to'planganlar. Keyin ayollar va qiz bolalar tikish-bichish va kashtachilik bilan mashg'ul bo'lganlar, o'g'il bolalarga ham turli yumushlar topshirilgan. Nimjon va rangpar, tez-tez shamollahsga va boshqa xastaliklarga chalinib turuvchi kichkina Arman tug'ilgan kunidanoq onasi bilan buvisini doimiy xavotirga solib turgan. Qo'rg'onda tinchlik va xotirjamlik hukmron bo'lib,

kamdan kam tashrif buyuradigan mehmonlargina urush avj olayotgan tashqi dunyodan goh-gohida xavotirli xabarlar keltirib turardilar.

Ana shu tarzda, eski qo'rg'onda berkingan ahil oila-ning olti yillik turmushi sezilmasdan o'tib ketdi.

1594-yilning yozida Suzanna de Rishelye Parijga qaytishga qaror qiladi. Urush tugab¹, mamlakat hayoti astasekin odatdag'i iziga tushayotgan paytalar. Genrix IV ning katoliklarga murojaati² to'rt yilda kuch bilan buza olmagan Parij darvozalarini 1594-yilning 22-mart kuni unga ochib berdi.

Bolalar ancha ulg'aygan va endi ularga bundan keyin qanday ta'lif berish haqida o'ylash payti yetgandi. O'quv dargohlarida mashg'ulotlar yana boshlandi, o'z vaqtida Fransiyaning ikki bo'lajak qirollari — Genrix III va Genrix IV ta'lif olgan mashhur Navarra kolleji ham yangidan ishga tushdi. Bundan keyin kichik jiyanining taqdiri haqida tashvishni o'z bo'yniga olgan tog'asi — Suzanna de Rishelye ning akasi Omador de La Port to'qqiz yoshli Armanni aynan ana shu bilim dargohiga joylashtiradi.

Talabalar Navarra kollejida grammatikani, san'atni va falsafani o'rghanadilar. Katekizis³ bilan bir qatorda Sitseroni, Goratsiyni, Kvintilianni va boshqa antik mualliflarni o'qiydilar. Kollejda faqat lotin tilida so'zlashish joriy qilin-gan edi. Mashhur adabiyotchilar Byude, Ramyu va Ronsarlar tufayli odatiy bo'lib qolgan qadimgi grek tilini o'rGANISH ham bilim yurti dasturiga kiritilgandi. Kollej tarbiyalanuvchilari she'r va názmda asarlar yozish aşoslarini

¹ 1562—1594-yillari Fransiyada katoliklar bilan protestantlar (gugenotlar) o'rtasida diniy urushlar bo'lgan.

² Genrix Navarralik (1553—1610) — avval gugenotlar rah-namosi bo'lgan, 1589-yilda qirol Genrix III o'ldirilganidan so'ng ikkinchi bor katolik mazhabiga o'tadi va Fransiya qiroli Genrix IV nomi bilan taxtg'a o'tiradi.

³ Katekizis — nasroniylar diniy ta'lifotining savol-javob shaklida ifoda qilinishi.

ham bilishlari shart bo‘lgan. Ularda munozaraga kirishish va ilmiy asosda bahslasha olish qobiliyatları ham rivojlantirildi.

Ko‘pincha kollej tarbiyalanuvchilari ta’limning to‘rt yilda mo‘ljallangan ikki bosqichi — grammatika va san’at bilan cheklanardilar. Uchinchi ikki yillik bosqichni — falsafani juda kam bolalargina o‘zlashtira olganlar. Falsafa kursi mantiqni va fanlar asosini o‘rganishni ham o‘z ichiga olardi. Ta’lim olish Aristotel asarlarini va ularga sharhlarni asl nusxada o‘qishdan iborat bo‘lgan: birinchi yili yosh yigitchalar «Kategoriylar»ni, keyin «Analitiklar»ni o‘rganganlar, ta’limning ikkinchi yili Evklid ijodiga bag‘ishlangan. Yosh faylasuflarni ilmiy va ilohiyot masalalari bo‘yicha omma oldida ma’ruza qilishga ham tayyorlaganlar.

Navarra kollejidagi ta’lim tizimi qat’iyligi va hatto shafqatsizligi bilan ham ajralib turardi. Arman dyu Plessining murosasiz fe’li u yerda hukmron bo‘lgan axloq bilan kelisha olmaydi. G‘ayratli, harakatchan, o‘jar yigitcha majburlanishni yoqtirmasdi. Unga do‘q urish va qo‘rqitish bilan emas, faqat muloyimlik va maqtash bilangina ta’sir qilish mumkin edi. «Unda maqtovlarga chanqoqlik va tanbeh olishdan qo‘rqish bor edi, bu uni doimiy asabiylik holatida tutib turardi, — deya ta’kidlagan edi Rishelyening biograflaridan biri, abbat Mishel de Pyur. — U o‘z tengdoshlari orasida keskin ajralib turardi. Uning sinfdoshlari bolalarcha bajargan ishni u reja va tartib bilan amalgalashiradi edi: u nima qilsa va nima gapirsa avval uni mushohada etib olar, har bir narsa haqida so‘raganlarida doimo o‘ylab javob berardi va hayratomuz gaplari bilan keyingi savollarning oldini ola bilardi¹. Rishelyening birinchi

¹ Черкасов П.П. Кардинал Ришелье. — М.: «Международные отношения», 1990. — С.17.

yillardagi hayoti bo'yicha XX asrda psixologik-tahliliy tadqiqotlar olib borgan amerikalik olim Elizabet Marvik, hali bolaligidayoq unda yetakchilikka kuchli intilish bo'lgan, degan xulosaga keladi. Kollejda, keyinchalik Pluvine akademiyasida ham u doimo faqat birinchi bo'lishga intilgan.

Arman dyu Plessi eng katta muvaffaqiyatlarga o'qishning ikkinchi bosqichida erishadi. Kollej rektori Jan Ivonni va Sorbonnaning olim a'zolarini fransuz qirollarining Sen-Denidagi dahmasini ziyorat qilish marosimida kuzatib borish uchun xonishchi etib tayinlaganlarida u 12 yoshda edi.

... Arman dyu Plessi kam sonli tengdoshlari qatorida uchinchi bosqichda ham o'qishni davom ettirish istagini bildiradi. U falsafani o'rganishga qattiq kirishadi. Kardinal Rishelye balki ana shu o'smirlik davridan xotira sifatida 1638-yilda Navarra kollejida ilohiyot bo'yicha munozaralar kafedrasini tashkil qilgandir...

Kollejni tugallash davriga kelib, Arman lotin tilini mukammal egallagan, italian va ispan tillarida bemalol so'zlasha olgan. Qiziquvchan o'smirning yoqtirgan sohasi tarix edi. Qadimiy tarixni u barcha tafsilotlarigacha bilar va o'tmishdagi u yoki bu voqeа haqida soatlab zavqshavq bilan gapira olardi. Armanning bu sohadagi bilimlari o'z davrining eng zo'r olimlarinikidan hech kam bo'limgan.

Kollejdagi o'qish Rishelyening fe'l-atvoriga ta'sir qiladi. O'sha davrdayoq u eng qiyin holatlarda o'z qat'iyati va sabr-chidamini namoyon qiladi. Shu yillarda uning hech narsani yoddan chiqarmaslik va ayniqsa, hech narsani kechirmaslik xislatlari ham namoyon bo'ladi. Zamondoshlarining guvohlik berishlaricha, uning katta va ko'm-ko'k ko'zlar bilan kishini teshib ketuvchi nigohlaridan hatto kollejning yoshi ulug' rahbarlari ham o'zlarini yo'qotib qo'yganlar.

O'qish oxiriga yaqinlashganida Suzanna de Rishelye Armanning bundan keyingi taqdirini muhokama qilish uchun oilaviy kengash to'playdi. Uni harbiy sohaga yo'naltirishga qaror qilishadi, bu esa yigitchaning o'z istak-xohishlariga to'liq mos kelardi. Arman markiz dyu Shillu unvonini oladi, bu maqom XV asr oxirlarida Rishelyelar oilasiga in'om qilingan joyning nomidan olingan edi. 15 yoshli markiz qilich taqadi va ikkita xizmatkor yollaydi, onasi bilan tog'asi esa unga yangi tarbiyachi kotib – qandaydir janob Le Masjni tayinlaydilar. Arman Pluvinel akademiyasiga o'qishga kiradi va kollej rektori Jan Ivonning ixtiyoridan akademiya rektori Antuan dyu Pluvinelning rahnamoligiga o'tadi.

Lekin 1602-yilda 17 yoshli markiz dyu Shilluning hayotida to'satdan keskin o'zgarish yuz beradi. Armanning akasi Alfons kutilmaganda o'zi uchun tayyorlab qo'yilgan Lyuson yepiskopi lavozimini egallashdan voz kechadi. Bu voqeа qahramonimizning bundan keyingi taqdirini belgilab bergani uchun ham bu haqda batafsilroq to'xtalib o'tish lozim.

Taxminan 1584-yilda (ehtimol, sal avvalroq) Genrix III o'z bosh prevosining xizmatlarini taqdirlash maqsadida unga Lyuson yepiskopligini tuhfa qiladi. Odatda qiro abbatliklarni hadya qilardi. Yepiskoplilikning hadya etilgani qirolning alohida iltifotidan dalolat berardi.

1592-yilda oilaviy kengash Lyuson yepiskopligini o'rtancha o'g'il Alfonsga berishga qaror qiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, Lyuson eparxiyasi ruhoniylari Rishelyelar oilasi vakillariga nafrat ko'zi bilan qaraganlar. Daromadlarni bo'lib olish borasida cherkov bilan mulk egalari o'rtasida doimiy janjallar bo'lib turardi. Ish hatto sudlashishgacha ham yetib borgan. Oila manfaatlariga xavf soya tashlaganligini sezgan de Rishelye xonim Alfonsni tezroq o'qishni tugallashga chorlaydi va bu haqda Lyuson jamoasini xabardor qiladi. Ayni paytda, u o'zining o'rtancha

o‘g‘li yeparxiyaning egasi ekanligi Genrix IV tomonidan tasdiqlanishiga erishadi. 1595-yilda 12 yoshli Alfons dyu Plessi de Rishelye rasmiy ravishda bo‘lajak Lyuson yepiskopi deb e’lon qilinadi.

Muammo butunlay kutilmagan joydan kelib chiqadi. Janjalni onasiga yepiskoplrik lavozimidan qat’yan voz kechganligini va monaxlik sochtaroshini¹ qabul qilishini aytdan bo‘lajak yepiskopning o‘zi keltirib chiqaradi. 1602-yilda Alfons de Rishelye o‘z maqsadiga erishadi va «Anselma ota» nomi bilan karteziylar qarorgohi Grand Shartrezda qo‘nim topadi.

Alfonsning bu qilmishi de Rishelye xonimni sarosimaga solib qo‘yadi. Uncha katta bo‘lmasa-da, doimiy daromad keltirib turgan yepiskoplrikning qo‘ldan ketib qolishi muqarrar edi. Katta o‘g‘li Anri odatiy kiyimini rohiblik jubbasiga almashtirishni aslo xohlamasdi, buning ustiga uning diniy sohada ma’lumoti ham yo‘q edi. Lekin de Rishelye xonimning yana bir o‘g‘li – topqir, aqlii va bilimli Arman bor! Suzanna de Rishelye Armandan oilani xonavayronlikdan asrab qolishni so‘raydi. «Xudoning irodasi shu ekan, – deya u tog‘asi Amadorga o‘z qarorini ma’lum qiladi, – cherkov manfaati va oilamizning shon-shuhrati uchun men hamma narsaga tayyorman».

Ko‘rinib turibdiki, bo‘lg‘usi kardinal va vazir 17 yoshi-dayoq kutilmagan vaziyatlarda muhim qarorlar qabul qila olish qobiliyatiga ega bo‘lgan.

Rishelye Pluvinel akademiyasidagi o‘qishini tashlaydi va Navarra kollejiga qaytib keladi. Markiz dyu Shillu o‘rniga abbat Rishelye paydo bo‘ladi.

Mavjud vaziyat Armanning kollejdagi ta’limni tezroq yakunlashini talab qilardi. Chunki Parij parlamentining

¹ *Sochiarosh* – monaxlikni qabul qilish marosimi (sochni kalta qirqtirish).

qaroriga ko'ra, Lyuson yepiskopligining vaqtincha bosh-qaruvchisi janob Iver bundan buyon umumiy daromadning uchdan bir qismini kafedra jomesini va yepiskoplik saroyini ta'mirlash uchun berishi lozim. De Rishelye xonim oila daromadi keskin kamayishi mumkinligidan qattiq tashvishga tushadi. U 1606-yilda Lyuson yepiskopligi lavozi-miga Arman de Rishelye nomzodi tasdiqlanishi uchun qirolning roziligidini olishga erishadi. Genrix IV bosh prevoning sadoqatli xizmatini unutmagandi va uning oilasiga yordam qilishda davom etardi. Ayni vaziyatda qirol hatto o'rnatilgan tartibni buzishga ham rozi bo'ladi. Bu tartibda, boshqa barcha tomonlardan tashqari, yepiskoplik unvoniga nomzod 23 yoshdan kichik bo'lmasligi nazarda tutilgan bo'lib, abbat de Rishelye esa bu paytda endi 20 yoshga kргgandi.

Bu vaqtga kelib saroyda Armanning sodiq va obro'li rahnamosi — akasi, tabiatan aqli va quvnoq Anri dyu Plessi paydo bo'ladi. Anri ancha yosh paytidanoq saroya jalb qilingan va ko'pchilikning mehrini qozonib ulgurgan edi. Qirolning o'zi va yosh qirolicha Mariya Medichi ham uni yoqtirardilar. Anri ukasining Lyuson yepiskopi etib tayinlanishiga erishadi.

Bo'lg'usi kardinalning ikkinchi homiysi 1603-yilda Anri va Armanning opasi Fransuazaga uylangan qirollik gvardiyasi kapitani dyu Pon de Kurle bo'lди. 1626-yilda Fransuaza va uning uncha yosh bo'lмаган turmush о'rtog'i vafot etganlaridan so'ng kardinal Rishelye ularning bolalarini asrab oladi: qizcha keyinchalik gersog xonim d'Egiyon, o'g'il esa — qirol galeralari generali bo'ladi.

Anri dyu Plessi va kapitan dyu Pon de Kurle, Genrix IV ning Rimdag'i elchisi d'Alenkur Lyuson yepiskopi haqida kerakli odamlarga doimo eslatib turadilar. Bu ish Rim bilan Parij o'rtasida kelishilayotgan bir paytda Arman ilohiyot

¹ Galera — XIX asrgacha lo peshkar va qo'shish uchun day atalgan.

sohasidagi ta’limni yakunlashga shoshilardi. 1606-yilning iyun va iyul oylarida u ilohiyot magistri unvonini oladi, shundan so‘ng Arman Sorbonna rektorida bundan keyingi o‘qishida tanaffus berilishini so‘raydi.

Rim papasi idorasining shoshilmayotganligi va Lyusondagi vaziyatning yomonlashayotgani Rishelyeni qat’iy harakatlar qilishga undaydi. Yosh yigit qirol Genrix IV ning roziligini olgach, olis yo‘lga otlanadi. Uning maqsadi — Rim.

Rimga safar qariyb bir oy davom etadi. Charchab holdan toygan, jiddiy shamollagan Arman 1607-yilda Rimga kirib keladi. U bir necha kunni to‘sakda o‘tkazishga majbur bo‘ladi.

Dastlabki kunlarda yosh fransuz o‘zining ulug‘vorligi va ko‘p tilliliqi bilan hammani hayratga solib kelayotgan Mangu shaharni kezib, beqiyos manzaralarni tomosha qiladi. Bu yerda nasroniylar, musulmonlar va yahudiylar tinch-totuv yashar edilar. Katolik olam poytaxtining qoq markazida, Trastever mahallasida yahudiylar sinagogasi qad ko‘tarib turardi. Bo‘lajak kardinal aynan Rimda g‘oyaviy sabr-toqat va diniy bag‘rikenglikning birinchi sabog‘ini oladi.

Birmuncha vaqt o‘tganidan so‘ng elchi d‘Alenkur yosh prelatni¹ Papa Pavel V ga tavsiya qiladi. Mashhur Borgeze oilasining vakili bo‘lgan g‘ayratli Pavel V katoliklik asoslarini mustahkamlash va Reformatsiya² da‘vatlariga munosib javob qaytarish qarorini qat’iyat bilan amalga oshirishga tayyor edi.

Papa saroyi bilan bevosita tanishuv, shubhasiz, kardinal Rishelyening Rim bilan keyingi munosabatlariga jiddiy ta’sir

¹ *Prelat* — katolik cherkovida yuqori diniy lavozimdagи shaxslarga beriladigan unvon.

² *Reformatsiya* — XVI asrda G‘arbiy Yevropada katolik cherkovini isloh qilish uchun cherkovga va papa hokimiyatiga qarshi olib borilgan diniy shakldagi ijtimoiy-siyosiy harakat.

ko'rsatadi. Uning o'tkir nigohlaridan papalikning kuchli va zaif tomonlari chetda qolmaydi. Yiroqdan ulug'vorlik va qudrat ramzlaridek taassurot qoldiradigan ishlar yaqinidan qaraganda ahamiyatsiz va arzimas narsalar bo'lib chiqadi.

Tez orada Rishelye Vatikanda tanilib qoladi. Barchani uning g'ayrioddiy xotirasi hayratga solardi. Bir kuni saroy maddohlaridan birining ko'p sonli tinglovchilar oldida o'qigan ancha davomli va'zini so'zma-so'z takrorlab beradi. Bu haqdagi gap-so'zlar Papagacha borib yetadi. Bir necha kundan keyin u Rishelyeni o'z yoniga chaqirtiradi va eshitgan va'zini uning muallifi ishtirokida takrorlab berishni so'raydi. Arman Papaning iltimosini bajaradi va bu bilan uning samimiy hayratiga va tahsiniga sazovor bo'ladi.

1607-yili 17-aprelda, ya'ni Pasxa¹ kuni, kanonik huquq magistri Arman Jan dyu Plessi de Rishelye kardinal Jivri tomonidan mumkin bo'lgan muddatdan bir yil-u uch oy oldin yepiskoplik lavozimiga loyiq ko'rildi.

Yosh yepiskop 1608-yilning 20-dekabrida Lyusonga yetib keladi. U o'sha kuniyoq shaharliklarga murojaat maktubi yo'llaydi va nomasida Lyusonlik gugenotlarni ham unutmaydi. Yepiskop barcha shaharliklarning ehtiyojlariga e'tiborli bo'lishga va'da beradi va alohida ta'kidlaydi: «Kaminaning istagi, biz diniy e'tiqodimizdan qat'iy nazar o'z qirolimizga bo'lgan muhabbatimizda yakdil bo'laylik».

Sof siyosiy maqsadlardan tashqari, Rishelye bu yerda o'zining moddiy ahvolini ham yaxshilab olish umidida edi. U qanchalik yosh bo'lsa, shunchalar kambag'al ham edi.

¹ Pasxa – nasroniyarda Iso Masihning afsonaviy tirilishiga bag'ishlab o'tkaziladigan diniy bayram. Dastlab yahudiylarda ko'klamga bag'ishlangan bayram hisoblangan.

Yeparxiya bilan tanishuv ruhoniylarning axloqi talab darajasida émasligini ochib beradi. G‘ayratli yepiskop darhol bunga qarshi harakat boshlaydi. U tartibbuzar abbatlar va kyurelarga qimor o‘ynaganlari, shuningdek, savdo-sotiq bilan shug‘ullanganlari uchun 10 livrdan 120 livrgacha jarima belgilaydi. Yepiskop Rishelye ulardan barcha diniy bayramlar (ular bir yilda 50 dan ortiqroq edi) va marosimlar nishonlanishini talab qiladi.

Yepiskop qirol saroyidagi nufuzli a‘yonlar bilan yaxshi munosabat o‘rnatish o‘ta muhimligini yaxshi bilardi. Doimo ular orasida bo‘lish, qabul marosimlarida va ziyofatlarda qatnashish kerak, ammo o‘zing bunday joylarga taklif izlamasliging, o‘z izzat-hurmatningni saqlashing lozim, deb hisoblardi u. Barcha bilan teng bo‘lish, kimga bo‘lmasin ochiqdan ochiq moyillik bildirmaslik, ko‘proq jim turish va ko‘proq tinglash, biroq o‘zini dilgirlikka moyil yoki beparvo qilib ko‘rsatmaslik, biror kishi gapirganida qiziqib tinglash lozim. O‘z fikringni suhbatdoshingga nisbatan ehtirom saqlagan holda bayon qilish, hech qachon suhbatni umumlashtirmaslik va ayniqlsa, ayblovchi xulosalar chiqarmaslik kerak.

Qabul marosimlarida faqat «ishtirokchilarga zerikarli bo‘Imagan va ishtirok etmayotganlarga qiziqrli bo‘Imagan» narsalar haqidagina gapirish; eng qulay mavzular — tarix va geografiya; suhbatda nasihat berishdan qochish va o‘z bilimlarini keragidan ortiqcha namoyon qilmaslik lozim. Kamtar va bosiq bo‘lish, o‘z xabardorligi bilan shubha uyg‘otmaslik, bilimlarning barchaga ma’lum bo‘lgan ma’lumotlari doirasidan chiqmaslik kerak; o‘z qobiliyatlarini namoyish qilish yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, Rishelyening maqsadi aniq — Parijga qaytish. Bunga erishish vositalari — g‘ayrat, epchilik va sabr-toqat.

1610-yil may oyining so‘nggi kunlarida Rishelye vikariy Butile de La Kosheradan tashvishli bir maktub oladi. 16-mayda yuborilgan maktubida vikariy yepiskopga Parij ko‘chalaridan birida qandaydir Fransua Ravalyak ismli kimsa o‘z ko‘shk arobasida sayr qilib yurgan qirolni xanjar bilan zarba berib o‘ldirganligini xabar qiladi.

Tarixda tez-tez bo‘lib turganidek, bu safargi qotillik ham ancha romantik qobiqqa o‘ralgan edi.

O‘zining muhabbat mojarolari bilan mashhur bo‘lgan, shu tufayli yosh rafiqasining g‘azabi va rashkini qo‘zg‘atib turadigan 56 yoshli qirol Genrix IV 1609-yilda 14 yoshli Sharlotta de Monmoransiga oshiq bo‘lib qoladi. Saroy qoidalariga ko‘ra qirol nufuzli oiladan chiqqan va hali turmush qurmagan qizni o‘ziga mahbuba qilib ololmas edi. Avvaliga uni turmushga chiqarish va bunda gapga ko‘nadigan kuyov tanlash muhim bo‘lgan. Sharlotta o‘zining ayollarga juda o‘chligi bilan nom chiqargan Fransua de Bassam-pyerga unash tirilgan edi. Genrix IV tayyorlanayotgan nikohni buzishga va Sharlottani o‘zining yaqin qarindoshi, yuvosh va gapga ko‘nadigandek tuyulgan shahzoda Kondega uzatishga erishadi. Keyingi voqealar qirol qanchalar yanglishganini namoyon etadi.

Konde o‘ziga atalgan rolni bajarishdan qat’ian bosh tortadi. Uylanganidan keyin u tez kunlarda saroyni tark etadi va yosh xotini bilan o‘zining ko‘p sonli mulklaridan birida yashay boshlaydi. Qirol g‘azabining cheki-chegarasi ko‘rinmasdi. U er-xotin Kondelarning darhol ajrashishlarini talab qila boshlaydi. Qirolning shafqatsiz fe’lini yaxshi bilgan Kondelar Fransiyani yashirin tarzda tark etadilar va o‘sha paytda Ispaniya tasarrufida bo‘lgan Niderlandiyadan panoh topadilar.

Tarixchi Jyul Mishlening guvohlik berishicha, Genrix uyqusizlik kasaliga uchraydi. 14-may tongida ham bezovtalik uni tark etmaydi.

Kunduzi soat to‘rtda Genrix sayr qilishni istaydi va ko‘shk arobani qo‘shishlarini buyuradi. U arobani bankir Polening xonadoniga, yana ham aniqrog‘i — uning malla-soch qizi yoniga haydashni buyuradi. Kun quyoshli, issiq edi. Qirol charmdan qilingan pardalarni tortib qo‘yishni buyuradi. Ko‘shk arobada u bilan birga janob de Monbazon va gersog d‘Epernonlar ham ketayotgan edilar. Ular berilib suhbatlashar va ortlaridan bir kishi qadam-baqadam kelayotganligini sezmasdilar. Burilishlardan birida qirol arobasi sekinlashdi, ana shu payt kutilmaganda aroba eshiklari ochiladi va qirol Genrix IV zinachada turgan noma'lum kishidan xanjarning birinchi zarbasini oladi. Bu Ravalyak edi.

«Men yaralandim!» — deya qichqiradi qirol va hujumdan himoyalanish uchun chap qo‘lini ko‘taradi. Bu uning so‘nggi harakati edi. Ravalyak yashin tezligida ikkinchi zarbani beradi, xanjar yurakni teshib o‘tadi va qirol o‘sahahotiyoy qon beradi. Qotil yashirinishga urinadi, biroq uni ushlab oladilar. Nihoyat, o‘ziga kelgan d‘Epernon markabni darhol Luvrga haydashni buyuradi. U turli tomonga qochib, yo‘l bo‘shatayotgan yo‘lovchilarga qarab qichqiradi: «Qirol yarador!».

Hali ko‘p yillar hukmronlik qilishni mo‘ljallagan qirol hech qanaqa vasiyatnoma qoldirmagandi. Otasi halok bo‘lgan paytda bo‘lg‘usi qirol Ludovik XIII hali to‘qqiz yosha ham to‘limgan edi. Qirol o‘limidan bir kun keyin — 15-mayda bo‘lib o‘tgan parlament majlisи uning bevasi Mariya Medichi regentligini¹ tasdiqlaydi.

Rus tarixchisi T.N. Granovskiyning fikriga ko‘ra, Genrix IV ning o‘limi Fransiya uchun juda katta yo‘qotish bo‘lgan. Fransiyaning tepasida qirolning bevasi, italiyalik ayol, asabiy va zaif fe‘l-atvor egasi, xalqning ishonchini qozon-

¹ *Regent* — taxt vorisi yosh bo‘lganda, u voyaga yetguncha hokimiyatni boshqaruvchi shaxs.

magan kishi qolgandi¹. Buning ustiga amalda hokimiyat qirolichaning jazmanlari — florensiyalik Konchini², keyin esa Lyuin qo‘lida edi. Bundan norozi bo‘lgan Konde va boshqa shahzodalar markaziy hokimiyatga qarshi muxolifatni shakllantirdilar.

Poytaxtda bo‘layotgan voqealardan Rishelye faqat xatlar orqaligina xabardor edi. Maktublardan u bir qator to‘g‘ri xulosalar chiqaradi. Yepiskop Lyuson qarorgohidan tashqariga chiqish haqida tobora ko‘proq o‘ylay boshlaydi. 22-mayda, ya’ni qiro Genrix IV ning o‘limidan bir hafta keyin, Rishelye o‘zining akasi markiz de Rishelyega qirolichaga atalgan maktub jo‘natadi. Unda yepiskop o‘z nomidan va Lyuson yepiskopligrining barcha ruhoniyari nomidan regent qirolichani muborakbod etib, unga chin yurakdan xayrixoh ekanliklariga va sadoqat bilan xizmat qilishga tayyor ekanliklariga ishontiradi.

Iyulning so‘nggi kunlarida Rishelye Parijga keladi va akasining yordamida avvalgi tanishlari bilan munosabatlarni tiklab oladi va yangi tanishlar orttiradi.

Yepiskop Parijning turli cherkovlarida va ’zonlik qiladi. Parijga bu tashrifi davomida Rishelye regent-qirolicha bilan uchrasha olgan yoki uchrasha olmaganligi noma’lum, lekin hatto uchrashganida ham yepiskopning umidlari oqlanmaganligi aniq. Mariya Medichi butunlay davlat ishlari bilan band edi va qanday qilib marhum erining vazirlarini amaldan chetlatish haqidagina qayg‘urardi.

1612-yilda Lyuson yepiskopi yana Parijga keladi. Bu safar uning do‘srtlari va yordamchilari Rishelyening tashrifiga yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan edilar. Endi uni saroyda hurmatli mehmon sifatida qabul qiladilar. Unga hatto Sent-Andre-dez-Ar ibodatxonasida, regent-qirolicha ishtirokida

¹ Q a g a n g : Грановский Н. Т. Лекции по истории средневековья. — М.: «Наука», 1986. — С. 271.

² Konchini qirolicha e’tibori va harakatlari tufayli markiz d’Ankrga aylandi va palataning birinchi a’yonii etib tayinlandi.

va'z o'qishni topshiradilar. Yepiskop bu safar murakkab vaziyatni to'g'ri baholay oladi. O'z va'zlarida u qavmgan mamlakatda tinchlik va xotirjamlikni saqlab turgan ona qirolichaning davlatchilikdagi donoligi haqidagi fikrlarni zo'r berib uqtira boshlaydi. Ayni paytda, Rishelye bir qancha vaqt Puatuda o'rnashib qolgan shahzoda Konde bilan ham munosabatlarini yaxshilab oladi.

Yepiskop Rishelye mamlakatda juda katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan marshal d'Ankrga yaqin bo'lib olishga urinishda davom etadi.

O'g'lining voyaga yetish damlari yaqinlashgan sari Mariya Medichi o'z regentligini qanday qilib uzaytirish haqida tez-tez bosh qotira boshlaydi. 1612-yil 27-sentabrda Ludovik XIII rasman suveren qirol deb e'lon qilinadi. Qirolga toj kiydirish marosimi 1612-yil 2-oktabr kuni o'tkaziladi. Qiroliche mamlakatni boshqarishni rasman o'g'liga topshirganligini bildiradi.

Aslida 2-oktabrdan keyin ham hokimiyatda o'zgarish bo'lmaydi. O'smir qirolning hukmdorligi faqat nomigagina edi. Hamma ishlarni hali ham marshal d'Ankr va uning ta'siri ostida ish ko'rvuchi qirolning onasi hal qildi.

1614-yilda butun Fransiya bo'ylab General shtatlarga¹ saylovlari o'tkaziladi. 23-iyunda Lyuson yepiskopi Puatu gubernatori gersog de Sullidan uning eparxiyasidagi saylovlari haqida ko'rsatma oladi. Rishelye hal qiluvchi damlar yetib kelganligini payqaydi. U bundan nima qilib bo'lsa ham foydalanishi kerak edi.

1614-yil 10-avgustda qo'ng'iroqlar jarangi saylovchilarni ovoz berishga chorlaganiga qadar yepiskop yaxshi tayyorgarlik ko'rib ulgurgandi.

¹ General shtatlar – feodal Fransiyada vakillik organi (parlament) shunday atalgan.

Rishelye General shtatlarga deputat qilib saylanganidan va o‘z yordamchisi Sent-Iller hamrohligida Parijga kelganidan keyin qat’iy qaror qabul qiladi: u o‘zini Fransiyaga xizmat qilishga bag‘ishlamog‘i lozim. Eng avvalo uni siyosiy masalalar qiziqtiradi. Ruhoniylit jubbasi — ko‘zlangan maqsadga erishishni osonlashtiruvchi qulay vosita, xolos. Uning oldida ikkita maqsad turardi — kardinallik va vazirlik. U General shtatlar ishida faol ishtiroki bilan bu maqsadga erishishga umid qilardi. Mamlakat taqdirini hal qiluvchilar uning salohiyatini munosib baholashlari va o‘zlarining tor doiralariga qabul qilishlari kerak!

Birinchi marta General shtatlar Fransiyada 1302-yilda chaqirilgan. Feodal monarxiyaning eng muhim instituti bo‘lgan General shtatlar uch tabaqaning — ruhoniylar, zodagonlar va shaharliklar yuqori doirasining manfaatlarini himoya qilardi. Odatda General shtatlar davlat uchun qiyin bo‘lgan davrlarda chaqirilardi. Masalan, diniy urushlar paytida — 1560, 1576 va 1588-yillari chaqirilgan. 1614-yilgi General shtatlar XVIII asr oxiridagi Buyuk Fransuz inqilobi oldidan barcha uch tabaqaning so‘nggi majlisidan oldingi yig‘ilish bo‘ldi.

Oktabrning birinchi kunlarida deputatlar poytaxtga kela boshlaydilar. Lyuson yepiskopi ham Parijga keladi. Ruhoniylar — 140, zodagonlar — 132, uchinchi tabaqa 192 nafar vakil jo‘natadilar. Hammasi bo‘lib 464 nafar deputat keladi.

Ertalab soat 8 da barcha 464 nafar deputatlar qirov va ona qirolichaning kelishini kutib, ibodatxona maydonida to‘planadilar. Soat 10 da Ludovik XIII, Mariya Medichi, oliynasab shahzodalar ibodatxona darvozasida paydo bo‘ladilar. Bosh darvoza oldidagi hasham dor chodir ostida ularga o‘rindiqlar o‘rnatalgan. Deputatlar birin-ketin, qat’iy tartib bilan ularning oldidan o‘tadilar.

General shtatlarning birinchi kengashi 27-oktabrda boshlanadi. Eng yuqoridagi alohida o‘rindiqlarda Ludo-

vik XIII, Mariya Medichi, Margarita Valua va Yelizaveta Fransiyalik joylashadi. Shundan keyin har bir tabaqadan bir kishi chiqib nutq so‘zlaydi.

Tez orada ruhoniylar palatasida birinchi tabaqa nomidan Lyuson yepiskopi so‘zga chiqishini Mariya Medichi istayotganligi ma’lum bo‘ladi. Qirolichaning xohishi yosh, o‘zini yaxshi tomondan ko‘rsata olgan yepiskop tarafida bo‘lgan ruhoniylar palatasining fikriga mos keladi. Shu tariqa Rishelye 1615-yil 23-fevralda bo‘lib o‘tgan General shtatlar kengashida mazmunli nutq so‘zlaydi.

Eng avvalo, Rishelye General shtatlar kengashida fransiya ruhoniylarini tashvishga solib turgan muammolarни bayon qilish imkonining berilganligi uchun qironga minnatdorlik bildiradi. Uning nutqida mamlakatni boshqarishda cherkovning yanada kengroq ishtirokini ta’milashga da’vat jaranglaydi. U katolik cherkovining ta’siri pasaygani, cherkov xizmatchilarining moddiy ahvollari yomonlashgani, ruhoniylarning savodsizliklari haqida gapiradi.

Rishelye o‘z nutqini Mariya Medichiga chin yurakdan murojaat bilan yakunladi: «Siz juda ko‘p ishlar qildingiz, xonim, ammo bu bilan to‘xtab qolmaslik lozim: g‘urur va shon-sharaf yo‘lida yanada olg‘a bormaslik, bu yo‘lda yuksaklarga ko‘tarilmaslik chekinish bilan barobardir. Lekin Siz bunchalar ajoyib muvaffaqiyatlardan keyin mamlakatni shunday boshqarishingiz lozimki, Siz, Janobi Oliyalari, qirolning onasi degan sharafli unvonga qirollikning onasi degan ajoyib nomni ham qo‘sib qo‘ying!»¹.

General shtatlardagi ishlari tugaganidan keyin Rishelye birmuncha vaqt Parijda qoladi. Saroyda esa go‘yoki Lyuson yepiskopini unutishgandek edi. Hayot bir maromda davom etar, xuddi hech qanaqa General shtatlar bo‘limgandek edi.

¹ Черкасов П.П. Кардинал Ришелье. – М.: «Международные отношения», 1990. – С. 75.

Saroy Mariya Medichi rejalahtirgan ispanlar bilan nikoh marosimiga tayyorgarlik og'ushida qolgandi. Yelizaveta Fransiyalik Ispaniya taxtining bo'lajak egasiga turmushga chiqishi, infanta¹ Anna Avstriyalik esa Lyudovik XIII bilan nikohlanishi va Fransiya qirolichasiga aylanishi kutilayotgandi. Bo'lg'usi qirolichaning saroyini tashkil qilish va uning uchun ruhoni ota tanlash Mariya Medichini va uning atrofidagilarni General shtatlar qarorlaridan ko'ra ancha ko'proq tashvishga solardi.

Bo'lg'usi qirolichaning ruhoni otaligiga Lyuson yepiskopi nomzodini markiz Anri de Rishelye va uning do'stlari ko'rsatadilar.

Muhim tashvishlar bilan band bo'lgan holida ham Mariya Medichi Lyuson yepiskopini unutmagan edi. U Rishelyeni yosh qirolichaning ruhoni otasi etib tasdiqlaydi va bu haqda uning o'zi rasman xabardor etiladi.

9-noyabrda qirollik korteji Fransiya bilan Ispaniya chegarasida joylashgan Bidassoa shaharchasiga yetib keldi. Dabdababozlikda bundan kam bo'limgan Ispaniya vakillari ham shu yerda hozir bo'ladilar. O'sha kunning o'zidayoq kelinchaklarni — 13 yoshli Yelizaveta Fransiyalikni va 14 yoshli Anna Avstriyalikni almashtirish marosimi bo'lib o'tadi.

Yangi 1616-yil Mariya Medichi bilan undan norozi bo'lib yurgan shahzodalar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni bartaraf etish umidini uyg'otadi. Parijga yurish qilish uchun yetarli kuchga ega bo'limgan shahzoda Konde va uning tarafдорлари markaziy hokimiyat bilan kelishish yo'llarini izlashga majbur bo'lishadi.

Qirollik kengashida kerakli o'zgarishlar qilingan, Mariya Medichi asosiy lavozimlarga o'z kishilarini qo'yishga muvaffaq bo'lgandi. Endi Burje atrofida qo'shin to'plab turgan

¹ Infanta, infant — Ispaniya va Portugaliyada qirolicha va shahzodalarga beriladigan unvon.

o'jar Kondeni muzokaralar olib borishga ko'ndirish kerak edi.

Muzokaralar olib borishni kimga topshirish mumkin? Mariya Medichi Lyuson yepiskopini tanlaydi.

Bu Rishelyega yuklatilgan birinchi siyosiy topshiriq edi. Izzattalab yepiskopning kelajagi topshiriqning muvafiqiyatli bajarilishiga bog'liq ekanligini uning o'zi yaxshi angardi.

Mariya Medichining vakili qanday ish ko'rganligini qat'iy ishonch bilan aytish qiyin, lekin harholda, 1616-yil 17-iyul kuni muxolifat yo'lboshchisi o'z tarafdarlarini ham, ona qirolichani ham hayron qoldirib, kutilmaganda Parijga kirib keladi. Bu muvaffaqiyati bilan, deb ta'kidlaydi Rishelyening biografi Gabriel Anoto, Lyuson yepiskopi bir yo'la ajoyib vositachi va uzoqni ko'ruchchi siyosatchi obro'siga ega bo'ldi. Ana shu paytdan boshlab Rishelye ona qirolichaning shaxsiy maslahatchilarini tor doirasi safiga qo'shildi!

Mariya Medichi Kondeni izzat-hurmat bilan qabul qiladi va darhol uni Qirollik kengashi safiga kiritadi. Ammo baribir haddan tashqari izzattalab Kondening g'ururi qoniqmagandi. Shahzoda Konde hali ham o'zidan o'mak olishga shoshilmayotgan va hali ham o'z qurolli qo'shinlarini saqlab turgan tarafdarlari — Mayen gersogi, de Longvil va de Builonlar bilan aloqasini uzmagandi. Rishelyening fikricha, Kondening eng qat'iy fikri — «qirolni taxtdan ag'darish va uning o'mini o'zi egallah» — borgan sari oydinlashib bormoqda edi.

Qo'rqib qolgan Mariya Medichi Barbenning maslahatiga ko'ra, favqulodda choralar ko'rishga qaror qiladi, bu esa

Aslida Ludenda imzolangan kelishuv faqat Rishelye siyosiy ustomonligining natijasi bo'lmasdan, bu kelishuvga ko'ra Konde yarashish uchun 1,5 mln. livr pul olgan va qirolning maxsus reskripti e'lon qilinib, unda muxolifat qironga «yoqmaydigan hech qanday ish qilmaganligi» ta'kidlangan. (Qarang: История Франции в трёх томах. — М.: «Наука», 1971. Т.1, — С. 238.).

mamlakatda yangi fuqarolar urushi xavfini tug‘dirardi. 1616-yil 1-sentabrda Kondeni hibsga oladilar va Bastiliya qo‘rg‘oniga qamab qo‘yadilar.

Yaxshi o‘ylab berilgan zarba kerakli ta’sirini ko‘rsatadi. Hech kim ona qirolichadan bunday qat‘iy harakatlarni kutmagandi. Kondening tarafдорлари shoshilinch ravishda Parijni tark etadilar va yashirinib oladilar. Muxolifatning poytaxtda isyon ko‘tarishga urinishlari sanoqli soatlarda bostiriladi.

5-oktabr kuni isyonkor shahzodalar qarshilik ko‘rsatishni to‘xtatganliklarini e’lon qiladilar va markaziy hokimiyatga bo‘ysunishlarini bildiradilar. Faqat gersog de Builon va gersog de Never hamda Shampang gubernatori kurashni to‘xtatmayotgan edilar.

Rishelyening saroy bilan isyonchilar o‘rtasida vositachi bo‘lishga ikkinchi bor urinishi hech qanday natija bermaydi. Shampanga sayohatdan yepiskop natijasiz qaytadi.

Parijga qaytib kelgan Rishelye o‘zining Ispaniyaga elchi qilib tayinlanganidan xabardor bo‘ladi. Yosh qirolichaning ruhoniy otasi Ispaniyaga jo‘nab ketishga hozirlik ko‘rayotgan bir paytda kansler dyu Verner isyonkorlar bilan yashirin aloqada ekanligi ma’lum bo‘lib qoladi. U hibsga olinadi va uning o‘rnini tashqi ishlar bo‘yicha davlat kotibi Klod Mango egallaydi, Mangoning o‘rni esa bo‘sh qoladi.

32 yoshli Lyuson yepiskopi – yangi davlat kotibi lavozimiga tayinlanadi. U General shtatlar minbarida paydo bo‘lganidan buyon o‘tgan 18 oy davomida ko‘p narsalarga erishdi: yosh qirolichaning ruhoniy otasi, Mariya Medichining shaxsiy maslahatchisi, davlat kotibi va qirollik kengashi a’zosi bo‘ldi. Uning xizmatlarini tan olish belgisi sifatida yiliga 6 ming livr miqdorida nafaqa belgilanadi – umuman olganda, kamtarona hadya, biroq bu Rishelyega

uning tojdor rahnamolari kelajakda yog‘diradigan oltin yomg‘irning faqat bir tomchisi edi, xolos.

Yepiskop davlat kotibi etib tayinlanishidan bir necha kun oldin eski oilaviy qo‘rg‘onda, 60 yoshida, o‘z sevimli erkatoining bиринчи tantanasini ko‘ra olmasdan uning onasi de Rishelye xоним sekin-asta so‘nib borardi. Boshiga tushgan ishlar girdobida qolgan Rishelye Parijdan chiqib keta olmaydi va onasi bilan so‘nggi vidolashuvga bormaydi.

Marshal d‘Ankr Rishelyeni Lyuson yepiskopligidan voz kechishga undab ko‘radi, biroq Berben va boshqa obro‘li do‘stlari yordamida yosh vazir merosiy mulkni o‘zida saqlab qoladi. Ammo Anna Avstriyalikning ruhoniy otasi lavozimini boshqa kishiga topshirishga majbur bo‘ladi. Bu paytga kelib Rishelyening moddiy ahvoli ancha yaxshilangandi. Bir yilga 17 ming livr, albatta, orzularning eng yuqori chegarasi emasdi, lekin bu mablag‘, harholda, uning unvoni va yuksak lavozimiga munosib hayot kechirish imkonini berardi.

Yangi davlat kotibi diniy unvoniga qaramasdan, dunyo-viy hayotga ham befarq emasdi. Uni ziyofatlarda va hatto maskaradlarda ham tez-tez uchratish mumkin edi. U kelishgan, xushbichim, dilkash, xushmuomala edi va faqatgina amaldorlarga emas, yosh xonimlarga ham yoqishga urinardi.

Qirolning maxsus taqdimnomasiga ko‘ra, Rishelyening vazifasiga siyosat va diplomatiyadan tashqari, harbiy ishlarga oid bo‘lgan xabarnomalar, maktublar va boshqa hujjalarni tuzish ham kirardi. Shuning uchun Rishelye egallagan lavozim uning faoliyatiga muvofiq tashqi va harbiy ishlar davlat kotibi deb atalardi.

1617-yil 24-aprel kuni ona qirolichaning eng ishongan kishisi, qirol Lyudovik XIII ga esa mamlakatni boshqarishni o‘z qo‘liga olishda xalaqit berayotgan yagona kishi — marshal d‘Ankr o‘ldiriladi. Uning o‘limi bilan Mariya Medichi ham, u o‘z panohida asrab kelayotgan ko‘pgina amaldorlar, shu

jumladan, Rishelye ham qiroq Lyudovik XIII ning marmamatidan mahrum bo'ladilar.

Marshal d'Ankrning o'limidan so'ng bir necha kun davomida ona qirolichcha o'z qarorgohidan tashqariga chiqmadi. Tez orada qiroq o'g'il sifatida onasini hurmat qilishini, ammo bundan buyon o'z xohishiga ko'ra hukmronlik qilishini qirolichaga bildirdi.

Qiroq onasining Parijdan chiqib ketishini talab qilardi. U boshqaruv hokimiyatini tezroq o'z qo'liga olishga shoshilardi. Mariya Medichi amalda surgunga teng bo'lgan Parijdan ketish shartlarini kelishib olish uchun qiroqning yoniga vakil qilib Rishelyeni yubordi.

Kelishuv uzoq cho'zilmadi. Mariya Medichi o'ziga tegishli bo'lgan Mulen qo'rg'oniga ketishi lozim edi. Qiroliche o'zining barcha daromadlari va mulklarini saqlab qoldi. Tez orada Rishelye eng qisqa muddatlarda barcha ishlarni janob Villeruaga topshirish haqida buyruq oldi.

Lyuson yepiskopi o'zining qamoqqa olingan ko'pgina safdoshlariga nisbatan omadi chopganini yaxshi tushunardi. Qiroliche va marshal d'Ankrning barcha tarafдорлари Parijdan chiqarib yuborildi.

Surgunga ketayotib, Mariya Medichi Rishelyega uning kengashini boshqarishni taklif qiladi. Rishelye ehtiyojkorlik bilan avval bunga qiroqning roziligini oladi.

Qiroqning hukmdorlik huquqini hurmat qilish sharti bilan ona-bolani yarashishga ko'ndirish uchun Rishelye ona qirolichaga nisbatan o'zining bor ta'sirini qo'llaydi. Nihoyat, u Mariya Medichini ko'ndiradi.

1619-yil 11-iyunda tomonlar murosaga kelishadi. Qiroliche Luara qirg'oqlaridagi qo'rg'onlar bilan Anju muzofotini oladi. Gersog d'Epernonga barcha lavozim va unvonlari qaytariladi. Muzokalaralarning faol ishtirokchisi Lyuson yepiskopini ham unutmaydilar: u ona qirolichaning Ken-

gashini boshqarish yoki o‘z eparxiyasiga qaytishdan birini tanlashi mumkin edi.

1619-yil 8-iyulda mash’um fofia yuz beradi: qirov gvardiyasining kapitani de Temin bilan duelda markiz Anri de Rishelye o‘ldiriladi. U yuragiga sanchilgan tig‘ning zarbidan qulayotib: «Xudoyim, meni kechirgin!» deyishga ulguradi, xolos. Farzandsiz bo‘lgan markizning o‘limi bilan naslni davom ettirishga bo‘lgan umid ham so‘nadi.

Markiz de Rishelye ukasiga qarzlardan boshqa hech narsa qoldirmagandi. Lekin, bo‘sab qolgan Anjer harbiy gubernatorligi lavozimiga Lyuson yepiskopi o‘zining boshqa bir qarindoshini — Malta ordeni komandori, tog‘asi de la Portni o‘tqazishga erishadi. Yepiskop Mariya Medichi-ga o‘tgan barcha mulklar va qo‘rg‘onlarga ham o‘z odamlari ni qo‘yadi.

Tez orada Rishelye yana bir tashvishli xabar oladi: Venson qal’asidan Lyuson yepiskopining faol ishtirokida qamalgan shahzoda Konde ozod qilindi. Rishelyeda yana bir xavfli dushman paydo bo‘ladi.

Ana shunday qiyin damlarda kutilmagan tashrif bilan qirov vakillari Jannen, Belgard va San arxiyepiskopi keladilar. Ular yangi taklif kiritadilar: qirov o‘z onasi bilan kelishishni va tinch-totuvlikni istaydi. Mariya Medichi qarorgohida bar-cha yengil tin oladi. Yepiskop Rishelye darhol tinchlik ha-qida kelishuvga kirishadi. Kelgusi kuniyoq qirolichcha Rishe-lyeni va kardinal de Surdini Ludovik XIII ning huzuriga yuboradi. Qirov ularni iltifot bilan qabul qiladi. Qabuldan keyin qirolichcha vakillari qirovning ishonchli kishilari bilan muzokalarlarni davom ettiradilar. Kelishuv ikki kun davom etadi va 1620-yil 10-iyulda tinchlik shartnomasi tuzilishi bilan yakunlanadi. Qirov Mariya Medichining tarafdarlariga umumiyl afv e’lon qiladi, ularga qasrlar, qo‘rg‘onlar, lavozimlar va unvonlar qaytarib beriladi. Qirolichaga Pon-de-Sen shahri beriladi va «xarajatlarni qoplash» uchun 300

ming livr taqdim qilinadi. Ludovik XIII «uning o‘ziga va davlat foydasiga xizmat qilishdan boshqa maqsadi bo‘limgan» onasini to‘liq oqlovchi deklarasiya qabul qiladi. Qirol buning evaziga ona qirolichadan faqat bir narsani — saroyda yashashni va o‘g‘lining yaqin kishilar bilan kelishishni talab qiladi.

Rishelyening ko‘ngli to‘ladi, buning ustiga qirolning arzandasи Lyuinning shaxsan o‘zi unga kardinallik lavozimini va’da qiladi. Lyuin unga ko‘ngli yaqinligini namoyon qilib, o‘z jiyani de Kambaleni Rishelyening jiyanlaridan biri — madmauzel Vinero de Pon Kurlega uylantirish istagini ham bildiradi. Mariya Medichining maslahatiga ko‘ra, Rishelye bu nikohga rozi bo‘ladi. Shu tariqa taqdir yana bir bor uni siyaydi.

1622-yilning 22-dekabr kuni Lion arxiyepiskopligining kafedra ibodatxonasida ona qirolicha, shuningdek, butun saroy ahli va gallar cherkovi¹ knyazlari ishtirokida Ludovik XIII papaning vakili graf Julio tomonidan maxsus olib kelingan qirmizi shlapa va mantiyani Rishelyega kiydiradi. Kardinal o‘z hayajonini ustalik bilan yashirib, marosimiy nutq so‘zlaydi. Mariya Medichi ham undan kam hayajonlanmaydi. Axir bu uning ham g‘alabasi edida. Rishelye qironga minnatdorchilik bildiradi, keyin esa Mariya Medichiga murojaat qiladi: «Xonim! Siz janobi Oliyalarining irodasiga ko‘ra men erishgan bu man-tiya menga doimo tantanali va’dam — Sizga xizmat qilishda jonimni ayamaslikni eslatib turadi»².

O‘scha kundan boshlab Rishelyening ahvoli tubdan o‘z-gardi. U endi surgundagi qochqin emas. Endi u bilan hatto qirollik kengashi a’zolari ham hisoblashishga majbur edilar.

¹ Milloddan avvalgi II asrning o‘rtalaridan boshlab hozirgi Fransiya hududi Rim imperiyasi tomonidan zabit etilgan. Rimliklar bu yerda yashaydigan keltlarni gallar, hududni esa Galliya deb atashgan. Keyinchalik shakllangan cherkov gallar cherkovi nomini uzoq vaqt saqlab qolgan.

² Черкасов П.П. Кардинал Ришелье. — М.: «Международные отношения», 1990. — С. 147.

Bir necha yil muqaddam — 1620-yilning iyul oyida Valtelinda — Adda daryosi bilan Kamo ko‘li oralig‘ida joylashgan Shimoliy Lombardianing shu nomdag'i viloyatida katoliklar bilan protestantlar o‘rtasida diniy nizo kelib chiqadi va avstriyaliklar bilan ispanlar unga aralashishga shoshiladilar. Valtelinning geografik joylashuvi — Italiya bilan Gabsburglar sultanatining chegarasida ekani uning taqdirini belgilab beradi: u o‘ttiz yillik urushga¹ tortiladi. Fransiya diplomatiyasi Valtelindagi nizoni bartaraf etishda qatnashishdan butunlay bosh tortadi va tashabbusni to‘laliga-cha Gabsburglar qo‘liga berib qo‘yadi.

Ludovik XIII o‘zining birinchi vaziri uddaburon emasligiga — álbatta, Rishelye va uning do‘stlari bergan maslahatlar tufayli — uzil-kesil ishonch hosil qiladi. Ayni paytda qirolda, unga taqdirning o‘zi ro‘para qildi, deya uqtirilgan boshqa bir kishining fazilatlariga baho berish imkoniyati tug‘iladi.

1624-yilning avgustidan boshlab Rishelye qariyb har kuni qirol huzuriga chaqirilar, birinchi vazir La Vevil esa uning huzuriga kira olmay sarson edi. Bir kuni navbatdagi suhbatdan so‘ng Ludovik XIII kutilmaganda kardinalga uning Kengashini boshqarishni va bu kengashning tarkibini o‘zi belgilashini taklif qiladi. Rishelye o‘zini qamrab olgan hayajoni sezdirmasdan, sovuqqonlik saqlab turadi. U o‘zini go‘yoki ikkilanayotgandek tutadi va bu bilan qirolni qat’iyroq taklif qilishga undaydi. Rishelye o‘ylab ko‘rish uchun bir necha kun so‘raydi va bu muddat o‘tganidan so‘ng rozilik bildirib, qirollik kengashi a’zoligiga nomzodlar ro‘yxatini ko‘rsatadi.

¹ O‘ttiz yillik urush — 1618—1648-yillarda Gabsburglar imperiyasining gegemonligiga qarshi Yevropada olib borilgan urush. 1648-yilgi Vestfal sulhiga ko‘ra Fransiya Elzasning bir qismiga ega bo‘ladi.

Qirol o'sha zahotiyon, hech qanday o'zgartirish kiritmasdan, ro'yxatni tasdiqlaydi.

Shunday qilib, 1624-yil 13-avgustda Rishelye Ludovik XIII ning birinchi vaziri bo'ladi. Bu lavozimda u to o'limiga qadar — o'n sakkiz yil, uch oy va yigirma kun ishlaydi. Hokimiyat cho'qqilariga qiyinchilik bilan ko'tarilish yillari, g'alabalar va muvaffaqiyatsizliklar, dushmanlar bilan do'stlik va do'stlarga ongli ravishda xiyonat qilish, nihoyat, pulsizlik davrlari ortda qoldi. Nimaga shunchalar ko'p kuch, umrining eng yaxshi yillari sarflangan bo'lsa, barchasi ortda qoldi. Hayotning yangi, avvalgisidan ancha qisqaroq, lekin o'ta muhim davri boshlandi.

Rishelye hokimiyat tepasiga kelganida Fransiyadagi ijtimoiy-siyosiy ahvol ancha og'ir edi. Mamlakatda ichki kelishmovchiliklar, mavjud qudratli muxolifat, qirollik hokimiyatining zaifligi, xazinaning bo'shligi bilan bir qatorda, Fransiya uchun nomunosib va uning manfaatlari uchun halokatli tashqi siyosat hukmron edi.

Ahvolni qanday yaxshilash kerak? Rishelye umrining poyonida yozgan, Ludovik XIII ga bag'ishlangan «Siyosiy vasiyat»ida quyidagi e'tirofini bayon qiladi: «Men Sizga o'zimning butun qobiliyatimni va Siz marhamat qilib menga bergen hokimiyatni gugenotlar partiyasini yo'qotish, aslzodalarning da'volarini kamaytirish, Sizning barcha fuqarolaringizni itoatga keltirish va Sizning nomingizni begona xalqlar nazarida aslida munosib bo'lgan darajaga ko'tarish uchun qo'llashga va'da bergen edim».



1624-yilda Rishelye qironga taklif qilgan harakat rejasi shunday edi. U o‘zi hokimiyat tepasida bo‘lgan 18 yil davomida shu rejaga og‘ishmay amal qiladi.

Rishelye hokimiyat tepasiga kelgan dastlabki yillarda, asosan, gugenotlarga qarshi kurash, Ispaniya, Angliya, Gollandiya va boshqa davlatlar bilan munosabatlarni aniqlashtirib olish, shuningdek, mamlakat miqyosida o‘z mavqeyini mustahkamlashga e’tibor qaratadi.

Rishelye asta-sekin qirolni to‘liq o‘z irodasiga bo‘ysundirishga erishadi. Qudratli kardinalning cheksiz hukmronligiga aslzodalarining noroziligi tobora oshib boraveradi. 1926-yilda siyosiy dushmanlari tomonidan kardinalni yo‘qotishga qilingan son-sanoqsiz urinishlarning birinchisi yuz beradi.

Alovida hurmatining ifodasi sifatida qirol kardinalga 50 nafar mushketchilardan iborat (keyinchalik ularning soni 150 taga yetkaziladi) shaxsiy qo‘riqchilarga ega bo‘lishiga ruxsat beradi, uning uchun yana «savdo va navigatsiya¹ boshlig‘i hamda bosh syurintendant²» lavozimini joriy etadi, shuningdek, ancha daromadli bo‘lgan Gavr gubernatori lavozimini taqdim etadi.

Rishelye Fransiyani dengiz davlatiga aylantirishga alovida e’tibor qaratdi. U yaxshi jihozlangan bandargohlar va baza larga ega bo‘lgan, ingliz va ispan floti bilan raqobat qila oladigan harbiy va savdo flotining sohibi bo‘lmog‘i kerak, deb hisoblardi. Rishelyening buyrug‘i bilan Tulonda, Gavrda, Brestda dengiz bandargohlari qaytadan quriladi. 1625-yilda Fransiya Atlantikada va La-Mansh hududida birorta ham harbiy kemaga ega emasdi. Faqat O‘rta Yer dengizida

¹ *Navigatsiya* — kemalar qatnovini tashkil qilish ilmi va san’atti.

² *Syurintendant* — qo‘l ostidagilarga nisbatan oliy huquqqa ega bo‘lgan amaldor.

uning 10 ta galerasi¹ bor edi, xolos. 1626—1630-yillarda Rishelyening harakatlari bilan qiroq harbiy-dengiz floti Fransianing shimoli-g'arbiy qirg'oqlarida uchta eskadraga², O'rta Yer dengizi qirg'oqlarida bitta eskadra va 20 galera ega bo'ladi.

Rishelyening rejasi bo'yicha faol mustamlakachilik siyosati olib borilishi ham nazarda tutilgandi. 1625-yildan boshlab Shimoliy va Janubiy Amerikada, Senegal va Gambiyada, Madagaskarda va Yashil Burun orollarida faol harbiy harakatlar boshlanadi.

Fransuz protestantlariga nisbatan bundan keyingi siyosat masalasida Kardinal de Rishelye bilan Mariya Medichi va uning tarafdarlari o'rtasida kelishmovchiliklar yuzaga keldi. Qirolicha, kardinal Beryul, kansler Mishel Marilyak va harbiy idora rahbari Lui Marilyak «bid'atni to'liq yo'qotmoq»ni, gugenotlarni barcha fuqarolik va siyosiy huquqlaridan mahrum qilishni talab qiladilar. Bundan tashqari, katoliklar partiyasi Yevropada avj olayotgan kontinental urush sharoitida Ispaniya va Imperiya³ bilan yaqinlashish tarafdori edilar. Kardinal Rishelye esa «bid'at»ni mamlakatdan tashqariga quvib yuborishga, shuningdek, yengilgan gugenotlarni siyosiy quvg'in qilishga qarshi edi.

Rishelyening markazlashtirish, qadimiy an'analarini o'zgartirish, hamma uchun yagona tartib o'rnatishga zo'r berib urinishlari jamiyat ongida Fransiya haligacha hech qachon bilmagan o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Odatdagi «gugenot» yoki «katolik» tushunchalari o'rniga Rishelye avval ma'lum bo'limgan yoki, har holda, asl ma'nosiga ega bo'limgan «fransuz» tushunchasini o'mata boshlaydi. «Vatan» (La patrie) so'zi hayotga tatbiq qilinadi, biroq «vatanparvarlik» (patriotizm) tushunchasi islohot-

¹ Galera — o'tkir tumshuqli, eshkakli-yelkanli kema.

² Eskadra — harbiy kemalarning yirik qo'shilmasi.

³ Gabsburglar saltanati nazarda tutilgan.

chi kardinalning zamondoshlariga tanish bo‘lganligi dargumon. Aynan Rishelye o‘z mamlakatiga vatanparvarlikning birinchi sabog‘ini beradi, bunda tabaqachilik, xudbinlik botqog‘iga botib qolgan aslzodalar eng qobiliyatsiz o‘quvchilar bo‘lib chiqadilar.

Kelishmayotgan tomonlar bahsida qirol Ludovik XIII onasining emas, kardinalning tarafida bo‘ladi. Adolatli Ludovik bir kuni o‘z yoniga ona qirolichani, ukasi Gaston Orleaniyni va Rishelyeni taklif qiladi hamda ularning darhol yarashishlarini xohlashini aytadi. Mariya Medichi va Gaston zaif tabiatli qirol haddan tashqari o‘jar va bir so‘zli ham bo‘la olishini boshqalardan ko‘ra yaxshi bilardilar, shuning uchun ham shu yerning o‘zida kardinal bilan yarashishga majbur bo‘ladilar. O‘scha kunning o‘zidayoq Ludovik XIII kardinal Rishelyeni davlat bosh vaziri darajasiga ko‘tarish haqidagi buyruqqa imzo chekadi.

«Ajoyib tashqi ishlar ministri, uddaburon harbiy ministr va noshud moliya ministri» — XIX asrdagi fransuz tarixchisi vikont d‘Avenel Rishelyening moliyaviy-iqtisodiy sohalardagi qobiliyatini shunday baholagan edi. Hatto kardinalning o‘zi ham moliyaviy sohada o‘zining uddaburon emasligini tan olgan. Shunga qaramasdan, bu masalani maxsus o‘rganib chiqqan ko‘pgina tarixchilar, Rishelye boshqa sohalarda qanday ajoyib qobiliyat namoyon qilgan bo‘lsa, moliyaviy siyosat sohasida ham shunday favqulodda uddaburon bo‘lgan, degan xulosaga kelganlar.

Mamlakatning milliy birligi uchun kurashda kardinal Rishelye faqat ma‘muriy chegaralardan va qurol kuchidangina emas, foydasi bulardan kam bo‘limgan madaniy-g‘oyaviy vositalardan ham keng foydalangan.

Madaniyat sohasida Rishelye yakka o‘zi hukmronlik qilardi, chunki Ludovik XIII bu sohaga butunlay befarq edi. Rishelye Yevropada birinchi bo‘lib madaniy sohaning davlat tomonidan boshqarilishiga erishadi. Buni barcha

sohada: matbuot, ta'lif, fan, adabiyot va teatrda, tasviriy san'at va me'morchilikda ham ko'rish mumkin.

Rishelye davlat siyosatini targ'ib qilishga alohida ahamiyat qaratadi. U birinchi bo'lib keng jamoatchilik fikriga g'oyaviy ta'sir ko'rsatish zaruratini anglab yetadi. Bir yilda bir marta chop qilinadigan kam adadli «Merkyur franse» rasmiy nashri o'rniga Rishelye o'zining ishonchli odami, mutaxassisligi bo'yicha shifokor Teofrast Renodoga rasmiy «Gazet»ning muntazam chiqib turishini yo'lga qo'yishni topshiradi. Uning birinchi soni 1631-yil 30-may kuni chop etildi.

1629-yilda Rishelye Parijni qaytadan tiklash bilan shug'ullanishga va bu ishni alma-mater¹ – Sorbonnadan boshlashga qaror qiladi. 1635-yil 15-mayda kardinal qurilishga birinchi toshni qo'yadi. U eng qadimgi universitetni me'moriy qayta tiklabgina qolmasdan, uning ichki tuzilishini ham qayta quradi, u yerda bir necha yangi kafedralarni ochadi va kollejga asos soladi hamda unga o'z nomini qo'yadi. U Sorbonna cherkoviga ham birinchi toshni qo'yadi va keyinchalik o'zini shu erga ko'mishni vasiyat qiladi.

Rishelye davrida o'rta asr Pariji yangi zamon shahriga aylandi. Ko'rimsiz uylar va ko'chalar buzib tashlandi, ularning o'rnida yangi binolar va maydonlar paydo bo'ldi. Vazir-kardinal yo'laklarni har kuni ertalab tozalashni, oqava hamda suv ta'minoti tizimini qurishni buyuradi.

Butun umri davomida Rishelye til va adabiyotga alohida mehr bilan qaraydi, o'zini bu sohaning bilimdoni deb hisoblaydi. Uning o'zi ham yozuvchilik, to'g'rirog'i, – dramaturglikká qo'l urgan. Kardinalning «Katta pastoral²», «Smirnalik ko'r», «Miriam», «Yevropa» asarlari sahna-lashtirilgan va hatto, muvaffaqiyat ham qozongan.

¹ Alma-mater – tarixda universitetlarning talabalar tomonidan atalishi.

² Pastoral – cho'ponlar hayoti tasvirlangan badiiy yoki musiqiy asar.

1634-yilning martida Fransiyada ilgari mavjud bo‘lma-gan institut – Fransiya Fanlar Akademiyasining loyihasi tuziladi. O‘ziga xos qayta ishlanishdan keyin loyihani Lyudovik XIII tasdiqlaydi. 1635-yil 10-fevral Fransiya Akademiyasining tug‘ilgan kuni bo‘ldi.

Kardinal Rishelye 1625-yildan umrining oxirigacha Fransyaning ichki va tashqi dushmanlariga qarshi kurashdi. Kardinal uchun jang maydonidagi jasorat va matonatdan tashqari diplomatik vositalar bilan ham kurash olib borish muhim edi. Asosiy kelishmovchiliklар Ispaniya, Germaniya, Angliya, Shvetsiya bilan Yevropada yetakchilik uchun bo‘ladi. Ba’zan jiddiy urushlar, ba’zan diplomatik bahs va munozaralar, ba’zan siyosiy nayranglar qo‘llangan bu kelishmovchiliklarda Fransyaning birinchi vaziri kardinal Rishelyening sovuqqonligi, qat’iy va jiddiy nuqtayi nazar sohibi ekanligi, ustomonligi hamda so‘z-amolligi ko‘pincha qo‘l keladi.

O‘zi amalda Fransiyani boshqargan o’n sakkiz yil davomida u qirol hokimiyatining ichki dushmanlariga – taxtga da’vogar shahzodalar va aslzodalarga, diniy nizolar vositasida mamlakatning tinchligiga rahna soluvchilarga qarshi, qironga, uning oilasiga va kardinalning o‘ziga nisbatan fitnalar uyushtiruvchilarga qarshi doimiy va ayovsiz kurash olib bordi hamda ularning aksariyatida g‘animlaridan ustun keldi. Harbiy yurishlarda ham, saroydagi fitna-nayranglarni fosh qilishda ham, qo‘shti davlatlar bilan olib boriladigan harbiy va siyosiy muzokaralarda ham shaxsiy fazilatlari: o‘ta bilimliligi, ko‘plab tillarda bemalol so‘zlasha olishi va boshqa jihatlari uning ustuvorligini ta’minlay oldi.

1642-yilning butun iyuli va avgustining yarmida Rishelye o‘zining Taraskondagi yotoqxona-ishxonasini tark etmagan holda ko‘p va qizg‘in ishlaydi. Abbat Anri Rishelyening

kun tartibini yozib qoldirgan. Ertalab soat 7 da kardinal ish boshlagan. Ertalab 8 dan 9 gacha tabiblar uning sog‘ligini yaxshilash payida turli muolajalar qilganlar. Keyin soat 10 gacha u turli mansabdor kishilar bilan qisqa suhbatlar o‘tkazadi, undan keyin yana kotiblar bilan ishlash davom ettirilgan. Ibodat va tushlikdan keyin Rishelye kishilarni yana qabul qilardi, bu kishilar orasida boshqalardan ko‘ra ko‘proq kardinal Mazarinini ko‘rishardi. Rishelye o‘zining o‘rniga aynan ana shu kardinalni qo‘yishga qaror qilganligi barchaga ma’lum edi. Oxirgi tashrifchi ortidan eshiklar yopilishi bilanoq kotiblar paydo bo‘lar va ish yana davom ettirildi. Har kuni ahvol shu edi. Kotiblar va yordamchilar holdan toyib qolardilar, kardinal esa, go‘yo eng yaxshi tabiblar ham davolay olmayotgan son-sanoqsiz kasalliklar uni to‘sakka mixlab qo‘ymagandek, tinimsiz ishlashda davom etardi. Faqat qudratli iroda va zo‘r g‘ayrat bilan ishlayotgan miyagina kardinalning vayron bo‘layotgan vujudini qandaydir noma’lum quvvat bilan ta’minlab, unga kuch bag‘ishlab turgandek edi. Kardinalga qarshi oxirgi fitnaning ishtirokchilari bo‘lgan Sen-Mor va de Te ustidan bo‘ladigan sud jarayoni arafasida Rishelye Taraskonni tark etadi va Lionga yo‘l oladi. Xos arobada harakatlanish kardinalga chidab bo‘lmaydigan og‘riq bergenligi sababli uni yigirma to‘rt kishi soyabon ostida, ulkan zambilda ko‘tarib boradi. Imkonibor joylarda daryo bo‘ylab barkaslarda suzadilar. Taraskondan Liongacha bo‘lgan yo‘l qariyb bir oy davom etadi.

Sen-Mor va de Tu ustidan 12-sentabrda boshlangan sud jarayoni juda tez o‘tadi va o‘sha kuniyoq yakunlanadi. Har ikkala ayblanuvchiga o‘lim jazosi beriladi. To‘g‘ri, de Tuni o‘n bitta sudya o‘limga hukm qiladi, ikkitasi uni o‘limga yuborishdan bosh tortadi.

Har ikkala mahkum o‘sha kuniyoq qatl qilinadi. Ular o‘limni mardlarcha qabul qiladilar va bu bilan ko‘p ming

sonli olomonning xayrixohligiga sazovor bo‘ladilar. Olomon orasidan kardinalga qarshi dushmanlarcha hayqiriqlar va tahdidlar eshitiladi. Rishelye o‘zining oddiy odamlarga yoqmasligini bilardi, ammo, chamasi, bu uni unchalar ham qiziqtirmagan bo‘lsa kerak. Kardinal olomonning hukmidan va olomonning fikridan nafratlanardi, u tarix o‘ziga munosib baho berishiga ishonardi. Olomon esa kardinaldan o‘ch olishni uning vafotidan so‘ng ham davom ettiradi. Uning Sorbonna cherkovidagi qabri Buyuk Fransuz inqilobi yillarida (1793-yil 5-dekabr), o‘limidan 151 yil keyin olomon tomonidan vayron qilinadi, qabr ustidagi haykaltarosh Jirardon tomonidan yasalgan haykal buzib tashlanadi. Faqat imperator Napoleon III davrida, 1866-yilda «Fransyaning eng buyuk insonlaridan biri»ning maqbarasi tiklanib, kardinalning jasad qoldiqlari tantanali ravishda dahmaga qo‘yiladi. 1968-yil may oyidagi talabalar g‘alayoni paytida ham Sorbonna rektorati binosiga bostirib kirgan olomon Rishelyening devorda osig‘liq turgan, rassom Filiipp de Shampen tomonidan bo‘yi barobar ishlangan suratini yirtib tashlaydi. Olomonning o‘ch olishi shunday uzoq, shafqatsiz va mantiqsiz bo‘ldi...

...Ludovik XIII ning o‘zi kardinal qarorgohiga tashrif buyuradi va ular uch soat davomida nima haqdadir suhbatlashadilar. Ularning munosabatlari endi avvalgidek emas, o‘rtalarida qandaydir sovuqlik paydo bo‘lgandi. Ularni, balki so‘nggi, ammo mustahkam rishta — qirollik hokimiyatining ahamiyatiga, Fransyaning mavqeyiga va uning Yevropadagi o‘rniga qarashlarning umumiyligi o‘zaro bog‘lab turardi. Rishelye hayotdan birinchi bo‘lib ketishini his

qiladi va keyinchalik ham o‘z yo‘lining davom ettirilishini ta’minlashga urinadi. Muhimi — hokimiyat boshqaruvida o‘z odamlarini saqlab qolish va Gabsburglarga qarshi urushni muvaffaqiyat bilan yakunlash edi.

28-noyabrda Rishelyening sog‘ligi keskin yomonlashdi. Shifokorlar yana bitta tashxis qo‘yadilar — yiringli zotiljam. Qon olish yordam bermaydi, faqat bemorni zaiflashtiradi, xolos. Kardinal vaqtı-vaqtı bilan hushidan ketar, lekin o‘ziga kelishi bilanoq yana ishlashga urinardi. Bu kunlarda uning yonidan jiyani d‘Egiyon xonim umuman ketmaydi.

2-dekabrda so‘nib borayotgan kardinalni ko‘rishga Ludovik XIII keladi. «Mana biz endi xayrlashamiz, — deydi kardinal zaif ovoz bilan, — men o‘zimni shu bilan ovutamanki, Sizning qirolligingizni shon-shuhrat va misli ko‘rilmagan obro‘-e’tiborning eng oliv pog‘onasida, Sizing dushmanlaringiz yengilgan va yo‘qotilgan holatda qoldirmoqdaman. Siz Janobi Oliylaridan mening mehnatlarim va mening xizmatlarim evaziga so‘rashga jur’at qila oladigan yagona iltimosim, mening jiyanlarim va qarindoshlarimga o‘z homiyligingiz va o‘z marhamatingizni bag‘ishlashda davom etsangiz. Men ularga hech qachon o‘z sadoqatlari va itoatkorligini buzmaslik hamda Sizga oxiriga-cha sodiq qolishlari sharti bilangina oq fotiha beraman.»¹

Keyin Rishelye Shavini va Nuayyelarni o‘z lavozimlarida qoldirishni tavsiya qiladi, o‘zining yagona vorisi deb kardinal Mazarinini ko‘rsatadi.

Ludovik XIII jon berayotgan kishining barcha iltimoslarini bajarishga va’da beradi va uni tark etadi.

¹ Чекасов П.П. Кардинал Ришелье. — М.: «Международные отношения», 1990. — С. 372.

Shifokorlar bilan qolgan Rishelye ulardan yana qancha umri qolganligini so‘raydi. Ular mujmal javob beradilar, faqat ulardan biri — janob Shiko — jur‘at qilib, deydi: «Monsenor, fikrimcha, Siz 24 soat ichida yo jon taslim qilasiz yoki oyoqqa turasiz». «Yaxshi aytdingiz», — deydi sekingina Rishelye va e’tiborini boshqa narsaga qaratadi.

Kardinalning to‘sungi yonida ruhoniylar yig‘iladilar, ulardan biri duo o‘qiydi. Bunday paytda an’anaviy tarzda o‘z dashmanlarini kechirishga da’vat etilganda, Rishelye shunday deydi: «Mening davlat dashmanlaridan boshqa g‘animlarim bo‘limgan». Yig‘ilganlar jon berayotgan kishining aniq, ochiq javobidan hayratga tushadilar. Barcha rasmiyatchiliklar tugallanganidan so‘ng Rishelye to‘liq xotirjamlik va o‘zining haq ekanligiga ishonch bilan: «Tez orada men o‘z Oliy hakamim ro‘parasida turaman. Butun qalbim bilan Undan meni cherkov va davlat manfaatlaridan boshqa niyatim bo‘lganmi yoki yo‘qmi ekanligiga qarab sud qilishini so‘rayman», — deydi.

4-dekabr tong chog‘ida Rishelye oxirgi keluvchilarini — Anna Avstriyalik va Gaston Orleaniyning vakillarini qabul qiladi. Ular kardinalni eng yaxshi niyatda ekanliklariga ishontiradilar.

Ulardan keyin paydo bo‘lgan d‘Egiyon xonim ancha vaqt kardinal bilan yolg‘iz qoladi. Tushga yaqin Rishelye jivanidan uni tark etishini so‘raydi. «Esda saqlang, — deydi u xayrlashayotib, — men Sizni bu olamdagি barcha kishilardan ko‘proq yaxshi ko‘raman. Shuning uchun Sizning ko‘z o‘ngingizda jon berishni istamagan bolardim...»

D‘Egiyonning o‘rnini ruhoniylar ota Leon egallaydi va u oxirgi marta jon beruvchining tavbasini qabul qiladi. «Xudoyim, Sening huzuringga borayapman», — shivirlaydi Rishelye, seskanib tushadi va tinchib qoladi. Ruhoniylar ota

Leon uning og‘ziga yonib turgan sharmni yaqinlashtiradi, biroq shamning alangasi qimirlamaydi. Kardinal jon bergandi.

Kardinal Rishelyening 18 yillik boshqaruvi natijalarini qanday baholash mumkin?

Ular vazir-kardinalning shaxsiyati kabi ko‘p ma’noli va ziddiyatlidir.

O‘z siyosatining asosi qilib Genrix IV ning dasturini olgan Rishelye davlatni mustahkamlash, uni markazlashtirish, dunyoviy hokimiyatning cherkovdan va markazning ma’muriy bo‘linmalardan ustuvorligini ta’minalash, aslzodalar muxolifatini tugatish, Yevropada Ispaniya-Avstriya hukmronligiga barham berishga erishdi. Rishelye davlatchilik faoliyatining asosiy natijasi, shak-shubhasiz, Fransiyada absolutizmning o‘rnatalishi bo‘ldi. Aynan u tabaqaviy monarxiyani chuqur va keskin o‘zgarishlar orqali absolut monarxiyaga aylantirdi. Aynan Rishelye markaziy (qirollik) hokimiyatga qarshi bo‘lgan aslzodalar muxolifatining siyosiy qudratini so‘ndirdi.

Rim-katolik cherkovining knyazi, kardinal Rishelye Rim papaligining Fransiyada ham, butun Yevropada ham qandaydir alohida mavqega bo‘lgan da’vosiga keskin chek qo‘ydi. U hatto cherkovning iqtisodiy huquqini, shu jumladan, uning ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqini ham cheklab qo‘ydi. «Davlat, — degan edi Rishelye, — aniq ehtiyojlarga ega, cherkovning ehtiyojlari esa xayoliy va no-aniq ehtiyojlardir».

Rishelye shaxsiyati miqyosining kengligi shunda ham ko‘rinadiki, u umummilliyl manfaatlarni tor g‘oyaviy xurofotlardan ustun qo‘ya oldi. Gugenotlar partiyasini — «davlat ichidagi davlat»ni tor-mor qilgan Rishelye «o‘zini xudojo‘y qilib ko‘rsatuvchi riyokorlar»ning izidan bormadi va hech qachon fransuz protestantlari ning diniy va fuqarolik huquqlarini cheklamadi, ular bilan katoliklar o‘rtasida hech qanday siyosiy farqlar bo‘lmasligi uchun kurashdi. Uning uchun gugenotlar ham, katoliklar ham, eng avvalo, fransuzlar edi.

Rishelye yagona din hukmronlik qiluvchi Fransiyani yaratish g‘oyasini tan olmadi. U diniy bag‘rikenglik, qirol hokimiyatining qudratiga va davlatning bir butunligiga rahna solmaydigan vijdon erkinligi tarafdoi edi.

Rishelyening fransuz madaniyatini rivojlantirishga qo‘sghan hissasi shak-shubhasiz. «Rishelye davri» – barcha sohalarda qizg‘in aqliy faoliyat davri, fransuz madaniyatni va falsafasida klassisizm va ratsionalizm o‘rnatalishi davri bo‘ldi. Bularning barchasi madaniyatning «oltin asri» kelishini tayyorlagan voqealar edi. Rishelye to‘la huquq bilan fransuz millatining otalaridan biri degan faxrli unvonga da‘vogarlik qilishi mumkin edi.

Tashqi siyosat va diplomatiyada ham Rishelye milliy davlat va umumyevropa manfaatlarini tushunish darajasiga ko‘tarila oldi.

Ko‘pgina zamondoshlari va keyingi G‘arbiy Yevropa siyosatchilaridan farqli o‘laroq kardinal Rishelye hech qachon Yevropani tor tushunmagan. «Yaqindagi davlatlar bilan ham, yiroqda joylashgan davlatlar bilan ham munosabat o‘rnatishga intilish kerak», – deya takrorlashni yaxshi ko‘rardi u. Agar vazir-kardinalning ichki ishlar bilan ham shug‘ullanganligini hisobga olsak, uning diplomatik faoliyati hayratlanarlidir.

Rishelye Yangi Fransiyaning faol dengiz va mustamlakachilik siyosatini boshlab berdi. Shundan boshlab fransuz kemalari dengiz va ummonlarni kezdilar va Yer kurrasining eng uzoq burchaklariga borib yetdilar.

Fransiyada turli davrlarda Rishelyega bo‘lgan munosabat o‘zgarib turganiga qaramasdan, Yangi Fransiyani yaratishda kardinal Rishelyening ulkan hissasini bugun hech kim inkor qila olmaydi. Shak-shubhasiz, u Fransiya tarixidagi eng buyuk va eng yorqin shaxslar safida turadi, aslida Fransiya milliy siyosatining o‘zi ham Rishelyeden boshlangan edi.

Napoleon Bonapart



*Agar oxir-oqibatda Yevropa birlashsa,
buning uchun, hech narsaga qaramasdan, biz
Napoleondan qarzdor bo'lamiz.*

Xiler Bellok, 1932-yil.

XVIII asrda Korsika oroli Yevropada ancha mashhur edi. Orolning O'rta Yer dengizida, Fransiya bilan Italiya orasidagi muhim strategik joylashuvi uni ko'plab tortishuvlar va urushlarning obyektiga aylantirgandi. Orolliklarning 1729-yilda Genuya hukmronligiga qarshi boshlagan qo'zg'oloni o'z davrining ko'plab mutafakkirlari e'tiborini jalg qilgan. Jumladan, Jan Jak Russo o'zining mashhur «Ijtimoiy kelishuv» asarida shunday deb yozadi: «Yevropada qonunlarni idrok qilishga qodir bo'lgan yurt bor – bu Korsika oroli. O'z ozodligini mardlik va matonat bilan qaytarib olgan va saqlab qolgan bu xalq, so'zsiz biron-bir mutafakkir tomonidan shu ozodlikning abadiylashtirilishiga ham loyiqdир. Bu kichikkina orol qachondir Yevropani hayratga soladi, degan his meni hech tark etmaydi»¹.

1764-yilda korsikalik zodagon Buttafochoning taklifiga ko'ra Russoning o'zi bu ozodlikni abadiylashtirish uchun orolning konstitutsiyasini yozishga kirishadi. Ammo o'z konstitutsiyasiga ega bo'lish bu mag'rur xalqqa nasib etmaydi: 1869-yilda orolga fransuz qo'shinlari kiritiladi.

Shu yili orolda Fransyaning hukmronligiga qarshi qo'zg'olonlar boshlanib ketdi. Qo'zg'olonga vatanparvarlar yo'lboshchisi general Paskuala Paoli rahbarlik qilar, uning adyutanti Karlo ismli yosh zodagon ham barcha kor-

¹ Руассо Ж.Ж. Об общественном договоре. Трактаты./ Пер. с фр. – М.: «КАНОН-пресс», «Кучково поле», 1998. – С. 86.

sikaliklar kabi ko‘p farzandli bo‘lishni orzu qilardi. Umuman, korsikaliklar juda ham mag‘rur xālq bo‘lib, har bir haqorat uchun o‘sha joyning o‘zidayoq o‘ch olishar, darhol qo‘llariga xanjar olib, dushmanning ko‘ksiga sanchishardi. Qonli o‘ch olish (vendetta) esa avloddan avlodga o‘tar, asrlar bo‘yi davom etardi. Shu sababli ham avlodni davom ettirish uchun serfarzand bo‘lish lozim edi. Karloning turmush o‘rtog‘i Letisiya qadimiy zodagonlar naslidan bo‘lib, uning ajdodlari Italiyaning yo‘lboshchilari va harbiy rahnamolari bo‘lganlar.

Fransiyaliklar Korsikaga qo‘sishin tushirganlarida orolliklar qo‘llariga qurol olishlariga to‘g‘ri keldi va yosh Letisiya ham eri Karlo bilan birga tog‘lar tomon yo‘l oldi.

May oyida vatanparvarlar yengildilar va chekinishga majbur bo‘ldilar. Iyunda esa butunlay tor-mor etilgan vatanparvarlarning rahnamosi Paoli bir necha yuz safdoshlari bilan Angliyaga qochib ketdi. Iyul oyida uning adyutanti Karlo-Mariya Buonaparte bir guruh vakillar bilan g‘olib fransuzlar qarorgohiga bordi va 15-avgustda yengilganliklarini tan olish haqida bayonnomaga imzo chekdi. Shu kuni Korsikaning Ayachcho shahrida Karloning rafiqasi o‘g‘il tug‘di va chaqaloqqa 1767-yili halok bo‘lgan amakisi sharafiga Napoleon deya ism qo‘ydilar¹. Bu kun haqida keyinchalik Napoleonning o‘zi: «Men Vatanim o‘lgan kuni tug‘ilganman»², – deb yozgan edi.

¹ Ayrim zamondoshlari aslida Napoleon 1768-yil 5-fevralda tug‘ilgan va Fransiya fuqarosi bo‘lish uchungina Korsika Fransiyaga qo‘shilgandan keyin – 1769-yil 15-avgust deb yozdirgan, deb hisoblashgan. Konservativ senat ham 1814-yil 3-apreldagi murojaatida Napoleonni «chet ellik» deb atagan. Qarang: Jan Tyular. Napoleon ili mif o «spasitele». – M.: Molodaya gvardiya; Palimpsest, 2012. – S. 31.

² Ammo hozirda Napoleonning 1769-yil 15-avgustda tug‘ilgani barcha tadqiqotchilar tomonidan tan olingan tarixiy ma‘lumot hisoblanadi.

Umuman olganda, Letitsiya o'n besh yoshidayoq farzandli bo'lgan, o'ttiz yoshida esa uning sakkizta farzandi – besh o'g'li va uch qizi bor edi. Oilada doimiy nochorlik hukmron bo'lib, Karlo pul topish va farzandlariga bilim berish ilinjida 1778-yil dekabrda o'n va o'n bir yoshdagi ikki o'g'li — Jozef va Napoleon bilan kemaga o'tirib, Fransiyaga yo'l oladi. Uning cho'ntagida Korsika hukmdori, Letitsiya Bonapart husni jamolining shaydosi bo'lgan janob de Marbefning Napoleonlar kambag'allashib qolgan zodagonlardan ekanligini tasdiqlovchi taqdimnomasi ham bor edi.

Fransuzlar Karloning kelib chiqishi zodagonlardan ekanini tan oldilar va qirol o'n yil davomida toj-u taxtga qarshi hech qanday xatti-harakat sodir etmagan bu zodagonga ikki ming frank pul berishni, uning ikki o'g'li hamda qizlariga aslzodalarning o'quv muassasalaridan bepul o'rinalar ajratishni buyurdi.

Napoleon Sten kollejida ozgina vaqt o'qiganidan so'ng, 1779-yilning may oyida Briyennga keladi va bu yerdagi Briyenn-le-Shato qirollik harbiy bilim yurtida o'qishni davom ettiradi. Napoleon bu yerda 1779-yil 15-maydan 1784-yil 30-oktyabrgacha o'qiydi¹.

O'qish davrida uning doimiy kambag'allik va atrofdagilarning munosabati tufayli xo'rangan tuyg'ulari va umidli nigohi doimo qadrdon oroliga tomon qaratilgan edi². Napoleon otasini o'z taqdirini fransuzlar bilan bog'laganlikda ayblaydi. Bolakay taqdir unga o'z qadrdon oroliga ozodlik keltirish baxtini yuklaganini yurakdan his qilardi. Biroq hozircha unda hokimiyat ham, pul ham yo'q. O'n to'rt yoshli o'smir unga orol tarixi bo'yicha kitoblar va arxiv hujjatlari jo'natishlari ni so'raydi: agar tarixni olg'a yuritmoqchi bo'lsang, avval uni o'rganmoq lozim.

¹ Душенко К.В. Всемирная история в изречениях и цитатах. — М.: «ЭКСМО», 2008. — С. 319.

² Эмиль Людвиг. Наполеон. — М.: «Захаров-Вагриус», 1998. — С. 74.

Bu odamovi, o'ch olish rejasini qalbiga tugib yurgan, hamma narsani o'zgartirishni orzu qiladigan, atrofdagilarga ishonchsizlik bilan qaraydigan yigitcha kelajakda kim bo'lar ekan?

O'zining ustunligiga ishonch tuyg'usi jo'sh urgan bu yigit insonlar qalbi va shaxsining erta ulg'ayib qolgan bilimdoni bo'ladi.

Uning akasi Jozef ruhoniyligini kiyimini ofitserlik mundiriga almashtirmoqchi bo'lganida Napoleon u haqida shunday deb yozadi:

«1. Jang qilish uchun unda jasorat yetishmaydi... U yaxshigina garnizon ofitseri bo'lishi mumkin: bo'yi baland, yengil tabiatli, erkin suhbatlashishga moyil — bularning barchasi uning jamoa tomonidan yaxshi qabul qilinishini ta'minlaydi. Jangda-chi?

2. Endi kasbini o'zgartirishga kech bo'ldi, u bemalol boy qavmga ega bo'lishi mumkin. Bu esa hozir oilamizga juda ham kerak!

3. U qo'shining qaysi turiga borishi mumkin? Harbiy-dengiz flotigami?

- a) matematikadan bilimi yo'q;
- b) flotda zarur bo'ladigan chidami yo'q.

Artilleriyada uzoq vaqt xizmat qilishga ham uning yengil fe'l-atvori to'g'ri kelmaydi»¹.

Bularning barchasi — akasida bo'lмаган ана шу фазилатлар айнан унинг о'зидаги бори деб исобловчи о'н беш юшли инсон qalbi bilimdonining fikrlari edi. Ayni vaqtida bu — otasiga juda o'xhash bo'lган акасига berilgan eng aniq tavsif ham edi.

Napoleonning o'zi esa otasidan boy tasavvur va top-qirlikni, onasidan — mag'rurlik, jasorat va ishda aniqlikni, har ikkalasidan — oilaga sadoqatni olgandi.

O'qish yillarini Napoleon ko'proq o'z xayollari og'ushida o'tkazdi: u sinfdoshlarining o'yinlarida ishtirot

¹ Эмиль Людвиг. Наполеон. — М.: «Захаров-Вагриус», 1998. — С. 74.

etmadi, ular bilan ko'ngil yorib suhbatlar ham qurmadi. Xayolparast, odamovi Napoleon yurish-turishda, hatto nutqida ham qadimgi davrning buyuk kishilariga taqlid qilişni yaxshi ko'rardi. Uning sarkardalik iqtidori ham shu yerda, talabalik davrida namoyon bo'lganligi to'g'risida keyinchalik kursdoshlari, xususan, Buryen tomonidan yozilgan esdaliklarni tadqiqotchilar bir ingliz risolasidan ko'chirilgan uydirma deb hisoblashadi.

1784-yil sentabr oyida Napoleon maktab nozirining o'rribbosari Reyno de Monom suhbatidan o'tib, Parij harbiy maktabiga yo'llanma oladi. Oktabrning o'talarida u Parijga keladi. Bu davrda Napoleon — past bo'yli, qorachadan kelgan, g'amgin, badqovoq va darg'azab, ayni paytda, ba'zan safsataboz va sergap yigitcha. Uning Parijdagi hayoti to'g'risida ko'plab latifalar tarqalgan, ammo ularning ko'pchiligi haqiqatdan ancha uzoq, ishonarsiz. 1785-yil 28-sentabrda Napoleon Valansga, la Fera artilleriya polkiga yo'llanma oladi. U fanlarni o'zlashtirish bo'yicha 58 talabaning ichida 42-o'rinda: bo'lg'usi general uchun juda past ko'rsatkich. Ammo uning harbiy maktabda juda qisqa vaqt bo'lganligi, shuningdek, yolg'izligi va 1785-yil 24-fevralda otasi vafot etganidan keyingi ruhiy holatini ham inobatga olish lozim.

Xullas, imtihonlarni zo'rg'a topshirgan Bonapartga quyidagi mazmunda tavsifnomha beriladi: «Odamovi va o'qishda tartibli, har qanday ermaklardan mashg'ulotlarni ma'qul ko'radi va yaxshi mualliflarning kitoblarini o'qishga qiziqadi. Ko'p gapirmaydi, yolg'izlikni xush ko'radi, jizzaki, kibrli va o'ta xudbin. Doimo topqir va javoblari keskin. O'zini juda yaxshi ko'radi, izzattalabligining chegarasi yo'q».

Garnizonda yosh zabitlarning hayoti, asosan, qog'ozbozlik, harbiy mashqlar, ziyofatlar va ishqiy mojarolaridan iborat edi. Napoleon bu bir maromdag'i zerikarli hayot tarzidan qutulish uchun kitob o'qish va yozishga beriladi.

O'n olti yoshida kichik zobit bo'lgan Napoleon butun umr harbiy kiyimda yurdi, faqat kamdan kam hollardagina uni fuqarolik kiyimiga almashtiradi. Napoleon boylik va dabdabali hayot harbiy kishiga yarashmaydi deb hisoblardi. U qarzga botishni ham istamaydi, chunki uyida hamon kambag'allik hukm surardi, buning ustiga otasi vafot etganidan keyin bu italiyalikning tuyg'ulari to'laligicha oilasiga qaratiladi. Endi yigitcha onasi uchun pul yig'a boshlaydi.

Rangpar, yolg'iz, issiqliqdan qiynalayotgan Napoleon xizmatdoshlari tabiat bag'rida dam olayotgan, qimorxonalarda vaqt o'tkazayotgan yoki xonimlar ortidan ergashib yurgan bir damda, keyinroq unga kerak bo'ladigan narsalarni: artilleriya asoslari va uning tarixini, shaharlarni qamal qilish tarixini, Platonning davlat tuzilishi haqidagi ta'limotini, qadimgi forslar, afinaliklar va spartaliklarning qonunlarini o'rganardi. Angliya tarixi, Buyuk Fridrix yurishlarini, Misr va Karfagen tarixini, Hindiston tasviri, zamonaviy Fransiyada axloq haqidagi inglizlarning xabarlarini, Mirabo, Buffon va Makiavellilarning asarlarini, Shvetsiya, Xitoy, Hindiston, qadimgi inklarning qonunlari va tarixini, astronomiya, geografiya, meteorologiyani o'rganardi.

Bonapart o'qigan kitoblarini shunchaki qarab chiqmasdan, ularni chuqur o'rganardi. O'qish qiyin bo'lgan xunukroq xati bilan u to'liq sahifalarni so'zma-so'z ko'chirib olardi: bu daftarlar keyinchalik nashr qilinganida ular 400 betdan iborat bo'lgan.

Ayni paytda Bonapartning o'zi ham yoza boshladi – to'plarning o'rnatilishi haqida, o'z joniga qasd qilishlar haqida, odamlarning tengsizligi haqida, biroq barchasidan ko'proq ona vatani – Korsika haqida.

Napoleon Korsika haqida roman va Fransiyaga nafrat bilan yo'g'rilgan bir necha novellalar yozishni boshlaydi, ammo bularning barchasi tugallanmay qolib ketadi. Ayni

Yosh Bonapart shoshib qoladi. U vaqtidan yutishga intilib, olomonning talablariga qulq soladi, qandaydir murosa yo‘lini topishga intiladi. Rasmiy ravishda o‘zini Paolining va ayni paytda — Konventning ham tarafidori deb e’lon qiladi. Konvent esa Bonapartga ishonmaydi va uni hibsga olmoqchi bo‘ladi. Paoli ham o‘z sobiq safdoshini ikki tomonlama o‘yin yuritayotganlikda gumon qiladi.

Bonapartning dushmanlari uning uyiga bostirib kiradilar va talon-taroj qiladilar. Agar uydagilar o‘z vaqtida yashirinmaganlarida va komissarlardan panoh topmaganlarida, talonchilar butun oilani qirib tashlagan bo‘lardilar. Faqat bir yilgina avval korsikalik isyonkorlarning hukumat

qo‘sishlariga qarshi harakatlari rahbarlik qilgan Bonapart korsikaliklarga qarshi kurashtishi lozim bo‘lgan artilleriya komandiri edi.

Keksa vatanparvar Paskuala Paoli esa xalqning mehrini qozonganligi sababli yana yuskaklikda qoladi: uning qo‘l ostida qal‘a bor. Endilikda fransuzlar tomonida bo‘lgan yosh ofitser Bonapart ikkinchi marta qal‘aga hujum qiladi va bu safar ham uni ololmaydi. Yana bir marta dengiz tomonidan qal‘aga hujum va yana muvaffaqiyatsizlik!



Bonapartlar oilasi endi orolda qololmaydi. Xalq kengashi ularni surgunga hukm qiladi va butun oilani qonundan tashqari deb e’lon qiladi.

O‘z kelib chiqishi bilan shunchalar mag‘rurlanib yurgan Letitsiya, uning ikki o‘g‘li, ikki qizi va ukasi — bar-chasi tezlikda oroldan qochishga majbur bo‘ladilar.

Ularni Tulonga olib ketayotgan yelkanli kema sahnida yigirma uch yoshli kapitan turibdi va iyunning nimqorong‘u tunida o‘ziga tanish bo‘lgan har bir tog‘ cho‘q-qisiga, har bir tepalikka, tobora yiroqlashib borayotgan jonajon oroliga o‘ychan tikiladi. U uch marta bu orolni egallahsga va ozod qilishga urindi. Endi esa vatandoshlari uni fransuz sifatida quvib yubordilar. Uning ko‘ksini nafrat va qasos istagi qamrab olgan: u Fransiyaning g‘alabalari tufayli kuch-qudratga ega bo‘ladi va ana shunda orol unga bo‘ysunadi!

Napoleonning Parijdagi inqilobiy voqealarga munosabati ham dastlab ancha murakkab bo‘lgan. Uni oddiy xalq tarafdoi bo‘lgan deb aytish qiyin, lekin o‘zicha adolat tarafdoi bo‘lganligi uchun puldor, hukmdor qatlamni ham yoqlamaganligi aniq. Ammo Napoleonning inqilob tarafdoi bo‘lganligiga sabab faqat uning yuksak g‘oyaviy tuyg‘ulari emas, sof moddiy manfaati bo‘lganligi ham rost. Korsikadan haydalgan oilasini boqish uchun ham armiyaga qaytishi va inqilobchilar tarafida jang qilishi lozim edi.

Napoleon Tulonni inglizlardan ozod qilish janglarida mashhur bo‘lib ketadi. 1793-yil sentabrda Salichetti Napoleonni Karto armiyasiga artilleriya qo‘mondoni qilib tayinlaydi. Keyinchalik Karto o‘rniga tayinlangan general Doppe Napoleonning bu armiyadagi faoliyati to‘g‘risida o‘z «Esdaliklar»ida shunday yozadi: «Noyob jasoratlvi va hayratlanarli serg‘ayrat bu yosh zabitda ko‘plab iste’doddalar mujassamlashgan edi. Men qachon tekshirishga kelmayin, uni doim o‘z vazifasini bajarayotgan holatda uchratganman. Agar u dam olishga muhtojlik sezsa, batareyasini bir daqiqa ham tark etmasdan shu yerning o‘zida shineliga o‘ranib hordiq chiqarardi»¹.

¹ Жан Тюлар. Наполеон, или миф о «спасителе». — М.: «Молодая гвардия», 2012. — С. 53.

Napoleon rejası bo'yicha amalga oshirilgan hujum tufayli 18-dekabr kuni inglizlar Tulonni tashlab chiqadilar. 22-dekabrda konvent komissarlari Napoleonni brigada generali etib tayinlaydilar. 1794-yil 6-fevralda Konvent Napoleoniga general unvoni berilganini tasdiqlaydi.

Parijda Tulonning inglizlardan ozod qilinishini xalq tantana qilayotgan bir paytda, Robespyerning ukasi (Napoleon bir muddat u bilan do'st bo'lgan) iltimosiga ko'ra, Salichetti Napoleonni artilleriya qo'mondoni qilib tayinlaydi va Korsikaga ekspeditsiya tayyorlash uchun Nissaga yuboradi. U Aljni aylanib o'tib, Italiyaga hujum qilish rejasini taklif qiladi. Shu reja bo'yicha 1794-yil 9-aprel kuni Onelya shahrining olinishi Napoleon harbiy iste'dodining navbatdagi tasdig'i bo'ldi. Shundan so'ng royalistlar (monarxiya tarafdarları) ustidan qozonilgan g'alaba Bonapartning nomini mashhur qilib yubordi¹. Unga diviziya generali unvoni berildi.

Napoleoning atrofida yosh zabitlar to'plana boshlaydilar. Marmon va Jyuno ismli zabitlar unga o'z taqdirlarini ishonib topshiradilar, u esa bir yo'la ukasi Luini ham o'ziga adyutant qilib oladi. Endi uning o'z guruhi bor edi.

Fransiyadagi inqilobni bo'g'ib tashlash uchun tuzilgan ittifoq urushni davom ettirayotgan edi. To'g'ri, Ispaniya, Gollandiya va Prussiya bu ittifoqdan chiqdi. Ammo asosiy raqib — Angliya hamon urushni davom ettirishga qodir edi. Demak, uning qit'adagi ittifoqchisi Avstriyaga zarba berish lozim. Bu paytda Fransiyaga qarshi harbiy

¹ 1794-yilda Tulon ozod qilinganidan keyinroq, 1795-yilning avgustida yangi Konstitutsiya qabul qilinadi. Undagi ba'zi erkinliklardan ilhomlangan monarxiya tarafdarları (royalistlar) Konventni tarqatib yuborish uchun qo'zg'olon boshlaydilar. Qo'zg'olon artilleriya yordamida bostiriladi. Artilleriyaga komandirlik qilgan Napoleon esa diviziya generali unvonini oladi va «ichki harbiy kuchlar qo'mondoni» etib tayinlanadi.

ittifoqning eng nozik joyi Italiya bo‘lib qolayotgan edi. Ammo Italiya frontidagi ishlar yaxshi ketmayotganligi Direktoriyani tashvishga solmoqda. Turli ayblovlar joniga tekkan qo‘mondon Sherer iste’soga chiqadi. Kamo tomonidan taklif qilingan Napoleon nomzodini hukumat nomidan Barras tasdiqlaydi. Napoleonni harbiy vazirlikka chaqiradilar. Ko‘zlar va fikrlari ko‘p yillardan buyon ana shu qirg‘oqlar va chegaralarga tikilgan Napoleon Shimoliy Italiyaga qarshi, Sardiniya va Avstriyaga qarshi yurislarning mayda tafsilotlarigacha hisobga olingan rejasini bayon qiladi. Uning rejasi Alp tog‘larining dovonlarini, ob-havo sharoitini, qishloq xo‘jalik ekinlarining holatini, boshqaruv idoralari tizimini, odamlarning fe’l-atvorlari va kayfiyatlarini aniq bilishga asoslangan edi. Lombardiya egallanganidan keyin, fevral bilan iyul oralig‘ida Avstriyadan Mantuyani tortib olish lozim bo‘ladi, keyin shimalga burilish, Tirolda fransuz armiyasi bilan birlashish, Vena yaqinida joylashib olish va shu holatda Avstriya imператорини suh tuzishga majbur qilish hamda Fransiya ko‘p yillardan buyon orzu qilib kelayotgan narsalarning barchasiga erishish lozim.

Lavozimga tayinlanishdan oldin Bonapart Jozefina (1763—1814) ismli ayol bilan tanishadi. Uning yoshi o‘ttiz uchda, qachonlardir ko‘pchilikni jalb qilgan jozibasi so‘nib, go‘zalligidan asar qolmagan¹. Uning eri — vikont de Bogarne royalist sifatida o‘ldirilgan, undan ikkita farzand — qizi Gortenziya va o‘g‘li Ejen qolgandi. Napoleon u bilan tanishganidan so‘ng Dezirani hamda yana bir necha ishqiy ermaklarini unutadi va tez orada Jozefinaga rasmiy ravishda

¹ Jan Tyularning yozishicha, Napoleon tanishgan paytda Jozefina Direktoriya hukumatida katta mavqega ega bo‘lgan Barrasning jazmani edi. Napoleon Jozefinaga uylanish orqali bu nikohga qarshi bo‘lмаган Barrasning yordami bilan kattaroq lavozimni egallashni ko‘zlagan bo‘lishi ham mumkin. Zero, Jozefinani Napoleonning ukasi Lusyen «tishlari ham sarg‘ayib, og‘zidan yoqimsiz hid kelib qolgan, qomati ham kishini jalb qilmaydigan, yoshligi allaqachon o‘tib bo‘lgan», deya ta‘riflagan.

uylanadi. U nikoh uzugiga «Mening taqdirimdagι ayolga!» — deb yozishlarini buyuradi.

Uylanganidan ikki kun o'tgach, Napoleon Parijni tark etadi. Nissada u o'z qo'shinini qabul qiladi va uni Italiya chegaralari tomon boshlaydi.

1796-yil 26-aprel kuni u Nissaga kelib generallar Massen, Serurye, Lagarp va Ojeroning qo'shinlar tayyorgarligi to'g'risida axborotini tinglaydi. 1796-yil 5-aprel kuni Italiyaga yurish boshlanadi. Bu yurishning tafsilotlariga berilmasdan shuni ta'kidlash lozimki, yurish barcha harbiy tarixchilarining olqish va tahsiniga sazovar bo'lgan.¹

Bu buyuk davr, yosh general hayotidagi hal qiluvchi kundardan biri edi. U endigina o'z shon-shuhrati bo'sag'asida turgan edi. O'sha suronli, alg'ov-dalg'ov zamonda hamma narsa singari bu voqealar ham to'satdan yuz berdi. Ana shu kundan boshlab endigina 26 yoshga to'lgan Napoleon faqat bitta maqsadga yo'naltirilgan fikrlar va harakatlar zanjirini yengilmas bir kuch bilan o'z ortidan tortib boradi. Faqat yigirma yildan so'ng bu zanjir yana shunday vaziyatda, to'satdan uziladi.

Napoleon o'z qo'shini bilan uchrashar ekan, tartibga tushirishi lozim bo'lgan bir gala nochor-noshudlarni ko'rdi. Buning ustiga qo'shinda jami 38 ming odam va 30 ta to'p bo'lib, bu dushmannikidan 7 marta kam edi. Qo'shin inqilob yillarida tuzilgan bo'lsa ham, unda demokratik tartiblar yil sayin yo'qolib borayotgandi. Allaqaqachon zabitlarni, har-

¹ 1796-yil 24-fevralda Direktorianing Panteon klubini yopish haqidagi qarorini ichki qo'shinlar qo'mondoni bo'lgan Napoleon muvaffaqiyatlari amalga oshirdi. Oradan besh kun o'tganidan so'ng u Italiyada harbiy harakatlar olib boruvchi armiya qo'mondoni qilib tayinlandi.

biy sndlarni saylash bekor qilingandi. Askarlarning inqilobiy ishtiyoqi ham so'nib qolgan.

26 yoshli general ana shu armiyani jangovar, qobiliyatli qilishi kerak. Napoleon bu vazifaning uddasidan chiqadi.

Napoleon tartib-intizomga qattiq yopishib olgan emasdi, u askarlarning o'lja olish ishtiyoqidan ham foydalanadi. Direktoriya zamonida boyib qolish istagi hammani, shu jumladan, askarlarni ham qamrab olgandi.

Shimoliy Italiyaga yurish oldidan Napoleon qo'shinga shunday deb murojaat qiladi: «Askarlar, sizlar yalang'och-sizlar va qorningiz ham to'q emas. Men sizni dunyoning eng hosildor yerlariga olib boraman. Boy viloyatlar va katta shaharlar sizning hukmingizda bo'ladi, siz u yerlarda hurmat, shon-sharaf va boylik topasiz»¹. U, urushda qo'shin o'zini o'zi boqishi kerak, deb hisoblardi. Lekin boyib ketish ishtiyoqidan ham ko'ra ko'proq barchani — bosh qo'mondon va generallardan tortib to do'mbirachi bolaga qadar — inqilobiy tuyg'ular qamrab olgandi. Ayni shu paytda Avstriya va Pyemont qo'shnlari ruhiy tushkunlikda bo'lib, askarlar urushishni xohlamas, mahalliy aholi ularni yomon ko'rardi. Butun Shimoliy Italiyani inqilob ruhi qamrab olgan, Napoleon esa «xaloskor» deb nom chiqargandi.

Birinchi to'qnashuvlarning o'ziyoq fransuz qo'shingariga ajoyib g'alabalar keltirdi, askarlarning ruhini ko'tardi va Bonapartning obro'sini oshirdi. Zabitlar va generallar uning ustunligini tan olishar, yosh bo'lgani uchun bosh qo'mondonlarining salohiyatiga uncha ishonmagan askarlar endi uni tantanavor olqishlar edilar.

Napoleon 1796-yil 28-aprelda Pyemontni egallab, Milanga yurish boshladi. Bir qator gersogliklar Bonapartga itoatlarini izhor qildilar.

¹ Душенко К.В. Всемирная история в изречениях и цитатах. — М.: «ЭКСМО», 2008. — С.319.

1796-yil 10-may kuni Lodi yaqinidagi jangda Avstriya armiyasi ustidan qozonilgan yirik g'alabadan keyin eng jasur askarlar kengashi o'zlarining eski odatiga ko'ra Napoleon Bonapartga «faxriy kapral» unvonini berdi (uning askarlar orasida uzoq vaqt saqlanib qolgan laqabi «kichkina kapral» ana shundan edi). Bu generalni kamsitish emas, balki askarlarning unga bo'lgan beqiyos hurmatining ramzi edi.

To'rtta armiya tor-mor qilindi va 1797-yil 17-oktabr kuni Bonapart Kampo-Formioda Avstriyani sulk tuzishga va Fransiyaning g'alabasini tan olishga majbur qildi. Ke-yinchalik Italiya hududida Fransiyaga tobe bo'lgan bir nechta respublikalar tuzildi. Shveytsariyaga ham xuddi shunday taqdir nasib etdi.

Rus sarkardasi A.V. Suvorov bu Italiya yurishining ta'siri ostida insoniyat tarixidagi uchta eng buyuk qo'mondonlar deb Sezarni, Gannibalni va Napoleonni e'tirof etadi. «O, bu yoshgina Bonapart qanday qadam tashlabdi! U qahramon, u mo'jizaviy bahodir, u afsungar!», — deya qoyil qolgan unga Suvorov.

Bonapartning jasurligi afsonavor edi. Italiya yurishi janglarida u mingan 19 ta ot miltiqlarning va zambarak o'qlarining qurbanini bo'ldi, o'zi esa har safar o'qlar quyunidan sog'-omon chiqar edi. Arkol yonidagi jangda, qo'lida bayroq bilan avstriyaliklar o'qi ostida askarlarining oldiga tushib, Arkol ko'prigi tomon tashlanadi.

Bosib olingen yerlarda Napoleon feodal qaramlikni yo'q qildi, cherkov va ibodatxonalarini ba'zi bir yig'implardan mahrum etdi, qaysidir darajada inson huquqlarini mustah-kamlaydigan yangi qonunlarni joriy etdi. Shimoliy Italiyadan kontributsiya olar ekan, uning butun og'irligi boylarga tushishini talab qildi. Shu yo'l bilan kontribut-siya sifatida u banklarning, muzeylar, saroylar va cherkovlarning qimmatbaho buyumlarini olar va «Fransiya xalqiga va hukumatiga» sovg'alar sifatida aravalarda Parija

jo'natardi. Shu bilan birga Bönapart va uning generallari o'z manfaatlarini ham unutmasdilar, albatta.

Bir yarim yil Italiyada bo'lishi Napoleon Bonapartni tirik afsonaga aylantirdi. Albatta, bunda Napoleonning o'zi tomonidan tashkil qilingan tashviqotning ahamiyati ham katta bo'ldi. U nashr qilinayotgan gazetalardan unumli foydalandi. Napoleon ommaviy axborot vositalarining, ular-dagi targ'ibotning rolini va qudratini tushungan hamda baholay olgan yangi davrning birinchi sarkardasi va davlat arbobi edi.

1797-yil 7-dekabrdan Bonapart Italiyadan Parijga g'olib sifatida kirib keldi. Direktoriya uni Luksemburg saroyida kutib oldi, saroy atrofiga esa har tomondan olomon tinimsiz oqib kelardi.

Napoleonning g'alabalari armiyaning obro'sini oshirib yubordi. Endi ko'pchilik armiyaga ichki siyosiy masalalarini hal qilish qobiliyatiga ega bo'lган kuch sifatida ham qaray boshladi. Napoleonning e'tirof etishicha, aynan Italiyada u o'zini shunchaki general deb emas, xalqlar taqdiriga ta'sir o'tkazishga qodir odam deb his qilgan. Albatta, ko'pchilik tarixchilarni Napoleon g'alabalarining siri nimada, degan savol qiziqtirib keladi.

Tadqiqotchilarning fikricha, birinchi sabab uning yoshligi va mustahkam sog'ligida, kuchli irodasi, toblangan tanasi va o'tkir ko'zlarida edi.

Biroq 27 yoshida, eng kuchga to'lган davrida mamlakatda birinchi odam bo'lганligi va cheklanmagan diktatorlik mavqeyiga da'vo qila olishiga u inqilobdan minnatdor bo'l-mog'i lozim. Faqat inqilobning tenglik g'oyasi tufayligina hayotning shafqatsiz maktabini o'tagan yosh yo'lboschilar paydo bo'ldi. Inqilob sharofati bilangina o'sha davr Fransiyasida insonning kelib chiqishi emas, haqiqiy iste'dodi va muvaffaqiyatli ijtimoiy-siyosiy faoliyati ahamiyatga ega bo'lib qoldi.

General Bonapart o‘z ortidan aynan xalq qo‘sшинини ergashtirib borgani – Napoleon г‘алабаларининг яна бир сабаби. Унинг душманлари о‘з ўйланма аскарларини avaylashга majbur: ular juda qimmat turadi va o‘lganlarning о‘rniga boshqalarini topish juda mushkul. Bundan tashqari, ularning armiyalari turli millatlardan tashkil topgan, Napoleonnikidek armiya esa hatto german kayzerida ham yo‘q, ularни birlashtiruvchi g‘oya ham yo‘q. Bonapartning lashkari о‘з-o‘zidan qayta tiklana olish qobiliyatiga ega edi, chunki u 30 millionli bitta millatga tayandi va yigirma yil davomida shunday bo‘lib qoldi.

Bu qo‘sinning to‘xtovsiz olib borilgan urushlardan maqsadi nima edi? U nima uchun kurashdi? O‘zi mashaqqat bilan erishgan Ozodlik, Tenglik va Birodarlik г‘ояларини boshqalarga ham olib borish uchun, butun dunyoda inqilob bo‘lishi uchun kurashdi. U ozodlik tufayli qo‘lga kiritgan yutuqlarini turli tomondan unga qarshi birlashgan dushmanlardan himoya qilish uchun kurashdi. Shunchaki chegaralarni to‘sish bilan esa bu vazifani bajarib bo‘lmaydi.

Bonapart Lombardiyani, keyinchalik butun Italiyanı egallahsga urinar ekan, birinchi kundanoq, o‘z manifestlarida xalqni Gabsburglarning yoki Sardiniya qirolining, gersoglar va zodagon senatorlarning zulmidan ozod etuvchi xaloskor sifatida kelganligini kishilar ongiga singdirishga intiladi. Aslida xalq ommasining o‘zi ham unga zulm o‘tkazayotgan zolimlarni ag‘darib tashlashni istayotgan edi. Shu bois ham inqilob г‘оялари chegaralardan osongina oshib o‘tib, qo‘shti mamlakatlarning ko‘pgina shaharlarida talabalar, ishchilar va oddiy aholini harakatga undadi. Bu yerlarda ham ozodlikka jon-jahdlari bilan intilayotgan yoshlar bor edi: isyon qirollar saroylari oldida bosh ko‘tardi. Aholining bu qatlamlari shiddat bilan kirib kelayotgan

fransuz qo'shinini, uning yuksak g'oyali tashrifini yengilmas bir ishonch bilan kutardi.

Sof italiya qoni, italiyacha nomi va italiyacha ona tili bilan qo'mondon Bonapart ularning nazarida go'yo fransuz generali emasdi: ularga Bonapart Ozodlik, Tenglik va Birodarlik elchisi bo'lib tuyulardi, uning har bir manifesti ana shu uch buyuk va ayni paytda xavfli so'zlar bilan boshlanardi.

Italiyaliklar qattiq qarshilik ko'rsatganlarida Bonapart ularni tushunadi — bu uning g'alabalarining yana bir manbai edi — va ularning tili, so'zlarini qo'llab, tarixiy misollardan, nomlardan foydalanib, ularning unutilgan milliy g'ururlarini qayta uyg'otadi: «Italiya xalqlari! Fransiya qo'shinlari sizning zanjirlaringizni parchalab tashlash uchun keldi! Fransiya — barcha xalqlarning do'sti! Menga ishoninglar! Sizning mulkatingiz, urf-odatlaringiz, dingingiz — hammasi saqlab qolinadi!»

Bonapart ularga Afina, Sparta, qadimgi Rim haqida, jasur ajdodlari haqida eslatadi.

Bonapart qilich bilan egallagan istehkomlarini qalami va nutqi bilan mustahkamlardi.

Napoleon Italiyadagi tarqoq hududlardan qandaydir davlat asoslарини yaratishga urinadi. Uning maqsadi kela-jakda Birlashgan Yevropani tuzish edi. Hozircha esa u Shimoliy Italiyadagi besh-oltita kichik davlatlarni birlashtirdi; ularga konstitutsiya qanday bo'lishi kerakligini o'rgatdi. Lekin uning uchun konstitutsiyaning barcha asosiy moddalari aniq va tushunarli bo'lishi, tafsilotlari to'liq izohlanishi muhim emas edi. Balandparvoz manifestlarida fransuz qo'shini xalqlarga ozodlik va do'stlik olib kela-yotganligi bayon qilinadi: «Mustabid zolimlardan nafratlanishga qasamyod qilgan Fransiya respublikasi barcha xalqlarga do'stlik va'da qilgandi. Konstitutsiyaning bu tamoyiliga fransuz qo'shinida ham rioya qilinadi. Sizning dushmanlaringiz bilan hayot-mamot jangini olib borishga

majbur bo‘lgan respublika qo‘sini o‘zi ozodlik olib kelgan xalqlarga do‘stlik va’da qilyapti. Xususiy mulkka, insoniy g‘ururga va dingga hurmat — uni ilhomlantiradi».

Keyinchalik, gap hali ham urushda saqlanib qolgan yovvoyi odatlar haqida borganida uning qat’iy axloqi biroz yumshaydi. «Qandaydir harbiy sirlarni bilib olish maqsadida odamlarni kaltaklashdek sharmandali odat darhol to‘xtatilsin. Men insoniylikni va aqlni tan olmaydigan uslublar qo‘llanishini taqiqlayman»¹, — deydi u.

Bonapart Venetsiya orollarini egallab oldi. Bir paytning o‘zida Adriatika va Sharq ustidan hukmronlik o‘rnatish uchun Korfu va Zant orollarini ishg‘ol qildi. U O‘rta Yer dengizida tayanch istehkomlariga ega bo‘lishni va bu bilan Angliyani Hindistondan ajratib qo‘yishni istardi. Napoleon Fransiyaning ashaddiy dushmani bo‘lgan Angliyaga zarba berish uchun Sharqni egallamoqchi emasdi, aksincha, u Sharqqa chiqish uchun Angliya bilan jang qilish vositasini izlardi. Endi Yevropa unga torlik qila boshladi. U safdoshlaridan biriga shunday deydi: «Faqat Sharqdagina, haqiqatdan ham, bu-yuk sultanatlar mavjud bo‘lgan va buyuk to‘ntarishlar yuz bergen, u yerda 600 million kishi yashaydi! Yevropa — shun-chaki yumronqoziqning uyasi»².

Bonapartning bo‘yi o‘zi qabul qilayotgan barcha kishilarnikidan pastroq edi: shunday bo‘lsa ham uning balandroq ko‘rinish uchun bo‘yini cho‘zganini hech kim ko‘rmagan. Aksincha, u bilan gaplashayotgan har bir kishi sal oldinga egilardi va ana shu ozgina egilishning o‘zi bilan u iltimos qiluvchi holatiga tushib qolardi. «Agarda bu odamga, — deya yozgandi o‘sha kunlarda tashrifchilar dan biri, — jang maydonida mardlarcha jon qurban qilish baxti nasib etmasa, u holda oradan to‘rt yil o‘tganidan

¹ Душенко К.В. Всемирная история в изречениях и цитатах. — М.: «ЭКСМО», 2008. — С. 320.

² O‘sha yerda, 321-bet.

so'ng yo quvg'inda xor bo'ladi yoki taxtga o'tiradi». Buni yozgan kishi faqat uch yilga adashgandi.

Plutarxni o'ziga ustoz hisoblagan, o'z davrida mashhur bo'lgan kishilarning nomlarini aslida kimlar avlodlarga yetkazishini yaxshi bilgan Bonapart o'z saroyiga shoirlarni va tarixchilarni, olimlarni va rassomlarni taklif qilardi. Milanga kirganidan keyin u yirik astronomlardan biriga shunday deb yozgandi: «Ozod mamlakatda inson ongini yuksaltiruvchi fanni, olamni bezab turuvchi va ajdodlarning buyuk ishlarini avlodlar xotirasida saqlovchi san'atni alohida himoya qilish lozim. Barcha buyuk odamlar, fan olamida mashhur bo'lgan barcha kishilar, qaysi yurtda yashashlaridan qat'iy nazar — fransuzlardir. Kim Fransiyaga borishni xohlasa, u yerda izzat-ikrom bilan qabul qilinadi, chunki fransuz xalqi boy o'lkalarga emas, buyuk matematikka, rassomga yoki boshqa biron-bir iste'dodli kishiga ega bo'lishni xohlaydi!»¹.

U Milanga kirib kelganidan rosa ikki yil keyin 400 ta yelkanli kema Tulonda langarlarini ko'tarib, ochiq dengizga chiqdi. Bu flotning sahnida faqat 2000 ta to'pgina emas, butun bir universitet ham suzib ketayotgan edi. Astronomlar, matematiklar, ma'danshunoslar, kimyogarlar, qadimshunoslar, yo'l va ko'prik quruvchilar, sharqshunoslar, iqtisodchilar, rassomlar va shoirlar: 175 nafar olimlar o'zları bilan loboratoriya asboblari va kitoblar solingan yuzlab qutilarni ham olib ketayotgan edilar. Barchaning nigohi o'zining ehromlari bilan dunyoga mashhur bo'lgan yurtga qaratilgan. Napoleon Misr deb atalmish bu ertaksi-mon mamlakatda. Fransiyaga mustamlaka, o'ziga esa — afrika-cha shon-sharaf taqdim qilmoq uchun olimlar bu mamlakatni chuqur o'rganib chiqishlarini istaydi.

¹ Эмиль Людвиг. Наполеон. — М.: «Захаров-Вагриус», 1998. — С. 297.

...Sahro qumlari osha Bonapart ot ustida sfinkslarga yaqinlashadi va o'ylaydi: «Bu yerkarni Buyuk Aleksandr kezgan. Bu yerga Sezar tashrif buyurgan. Bu tosh haykallar yaratilishidan ularni ikki ming yil ajratib turgan bo'lsa, meni ham ulardan shuncha vaqt ajratib turibdi. Nil atrofida quyoshga sajda qiluvchi cheksiz sultanatlar joylashgan. Millionlab odamlar bir kishiga bo'ysungan».

Misr rasmiy ravishda Usmoniyalar imperiyasining mulki bo'lsa-da, amalda uni mulkdor mahalliy harbiy-feodallar boshqarar edi.

Fransiya armiyasi Aleksandriya yaqinida qirg'oqqa tushdi va bu boy shaharni egalladi. Keyin Fransuz armiyasi Nil bo'y lab yuqoriga, Qohiraga qarab yurish boshladi. Ehromlar oldida Napoleon o'zining mashhur iboralaridan birini aytadi: «Askarlar! Esda tuting, sizlarga bugun bu ehromlar yuskligidan qirq asrlik tarix qarab turibdi!». Keyin Bonapart qo'shini Qohirani egalladi.

Napoleon g'alabani tantana qilayotgan bir paytda ingliz floti qo'mondoni admirall Nelson Abukir qo'ltig'ida Bonapartning flotini yakson qildi.

Napoleon va uning armiyasi Fransiyadan ajralib qoldi. Lekin bu vaqtdan ham Misrni boshqarishning ilg'or tizimini tashkil qilish uchun foydalanildi, olimlar esa Misrning 24 jildlik tavsifini tuzishdi.

Napoleon o'zining Misrdagi hokimiyatni mustahkam ekaniga qattiq ishongan holda, yana Sharqqa qarab, Suriyaga yo'l oldi. Yaffa va Xayfa yonida turklar fransuzlarni to'xtatishga urinib ko'rdilar, lekin qal'alar jang bilan olindi. 10 minglik qo'shin bilan Napoleon Akko qo'rg'oniga — Suriya podshosi poytaxtiga yaqinlashdi. Fransuzlar kun sayin hujumini kuchaytirib borishlariga qaramasdan, bir paytlar salibchilar tomonidan qurilgan qal'ani egallay olmadilar. Buning ustiga

¹ Alexandre R. Lesmotsquirestent. — Paris, 1901; dico-perso.com/term/adblaead5e60a9565d.xhtml.

qal'adagilar dengiz tomondan inglizlar ko'magini olib turardi. Napoleon qo'shinini yana Qohiraga olib ketdi. Keyin g'aroyib bir tarzda Abukir olindi. Shunday qilib, butun Misr egallandi va Napoleon shon-shuhratga chulg'andi.

U musulmon mamlakatlarini zabit etar ekan, o'z dinini qaysidir ma'noda Allohnning dini bilan yaqinlashtirish uchun turli usullardan foydalandi. O'zi uchun Qur'on ham Injil kabi muqaddas ekanligini e'lon qildi. U ko'pincha o'z fikrlarining asosi sifatida Qur'onga murojaat qiladi va bu muqaddas kitob Napoleon kutubxonasining «Siyosat» bo'limida doimo saqlanadi¹.

Shunday bir paytda Napoleon to'satdan Fransiyaga qaytishga qaror qiladi. Buning sababi Fransiyaga qarshi yangi ittifoq tuzilganligi va A.V. Suvorov qo'mondonligidagi rus qo'shnlari Shimoliy Italiyada erishayotgan g'alaba haqidagi xabarning Bonapartga yetib kelganligi edi. U xalq orasida obro'si tushib ketgan Direktoriya hukumatini almashtirish, hokimiyatni egallah uchun fursat yetganligini anglagan bo'lsa ham ajab emas. Napoleonning Fransiyaga qaytish sabablari ichida shunday taxmin ham bor.

Napoleon tunda qachonlardir Venetsiyadan tortib olin-gan ikkita kichik fregatda yashirinchay Misrdan suzib ketadi.

Bu suzish 15 oy muqaddam sodir bo'lgan birinchi suzishga butunlay o'xshamaydi. Safar avvalida 400 kema bor edi, endi esa ularning soni faqat ikkita. Qo'shining

¹ Napoleon denga munosabatini ham siyosiy maqsadlariga bo'y sundirgan. U: «Men Vandeyani tinchlantirish uchun katolik bo'ldim; Misrda o'rashib olish uchun musulmon bo'ldim; italiyaliklarni jalb qilish uchun ultramontan bo'ldim. Agar men yahudiylar hukmdori bo'lganimda Sulaymon ibodatxonasini qayta qurgan bo'lardim» deb yozgan edi.

Цит: Душенко К.В. Всемирная история в изречениях и цитатах. — М.: «ЭКСМО», 2008. — С.322.

yarmi yo'qotildi. Hamon afsonaviy mamlakat fransuzlar qo'lida bo'lsa-da, Napoleonni murakkab savollar qiyinay boshladi: Misrni yana qancha vaqt egallab turishimiz mumkin? Angliya ustidan g'alaba qozonish orzusi endi qayga yo'qoldi? U ham Hindiston haqidagi orzular qatori yo'q bo'ldimi? Balki Misrdan yashirinchka ketmaslik kerakmidi?

Xullas, bu ziddiyatli o'ylarga qaramasdan, 1799-yil 16-oktabrda Parij g'olib qo'mondonni olqishlar bilan kutib oladi. Napoleon kelgan paytda Fransiyani boshqarayotgan Direktoriya hukumatining obro'si shunchalar tushib ketgan va siyosiy inqiroz shunchalar chuqurlashgan ediki, davlat to'ntarishini rejalashtirgan siyosiy guruhlarga Napoleonondek bir shaxs yetishmayotgan edi, xolos. Ayniqsa, burjuaziyaning katta qismi «qattiqqo'l boshqaruvni» istayotgan va shunga munosib shaxs sifatida Napoleonni mo'ljallayotgan edilar. General Morodan Napoleonning Parija qaytib kelayotgani haqidagi xabarni eshitgan Siyeyes: «Mana, sizga kerak bo'lgan odam shu», degan ekan.¹ To'ntarish uchun hamma narsa tayyor edi: Direktoriya qattiq qarshilik qilishga qodir bo'lmasa-da, har ehtimolga qarshi uning ikki a'zosi — Siyeyes va Roje Duko tayyorlanayotgan isyonning markaziy shaxslaridan bo'ldilar; bir nechta generallardan tashqari qo'shin to'lig'icha Direktoriyaga qarshi edi; politsiya vaziri Fushe kim kuchli bo'lsa shu tomonda bo'lishni mo'ljallab turgandi; «Besh yuzlar» kengashidagi respublikachilarni bartaraf qilish maqsadida Napoleonning ukasi Lusyen Bonapart bu kengashning raisi etib saylandi.

To'ntarishning faol qatnashchilaridan bir qismi Napoleon hokimiyat tepasiga kelganidan so'ng uni o'zlarining itoatkor qo'g'irchog'iga aylantirishni mo'ljallagan edilar.

¹ Q a r a n g : История Франции в трёх томах. Т.2. — М.: «Hayka», 1973. — С. 110.

Ular qanchalik adashganliklari keyinchalik ma'lum bo'ldi. Davlat to'ntarishi 1799-yil 9-noyabrdan amalga oshirildi. Hokimiyat uch nafar muvaqqat konsullar — Bonapart, Siyeyes va Roje Dukoga topshirildi. Bonapart Birinchi Konsul bo'ldi.

1789-yilgi inqilobdan beri fransuz xalqi yoki hukmdorlari tomonidan shunchalar ko'p to'ntarishlar amalga oshirildiki va keyinchalik «III yil konstitutsiyasi» shunchalar ko'p va qo'pol buzildiki, 18-bryumer (9-noyabr 1799-y.) kuni Sen-Kluda qonun chiqaruvchi korpus ustidan qilingan zo'ravonlik, Direktoriyaning bekor qilinishi hamda sobiq abbat Siyeyes, Roje Duko va Bonapartdan iborat Konsullik¹ ijro komissiyasining tuzilishi odamlarni g'azabdan ko'ra ko'proq hayratga soldi. Bu na ichki va na tashqi jiddiy xavf bilan oqlanmaydigan davlat to'ntarishi edi. Fuqarolarning ko'pchiligi monarxiyaga qaytish g'oyalarini ma'qul-lamasalar-da, endi respublikachilikning o'tmishi bo'lgan general Bonapartni hukumat boshlig'i sifatida xotirjam qabul qildilar. Bonapart harbiy diktatura tuzumini o'matib, iqtisodni, davlat boshqaruvi va huquq tizimini tiklash va tartibga solish bilan shug'ullandi. 18-brumerdan keyin hokimiyat tepasiga kelgan muvaqqat konsullar (Siyeyes, Duko va Bonapart) avvalgi to'ntarishlar g'oliblaridan farqli ravisha da ohista va ehtiyyotkorona siyosat yurgizdilar. Ammo bu hol Napoleon ehtiyostrarini qondira olmadи.

1799-yil 13-dekabrda (22-frimer) qabul qilingan, «xotirjamlik, tartib-intizom, qonuniylik»ni o'z tamoyillari deb e'lon qilgan yangi Konstitutsiya ijro hokimiyati uchta konsulga topshirilganligini rasmiylashtirdi. Eng katta hu-

¹ *Konsullik* — 1799-yil 9-noyabrdan 1804-yil 18-maygacha Fransiyada joriy qilingan boshqaruв shakli. Ijroiya hokimiyati uchta konsulga topshirilgan, amalda Napoleonning shaxsiy hokimiyati o'rnatilgan.

quq Birinchi konsulga berildi. 1799-yil 24-dekabrda qabul qilingan qonun bilan konstitutsiya amalga joriy etildi va 25-dekabrdan boshlab konsullar ishga kirishdilar. Birinchi konsul qonunlar loyihasini ishlab chiqish va Senat muhokamasiga kiritish, urush e'lon qilish va sulh tuzish, vazirlar va boshqa amaldorlarni tayinlash kabi assosiy huquqlar ni qo'lga kiritdi. U 1791-yilgi Konstitutsiya bo'yicha qiroq Ludovik XVI ega bo'lgan hokimiyatdan ham ko'proq qudratga ega edi. Ikkinci va uchinchi konsullar faqat maslahat ovoziga ega edilar. Qonunchilik hokimiyati keskin cheklangan edi. 1801-yil 4-yanvar kuni e'lon qilingan va Senat tomonidan tasdiqlangan hukumat qaroriga binoan, 130 nafar respublikachi mamlakatdan badarg'a qilindi. Hujjatda aytishchicha, ular «respublikaning Yevropadan tashqaridagi hududlarida alohida nazorat ostida» ushlanmog'i lozim edi. Ular Gviana va Seyshel orollariga surgun qilinib, ko'pchiliga Fransiyani ko'rish boshqa nasib etmadı. Respublikachilarga qarshi harakat bu bilan cheklanmadı. Yana 52 fuqaro demokratik harakatlari uchun noqonuniy ravishda qamoqxonalarga tashlandi. Ular orasida fransuz inqilobchilarining bevalari ham bor edi. Bundan tashqari, 1801-yil 7-fevraldag'i qonunga binoan, hukumat o'zi lozim topgan departamentlarda favqulodda sudlar joriy qilish huquqini ham qo'lga kiritdi. Napoleon yakkahokimligini o'rnatish yo'lida qilingan tadbirlardan yana biri Tribunat va qonun chiqaruvchi korpusni liberallardan tozalash bo'ldi. Ikkala palatada ham Napoleonga muxolifatda bo'lmaydigan murosasoz deputatlar qoldi, xolos.

Mahalliy o'zini o'zi boshqarish tizimi ham deyarli yo'q qilindi. Departamentlarga boshqarish uchun hukumat amaldorlari — prefektlar yuborildi. Shaharlarda saylanadigan kommunalar o'rniga merlar tayinlanadigan bo'ldi. Mamlakatda shaxsiy hukmronlik tartibini o'rnatishga hala-

qit beradigan hamma to'siqlar bartaraf qilindi. Endi shunday tartibni qonunlashtirish qolgan edi, xolos.

1799-yilda Napoleon hokimiyat tepasiga kelgach, Birinchi konsul sifatida Direktoriya davridagi tashqi siyosatni davom ettirdi. Bu siyosat Fransiyaning eng ashaddiy raqibi bo'lgan «tumanli Albion», ya'ni Angliyani mag'lub etish-dan iborat edi. 1798-yilda Napoleonning O'rta Yer dengizi orqali Misrga qilgan yurishi ham aslida Angliyaga qarshi qaratilgan edi. Ammo Angliyaday jiddiy dushmanni mag'-lub etish uchun kuchli ittifoqchi zarurligini Napoleon yaxshi tushunardi. O'sha paytdagi siyosiy vaziyatga va Napoleonning fikriga ko'ra, bu ittifoqchi faqat Rossiya bo'la olishi mumkin edi. «Faqat Rossiya Fransiyaning ishonchli ittifoqchisi bo'la oladi...», degan xulosaga keladi u 1801-yilning yanvar oyida. Shu sababli Napoleon Rossiya bilan bo'ladigan ittifoqqa katta umid bog'laydi.

1796-yilda Rossiya hukmdori Ekaterina II vafot etganimdan so'ng taxtga uning o'g'li Pavel I o'tirdi. Uning siyosati shu paytgacha Rus podsholari saroyida katta ta'sirga ega bo'lgan inglizlarning rejalarini buzib yubordi. Pavel I Angliya bilan an'anaviy ittifoqchilikdan voz kechib, Fransiya bilan yaqinlasha boshladi. Bu siyosat Napoleon uchun ayni muddao edi. Bu yaqinlashuv haqida o'z fikrini bayon qilar ekan, u Pavel I ning Parijdagi vakili Sprengportenga shunday degan edi: «Biz Sizning hukmdoringiz bilan birgalikda endi jahon xaritasini o'zgartirishga qodirmiz».

Darhaqiqat, Fransiyaning Rossiya bilan birgalikda Angliyani mag'lub etishi uchun qulay imkoniyat paydo bo'ilgandek tuyuladi. Angliya poytaxti Londonda Fransiya bilan Rossianing yaqinlashuvini inglizlar, ayniqsa, Angliya parlamenti a'zolari qo'rquv va xavotir bilan qarshi olishdi. 1801-yil 2-fevral kuni Angliya parlamenti qudratli bosh vazir Uilyam Pitt boshchiligidagi hukumatni iste'foga chiqarishga muvaffaq bo'ldi. Angliya hukumatiga nisbatan

muxolifatda bo‘lgan parlament a’zolari Fransiyaning Rossiya bilan yaqinlashuvini Angliya tashqi siyosatining mag‘lubiyati deb baholashdi. Addington boshchiligidagi yangi hukumat o‘z faoliyatini qo‘rquv va ishonchsizlik bilan boshladi:

1801-yilning boshlarida Fransiya bilan Rossiya o‘rtasida imzolangan ittifoqqa binoan, Pavel I general V. Orlov boshchiligidagi Don kazaklaridan tashkil topgan polklarga Orenburg tomon yurish boshlashni buyuradi. Bu polklar Orenburgdan Turkiston o‘lkasi orqali o‘tib, Hindistonga hujum boshlashi nazarda tutilgan edi. Imperator Pavel I general V. Orlovga shunday yozadi: «Vasiliy Petrovich, bu ekspeditsiyani tashkil etishni Sizga va Sizning qo‘sinchiringizga topshiraman. Maqsad, dushmanni mahv etish uchun uning yuragiga xanjar sanchish». Demak, Pavel I ning fikriga ko‘ra, Hindiston Angliyaning mustamlakasi sifatida uning yuragi hisoblangan. General Orlovning ekspeditsion armiyasi tarkibi 41 ta polk (22 ming 507 kishilik qo‘sish), 2 ta artilleriya rotasidan (22 ta zambarak va ularni sudrash uchun 12 ta karkidonlar) iborat bo‘lgan. Shu tariqa, Napoleon va Pavel I ning rejalari to‘g‘risidagi ma'lumotlar Turkistonga ham yetib kelgan edi. 1801-yil 11-martdan 12-martga o‘tar kechasi Peterburgda davlat to‘ntarishi yuz beradi. Natijada, Pavel I suiqasdchilar graf Palen, general Benningsen, Nikita Panin, aka-uka Zubovlar tomonidan o‘ldirildi. Taxminlarga ko‘ra, bu suiqasdni uyuşhtirishda ingliz hukmron doiralarining ham qo‘li bo‘lgan. Aytishlaricha, Pavel I ning o‘g‘li shahzoda Aleksandrning (bo‘lg‘usi imperator Aleksandr I) ham bu suiqasddan xabari bo‘lgan. Aynan 1801-yil mart oyining boshlarida general Orlovning kazak polklari Qozog‘istondagi Ir-giz nomli joyga yaqinlashgan edi¹. Imperator Pavel I ning

¹ Манфред А.З. Наполеон Бонапарт. — М.: «Мысль», 1986. — С. 329.

o'limi sababli ekspeditsiya amalga oshmay qoldi va general Orlovning polklari orqaga qaytishga majbur bo'ldi. Napoleon Bonapartning esa Pavel I bilan tuzgan rejasidan voz kechishdan boshqa iloji qolmagan edi. Napoleon Bonapart Peterburgdagi davlat to'ntarishi haqida g'azablanib shunday deb yozadi: «Ular 11-martdan 12-martga o'tar kechasi meni nishonga olgan edilar, ammo bu o'q menga tegmadi. Biroq, Peterburgni mo'ljalga olgan o'q menga qadaldi». «Ular», deganda Napoleon inglizlarni nazarda tutgan edi.

Yuqorida qayd etilganidek, Napoleon haqidagi ma'lumotlar Turkistonga XIX asr boshlarida yetib keldi. O'zbek mumtoz shoiri Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat (1859—1909) Toshkentda bo'lgan paytida ruslarning Suvorov haqidagi sahna asarini ko'rib, shu spektakl asosida «Suvorov» masnaviysini yaratdi (1890). Furqat Suvorov qiyofasini yaratish jarayonida Napoleon Bonapart tasvirini badiiy so'zlar vositasida chizishga muvaffaq bo'ladi:

*«Chiqib ul vaqtda bir pahlavoni,
 Jahonga nomi shuhrat topdi oni.
 Farangi erdi, ammo oni zoti,
 Bahodir erdi ko'p, Napoleon oti.
 Urush maydonida erdi yagona
 Aning chun shuhrati to'ldi jahona.
 Borib ko'p mamlakatga jang qildi,
 Tamomi Evruponi tang qildi.
 Qilib vahm Avstriya podshohi,
 Napoleонни qilurg'a soddi rohi.»*

Shu munosabat bilan Avstriya imperatori Rossiya podshosi Pavel I ga maktub yo'llab, Napoleon Bonapartga qarshi kurashda undan yordam so'raydi. Bu voqeя bayonida Furqat Napoleonga tavsif beradi:

*Chiqibtur bir farangiyi zabardast,
Ish anga har tarafda jang payvast.
Agarchi podshoh ermas ul odam
Va lekin podshohlardin emas kam,
Aningdek pahlavon yo'q bu orada,
Urush bobida Rustamdin ziyoda.
Kelur ko'p jang ila nayrang andin
Italiyo, balki bizlar tang andin»¹.*

Furqat bu yerda Napoleonning Italiyaga 1796—1797-yilgi yurishi va harbiy san'ati to'g'risida so'z yuritadi. Italiya o'sha paytda Avstriyaga qaram bo'lganligi sababli Fransianing bu yerdagi harbiy operatsiyasi Italiyani Avstriya qaramligidan ozod qilishga qaratilgan edi. Bu paytda Napoleon hali taxtga chiqmaganligi sababli «Agarchi podshoh ermas ul odam» iborasini Furqat juda o'rinli ishlataldi hamda Napoleon obrazini jonli va ifodali yaratishga muvaffaq bo'ladi. Jahon adabiyotida, ayniqsa, Yevropa va Amerika adabiyotida Napoleon shaxsiga murojaat qilish, uning to'laqonli qiyofasini yaratishga, faoliyatini badiiy usullar vositasida tahlil qilishga urinish ko'p uchraydi. Ammo Furqatning ushbu masnaviyidagi Napoleon shaxsi talqini nafaqat o'zbek adabiyotida, balki Sharq adabiyotida ham dastlabki bayonlardan bo'lganligi bilan ajralib turadi.

Aslida Napoleon faoliyatini tahlil qilish, unga baho berish uning o'zidan boshlangan edi. Taxtdan tushirilib Muqaddas Yelena oroliga surgun qilingan Napoleon shunday deb yozadi: «Mening haqiqiy shuhratim qirqta jangda g'olib bo'lganligimda emas: Waterloo bu g'alabalar haqidagi hamma xotiralarni o'chirib yubordi. Ammo bir narsa borki, u hech qachon unutilishi mumkin emas, u abadiy yashaydi — bu mening Fuqarolik kodeksim»². Hali to'nta-

¹ Furqat she'riyatidan. — T.: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980. 97—98-betlar.

² История XIX века в восьми томах / Под ред. Лависса и Рамбо. — М., 1938. Т.1. — С. 254.

rish yuz bergen kechasiyoq u qonunlar Kodeksini tayyor-lash uchun ikkita komissiya tuzdi: bu Napoleon diktarasining birinchi amaliy ishi edi. O'sha paytdagi barcha tartibsizliklar qonunlar yo'qligi sababli kelib chiqqandi. Inqilobga qadar Fransiyada yagona qonunlar majmuasi umuman mavjud bo'limgan. Bonapart bu ishni uchta mashhur yuristga topshirdi va to'rt oydan so'ng Fuqarolik Kodeksining loyihasi yaratildi. Keyinchalik bu hujjat Napoleon kodeksi deb nom oldi.

Fuqarolik Kodeksi bir qancha jiddiy kamchiliklariga qaramasdan juda katta mehnat va jasorat mahsulidir. U bir yil ichida — 1803-yilning mart oyidan 1804-yil martigacha qabul qilindi va jami 2281 ta moddani o'zida mujassam-lashtirib, o'z davrining mukammal kodeksiga aylandi. U qadimgi Rim huquqini ustalik bilan yangi kapitalistik munosabatlar sharoitiga moslashtirdi. 1807-yilgi ikkinchi nashridan so'ng hujjat Napoleon Kodeksi deb atala boshlandi. Bu kodeks turli yillarda Yevropaning qator davlatlarida, Osiyo va Lotin Amerikasining Fransiyaga qaram hududlarida (mustamlakalarda) joriy qilindi. Napoleon hukmronligi barham topganidan keyin ham kodeksdan amalda foydalanish to'xtamadi.

Fuqarolik kodeksi bilan boshlangan xususiy huquqni Yangi davr ruhiga moslab tartibga solish 1807-yilda e'lon qilingan savdo qonunlari bilan davom ettirildi.

Konsullik va Imperiya yillarda sud ishlari ham yangi sharoitga moslab isloq qilindi. 1801-yil 18-martda qabul qilingan qonunga ko'ra sudlar ikkiga — fuqarolik va jinoyat sudlariga ajratildi. Shu bo'linish imperiya yillarda ham saqlanib qoldi, faqat sud tashkilotlari va lavozimlarning ba'zi birlari o'zgardi. Masalan, kassatsiya tribunalı — kassatsiya palatasiga, appellatsiya tribunalı — appellatsiya palatasiga, jinoiy tribunal — jinoyat sululari palatasiga aylantirildi.

Sudlarning rais noiblari — birinchi rais yoki rais deb ataladigan bo'ldi, palatalar qoshidagi hukumat komissarlari — imperiya bosh prokurori, sudlardagi komissarlar esa — imperiya prokurorlari unvonini oldi. Palatalarning chiqargan hukmlari ajrim deb ataladigan bo'ldi.

Ilohotlar natijasida 1807-yilda Fuqarolik sudlov ishlari ustavi, 1811-yilda esa Jinoyat sudlov ishlari ustavi kuchga kirdi. Fuqarolik kodeksida e'lon qilingan fuqarolarning qonun oldida tengligi, shaxs va mulk daxlsizligi, vijdon va boshqa erkinliklar Fuqarolik va Jinoyat sudlov ustavlarida ham o'z aksini topdi. Xususan, Fuqarolik sudlovi ustavida ilk bor aybsizlik prezumpsiyasi tamoyili qo'llangan.

Fransiyada va Napoleon egallab olgan barcha yurtlarda bir asrdan ortiqroq qo'llangan bu Kodeksning asosiy modalari Yevropadagi barcha fuqarolik qonunchiligidagi hozir ham asosiy o'rinda turadi. Bu kodeksda zodagonlik vorisligi haqida umuman gap yo'q, barcha bolalar tug'ilishidan boshlab tengdirlar, yahudiylarning huquqlari nasroniy-larniki bilan tenglashtirilgan, ajralish huquqini beruvchi fuqarolik nikohiga¹ barcha kirishi mumkin.

Napoleon mamlakatning tinch taraqqiyot yo'lida ham qator ishlarni amalga oshiradi. Bonapart ko'plab litseylar, texnik yo'nalishdagi o'quv muassasalarini ishga tushiradi, ularda 6000 pulsiz o'rinalar tashkil qiladi, bu o'rinalarning uchdan bir qismi xizmat ko'rsatgan kishilarining farzandlariga beriladi. Oradan uch yil o'tganidan keyin Fransiyada 4500 xalq maktablari, 750 ta real o'quv muassasalari², 45 ta litseylar ishlab turardi. U «o'nta eng yaxshi rassom, o'nta eng yaxshi haykaltarosh, bastakor, musiqachi, me'morlar

¹ Nasroniylikning katolik mazhabida diniy nikoh tomonlarning ajrashishiga yo'l qo'ymaydi.

² Real o'quv muassasalari — asosan matematika va tabiiy fanlar o'qitiladigan o'rta maxsus bilim yurti.

ro‘yxatlari tuzilishini, shuningdek, bu ro‘yxatga qobiliyatлari homiylikka loyiq bo‘lgan boshqa san’at arboblari ning ham qo‘shilishini» talab qiladi.

Bonapart xalqning ahvolini yaxshilaydi va shu yo‘l bilan barcha kasbdagi kishilarni tinchlantirishga urinadi. Biroq faqat tinch taraqqiyot yo‘li Napoleonning shuhratparastlik ehtiroslarini qondira olmaydi. Unga g‘alabalar va shonshuhrat keltiradigan harakat kerak. Shunda u Faxriy legion¹ ordenini o‘ylab topadi.

Faxriy legionlar shunchaki zabitlar klubi emas edi, dastlabki vaqtarda unga vatan oldida xizmat ko‘rsatganlarni qabul qillardilar.

...Konsul Operaga ketmoqda, uning ortidan boshqa ko‘shk arobada Jozefina bilan qizi borardi, tor bir muyulishda ularning yo‘lini otsiz bir arava to‘sadi. Uni chetga olib qo‘yadilar va yana yo‘llarida davom etadilar: endi o‘tib bo‘lay deganlarida birdan o’sha arava portlaydi. 20 ga yaqin kishi, asosan, tasodifiy yo‘lovchilar halok bo‘ladi, lekin birinchi karetadagi Konsul ham, ikkinchi karetadagi Jozefina va uning yaqinlari ham sog‘-omon qoladilar.

Zalda musiqa yangraydi, Napoleon esa bo‘lib o‘tgan voqeani eslaydi. Bu «yigitlar» kimlar ekanligining unga unchalik farqi ham yo‘q — o‘nglarmi yoki so‘llarmi, baribir. Unga o‘lim istovchi dushmanlari yetarli ekanligini o‘zi yaxshi bilardi. U fitna tufayli vujudga kelgan qulay vaziyatdan foydalanib, darhol hokimiyat masalasini uzilkesil hal etishga qaror qiladi.

Aynan ana shu kunlarda ichki ishlar vazirining nazariga tushmay qolgan va mazmunida vorislik monarxiyasini talab qilingan «Sezar, Kromvel va Bonapart» deb nomlangan muallifsiz bir risola chop etilib, uning asablarini yanada taranglashtiradi. Tanaga va ruhga bo‘lgan bu ikki suiqasd

¹ Legion — tarkibi doimiy bo‘lmagan turli xil harbiy qo‘silmalar.

mamlakatdagi erkinlikka ancha zarar yetkazdi (tarixda bar-cha avtoritar va totalitar rejimlarda diktatorga va uning cheklanmagan hokimiyatiga qarshi qilingan har qanday tajovuz mamlakatda erkinlikning cheklanishiga olib kelgan yoki erkinlikni cheklash lozim bo‘lganida shunday tajovuz o‘ylab topilgan, uyushtirilgan. Ehtimol, Napoleon ham bundan mustasno emasdir). Tribunatning va har ikki palataning beshdan bir qismi iste’foga chiqarildi, 73 ta gazetadan 61 tasi yopildi, har bir risola, har bir spektakl senzuradan o‘tadigan bo‘ldi.

1802-yilning 2-avgust kuni umrbod konsullikni joriy qilish masalasi bo‘yicha o‘tkazilgan plebissitning¹ natijalari e’lon qilindi. 3 million 568 ming 885 fuqaro bunga rozilik bildirib, 8 ming 374 fuqaro qarshi ovoz berdi. Saylov huquqiga ega bo‘lgan fuqarolarning katta qismi umuman betaraf qoldilar. Shu kuni Senat quyidagicha mazmunda dekret e’lon qildi:

1. Napoleon Bonapartni fransuz xalqi umrbod birinchi konsul etib tayinlaydi va Senat shuni e’lon qiladi.
2. Bir qo‘lida g‘alaba gulchambari va ikkinchi qo‘lida mazkur dekretning matni tasvirlangan Tinchlik haykali avlodlar oldida millatning minnatdorligi ramzi bo‘ladi.
3. Senat fransuz xalqini ruhlantiruvchi ishonch, mehr va hayratlanish hissini Birinchi konsulga bildiradi.

Shunday qilib, «inqilob o‘g‘loni» Napoleon Bonapart Fransiyaning bosh siyosiy arbobi bo‘lib qoldi. Mamlakat fuqarolararo tinch-totuvlik va barqarorlik yo‘liga o‘tdi.

1802-yilning 4-avgust kuni Konstitutsiyaga qo‘srimcha Senatning sharhi deb atalgan hujjat ishlab chiqildi. Bu aslida yangi konstitutsiya bo‘lib, undan asosiy maqsad Napoleon hokimiyatini mustahkamlash edi. U endi o‘ziga voris tayinlash huquqini ham oldi.

¹ Plebissit – umumxalq ovoz berishi.

Umuman, 1802—1804-yillari Konsullik Fransiyasining ichki holatini uchta so‘z bilan ifodalash mumkin: Bona-partning shaxsiy boshqaruvi.

1804-yilning boshlarida Konsulning qabuliga Senatning komitetlaridan biri Oliy davlat sudini va shu bilan bir paytda monarxiyani joriy qilish haqidagi qiziqarli taklif bilan keladi. Bundan ham oddiyroq va mantiqliroq taklif bo‘lishi mumkinmi? Qo‘rquvdan qutulish va davlat boshlig‘ining hayotini xavfsizroq qilish uchun Oliy davlat sudi va albatta, merosxo‘r kerak.

Napoleonning hayotidagi barcha muhim qarorlar singari imperatorlik hokimiyati haqidagi qaror ham vaziyat ta’siri



ostida paydo bo‘ldi. Unda voqelikka aylanishi mumkin bo‘lgan shunday aniq reja hech qachon bo‘lmas.

Lekin u shunchalik ishtiyoq bilan intilayotgan taxt nima o‘zi? Uning fikricha, «taxt bor-yo‘g‘i bir parcha baxmal bilan qoplangan yog‘och bo‘lagi; hammasi unda kim o‘tirganiga bog‘liq. Mening Fransiyaga muhtojligimdan ko‘ra, Fransiya menga ko‘proq muhtoj»¹, — deya takrorlardi u imperator bo‘lganidan so‘ng.

¹ Душенко К.В. Всемирная история в изречениях и цитатах, — М.: «ЭКСМО», — С. 330.

Xullas, referendum o'tkazilib, uning natijalariga ko'ra Napoleon Bonapart 1804-yil 18-may kunidan boshlab Fransiya imperatori bo'ldi. Shu yili 2-dekabrda esa uning taxtga o'tirish va toj kiyish marosimi o'tkazildi.

Napoleon I — Fransiya imperatori!

Napoleon taxtga o'tirishidan bir yil oldin yana Angliya bilan urush boshlandi. Napoleon hokimiyatdan ketmasa, bu urush ham tugamaydi. Bu harbiy harakatlar emas, doimiy urush holati edi va aynan shuning uchun qo'mondon bu urushda yengib ham chiqa olmaydi, uni yakunlay ham olmaydi. Angliyaning Fransiyadan ikkita ustunlik tomoni bor edi: u orolda joylashgan va barcha davlatlar bilan tinch-totuvlikda ish tutmoqda.

Mamlakatning shimolida bahordan buyon Angliyaga tashlanishga tayyor qo'shin turardi. Kuzda Avstriyaning yangi hujum boshlashi aniq bo'lib qolganidan so'ng u butun qo'shinini sharqqa tomon buradi. Bu qaror 2 kunda qabul qilinadi va 2 haftada amalga oshiriladi. Dushman harakat boshlanganidan xabar topgunicha, qo'shin Reynning o'ng tarafiga o'tib oldi. Napoleon yo'lga chiqar ekan, Avstriyaga qarshi operatsiyaning to'liq rejasini kotibasiga yozdirdi: «...tartib va intizom, qo'shin bo'linmalarining uchrashuv joyi, dushmanning hujumlari, nayranglari va xatolari». Bularning barchasini u ikki oy avval va 200 mil uzoqlikda belgilab qo'ygan edi.

Hujum qilish uchun Avstriyada sabablar yetarli edi. Italiyaning yangi qiroli hassasining tutqichida Venetsiya sheri tasvirlangan. Bu holat, shuningdek, Genuyaning tortib olinganligi Avstriya uchun dahshatli haqorat bo'ldi. Ammo avstriyaliklar Alp tog'lari orqali qo'shin jo'natishta jura't etmadilar. Ularning umidi faqat Angliya va Rossiyaning yordamida edi. Angliya pulni ayamaydi, Rossiya ham ularning ittifoqchisiga aylangan. Chamasi, yangi Rus podshosi Yevropaning Rossiyaga qarshi eski dushmanona fikrlarini o'zgartirishga qaror qilgan va o'z qilichini g'arb mamlakatiga o'tirishga imkon berdi.

katlarining zulmkori bo‘lgan Napoleonga qarshi qaratgandi. Endi ularning barchasiga harbiy harakatlar olib borishning napoleoncha taktikasi ma’lum edi: bu safar uni o‘zining usuli bilan jazolamoqchi edilar.

Biroq harbiy daho shuning uchun ham dahoki, u doimo biror yangilik topa oladi. Napoleon tezkor yurish bilan avstriyaliklarning qo‘sishinlarini, ular hudud bilan tanishib ulgurmaslaridan oq, aylanib o’tdi. Ulma yonida esa uni temir halqadek qurshab oldi va butun bir armiyani bitta ham o‘q otmasdan taslim qildi. «Men o‘z maqsadimga erishdim: Avstriya armiyasi tezkor harakatlarning oddiy ko‘lamni natijasida tor-mor qilindi. Endi men nazarimni ruslarga qarataman. Ularning kuni bitdi».¹

Haqiqatdan ham, u tez orada har ikkala armiyani to‘liq tor-mor qildi va shu paytgacha hech kimga ma’lum bo‘lgan Austerlis tekisligini butun dunyoga mashhur qildi. 1805-yil 26-dekabrda imzolangan Pressburg shartnomasida Avstriya fransuzlar qo‘ygan barcha talablarni qabul qilishga majbur bo‘ldi. Endi Avstriya Napoleonga Italiya va Germaniyada erkin harakat qilish imkoniyatini berdi, Venetsianing olib qo‘yilganligini tan oldi. Napoleon Muqaddas Rim imperiyasining yo‘q qilinganligini e’lon qildi. Fransiyaga qarshi uchinchi ittifoqchilik shu tariqa barham topdi.

Fridrix II ning XVIII asrdagi g‘alabalaridan beri Prussiya armiyasi Yevropada kuchli hisoblanar edi. Angliya va Rossiya tomonidan qo‘llab-quvvatlangan Prussiya ular bilan birga Napoleonga qarshi uchinchi koalitsiyaga qo‘sildi. Angliya odatdagidek pul subsidiyasini taklif qildi. 1806-yil 14-oktabrda Yena yonida bo‘lgan jangda Napoleonning o‘zi qo‘mondonlik qilgan fransuz armiyasi prussiyaliklarni tor-mor qildi. Angliya va Rossiya bilan ittifoqda Fransiyaga

¹ Q a r a n g : Вацелка К. История Австрии. — М.: «Молодая гвардия-Палимпсест», 2007. — С. 158.

qarshi urushga kirishgan Prussiya armiyasi Fridrix II davridagidan ancha kuchsiz, unda faqat tashqi ko'rinish qolgan edi, xolos. Bu «hashamat»ni vayron qilish uchun Napoleonaga bir kun yetarli bo'ldi. «Napoleon «puf» degandi, Prussiya yo'q bo'lib ketdi», deb yozgandi Genrix Geyne. Yena jangi Prussiya harbiy tarixidagi eng sharmandali voqeа bo'ldi¹.

Austerlis va Yena kampaniyalari so'zsiz Napoleonning juda katta harbiy iste'dodidan dalolat beradi va Y.V. Tarlening fikricha, uning «jahon tarixidagi eng buyuk harbiy daholardan» ekanini isbotlaydi.

Yena yonida va Auershtedtda 1806-yil 14-oktabrida bo'lib o'tgan janglarda fransuz marshallari Ney va Ojero korpuslari va Myurat kavaleriyasi tomonidan pruss armiyasi yo'q qilindi. Prussiya fransuz qo'shinlari tomonidan ishg'ol qilindi. Oradan 13 kun o'tib, Napoleon Prussiyaning poytaxti Berlin shahriga g'olibona kirib keldi va burgomistrdan shahar kalitini tantanali qabul qilib oldi. Bu shaharda u 1806-yil 21-noyabr kuni Fransiyaga tobe bo'lgan barcha davlatlarga Angliya bilan savdo qilishni taqiqlovchi, qit'a qamali deb atalmish siyosatini e'lon qildi. Bu hujjat Fransiyani aslida amalga oshirishga qurbi yetmaydigan ishga — Yevropa va jahonda hukmronlik uchun kurash domiga tashladi. Busiz boshqa davatlarni Angliya bilan savdoni to'xtatishga majbur qilishning iloji yo'q edi. Hatto fransuz hukumatining o'zi ham ingлиз matosini yashirinchcha sotib olar edi. 1807-yilning fevralida Napoleon Preysish-Eylau yonidagi jangda rus qo'shinlarini ham yo'q qilmoqchi edi, ammo buning uddasidan chiqolmadi. Shunga qaramasdan, Eylau jangida 30 ming rus askarlari o'ldirildi, fransiyaliklar esa 10 ming kishidan ajraldi.

¹ Qarang: История Франции в трёх томах. — М.: «Наука», 1971. Т. 2. — С. 130.

Hal qiluvchi jang 1807-yil 14-iyunda Sharqiy Prus-siyadagi Fridland qasri atrofida yuž berdi. Jangda ruslar 25 ming kishidan va 80 ta artilleriya qurollaridan ajraldi. Fransuzlar Kenigsberg (hozirgi Kaliningrad) shahriga kиrib keldilar.

Tilzit shahrining (hozirgi Kaliningrad viloyatidagi Sovetsk shahri) ro‘parasida, Memel daryosining o‘rtasida katta sol turibdi. Soldagi xodalar va ustunlar gilam bilan bezatilgan, solning o‘rtasida iyun quyoshi ostida chiroyli chodir o‘rnatilgan va uning ustida Fransiya va Rossiya bayroqlari hilpiraydi. Daryoning har ikkala qirg‘oqlarida G‘arb va Sharqning gvardiyachilari to‘da-to‘da bo‘lib turardilar. 10 kun avval bir-birlariga o‘t ochishgan gvardiyachilar endi yonma-yon turib «Ura!» deya qichqiradilar. Shunday quvonch va hayqiriqlar ostida imperator Napoleon va Rus podshosi Aleksandr I yarash bitimi tuzdilar.

Tilzit sulhi (1807-yil 7-iyul) natijasida to‘rtinchı ittifoq ham barham topdi. Angliya koalitsiyaga Fransiyaga qarshi navbatdagı qurol sifatidagina qaragan edi. Aleksandr I (1777–1825) Angliyaning bu pisandsizligini kechirmadi. Endi Napoleon I bilan Aleksandr I ni Angliyaga qarshi umumiyl dushmanlik birlashtirib turardi. Ular birinchi marta 25-iyun kuni uchrashdilar. Keyin esa Tilzitda tez-tez uchrashib, Yevropani o‘zaro bo‘lib olish rejasini tuzdilar. Napoleon Shvetsiyaga qarashli Finlyandiya yerlarini va Turkiyaga qarashli Moldova va Valaxiya knyazliklarini Ros-siyaga qo‘sib berishni va’da qildi. Rossiya imperatori, o‘z navbatida, Fransiya Yevropada bosib olgan hamma yerlarni va Napoleon tuzgan barcha qirolliklarni tan oldi. Shart-nomaning maxfiy bandiga binoan, Rossiya Angliyaga qarshi qamal shartlarini qat’iy bajarish, o‘ziga qarashli bandar-gohlarni ingliz kemalari uchun batamom yopishni ham

o‘z zimmasiga oldi. Shu tariqa, Aleksandr I o‘zining kechagi ittifoqchisi bo‘lmish Angliyadan voz kechdi.

Prussiyani Napoleon dahshatli tarzda jazoladi. Undan Polsha yerlari tortib olinib, Varshava buyuk gersogligi tashkil qilindi, G‘arbiy Prussiya va bir qator nemis knyazliklari qo‘silib, Vestfal vassal qirolligi tashkil qilindi va Napoleonning ukasi Jerom Bonapart (1784–1860) qiroq qilib tayinlandi. Prussiya Fransiyaga 100 million frank kontributsiya ham to‘laydigan bo‘ldi.

Shunday qilib, Italiya, Germaniya, Avstriya, Prussiya va Polsha butunlay Napoleon hukmronligi ostida qoldi. U rus imperatori bilan birga dunyo ustidan hukmronlikni bo‘lishib olmoqchi edi. Ammo tez orada Napoleon yakka hukmronlikni istab qoldi.

Tilzit uchrashuvidan keyin Napoleon sharoitni xolis baholashdan tobora uzoqlashib bordi. Fransuz tarixchilarining yozishicha, Tilzit uchrashuvi Napoleonni ilojsiz narsaga ishontirdi, uni amalga oshirishga chorladi va shu bilan uning halokatini boshlab berdi.¹

Endi u o‘z rejasini amalga oshira boshlaydi. Bu rejaga ko‘ra Yevropani bitta imperator boshqarishi, qirollar esa uning vassallari bo‘lishi kerak. O‘z yo‘lboshchisini ulkan tantanalar bilan kutib olgan Parij qit‘aning poytaxtiga aylanadi.

Parijda o‘tgan bir necha oy ichida u bir qancha qiroliklarni yaratdi: ukasi Jozef qiroq bo‘ldi, Bavariya va Vurtemberg kurfurstlari qirollarga aylandilar, Baden kurfursti buyuk gersogga aylandi. Bavariya qirolining qizlaridan biri ukasi Ejenga turmushga chiqdi, Badenning valiahd shahzodasi Napoleonning singillaridan biriga uylandi, Vurtemberg knyazining qizlaridan biri imperatorning kichik ukasi uchun atab qo‘yildi, Janubiy va G‘arbiy Germaniyaning o‘n oltita davlati imperator vassallarining Reyn

¹ Qarang: История XX века. Под ред. Лависса и Рамбо. — М.: «ОГИЗ», 1938. Т.1. — С. 144.

ittifoqiga birlashdilar. Ular Bonapartga o'lpox to'lab turardi va kerak bo'lganda qo'shin yig'ib berardilar, o'ntacha kichik knyazliklar tugatildi.

Napoleon o'z rejalar bilan band bo'lgan bir paytda choperlar unga arzimasdek ko'ringan bir xabarni olib keldilar: singlisi Karolina u bilan tanishtirgan Eleonora ismli go'zal ayol farzand tug'ibdi. Nihoyat! Demak, uning bepushtligi haqidagi gaplar yolg'on bo'lib chiqdi. Unga taqdir buyuk hadya ato etdi: u o'g'illik bo'ldi! Va yaqinlari dan biriga murojaat qilar ekan, imperator bolalarcha quvonch bilan: «Dyurok, mening o'g'lim bor!» — deya xitob qiladi. O'g'liga Leon deya ism qo'yadilar.

Shu kuni Jozefining taqdiri ham hal qilindi. Napoleon qayta uylanishga qaror qildi.

Napoleon Polshaga kelganda uni Mariya Valevskaya ismli go'zal ayol bilan ham tanishtiradilar. Valevskaya 80 yoshdan oshgan graf Valevskiyning rafiqasi edi. Napoleon bilan tanishganidan so'ng u ham o'g'illi bo'ladi. Unga Aleksandr Napoleon deya ism qo'yadilar.

1809-yilning boshlarida Napoleonga Rim uni hurmat qilmaganligi haqida fikr kelib qoldi: «O'tgan yili boshqa davlat boshliqlariga yuborilgan muqaddas shamlardan bizga yubormaslikka Rimning jur'ati yetdi. Rimga yozib yuboringlarki, bizga ham, bizning qardoshlarimiz bo'lgan uchta qirolga ham ularning shamlari kerak emas. Undan sham olishni istamayman va mening yaqinlarim bo'lgan barcha shahzodalar ham shamlardan voz kechishlari lozim». Endi u Papani knyazlik huquqidan mahrum qiladi, uning mulklarini cheklab qo'yadi.

Uning yaqinlaridan ba'zi birlari vahimaga tushib qoldilar: u qudratli katolik diniga qarshi chiqmayaptimi? Axir shakkoklik uchun jazo muqarrar-ku! Tasodifni

qarangki, oradan besh kun o'tganidan keyin, Muqaddas Uchlik kunida Napoleon hayotida birinchi marta mag'lubiyatga uchradi.

Buning ustiga Rimdan ham noxush bir xabar keladi: Papa Napoleonni cherkovdan ajratdi. Imperator miyig'ida kulib qo'ydi, xolos.

Oktabrda Napoleon Shenbrunnda qo'shinlarning katta namoyishini qabul qiladi. Kutilmaganda uning yoniga bir o'smir yaqinlashmoqchi bo'ladi, uning harakatlari shubha uyg'otadi va uni qo'lga oladilar: uning yonidan kattakon oshxona pichog'i va yosh qizning suratini topadilar. U bosh-qalarning savollariga javob berishdan bosh tortadi: faqat imperatorning o'zigagina javob berishini aytadi. Tezda o'n sakkiz yoshlardagi jiddiy, sariq sochli yigitcha imperator oldida erkin, qo'rmasdan va xotirjam turardi. Uning ismi-sharifi Fridrix Shtaps bo'lib, protestant ruhoniysining o'g'li ekan. Imperator savolni fransuz tilida beradi. Rapp tarjima qiladi.

- Ha, men sizni o'ldirmoqchi edim.
- Nima uchun?
- Chunki siz mening mamlakatimga zarar yetkazyapsiz.
- Shaxsan sizgami?
- Barcha nemislar qatori menga ham!

Imperator sarosimaga tushadi, lekin o'zini qo'lga oladi, so'roqni qaytadan boshlaydi, uning bunday jasur va ochiq nigohli o'smirni qatl ettirgisi kelmayotgandi. Bu o'smir biron bir partiyaning a'zosi emas, fitnachilardan ham emas, hukmdor undaylarni o'ylab ham o'tirmsandan yo'q qiladi.

— Siz hammasini oshirib gapirayapsiz va faqat o'z oilangizga musibat keltirayapsiz. Menden kechirim so'rang va pushaymon ekanligingizni aying: shunda men hayotingizni saqlab qolaman.

Napoleon hech qachon, hech kimga, ayniqsa, qotilga bunday gapirmagandi. Ammo yigit tosh qotgandek indamay turardi.

— Menga shafqatingiz kerak emas! Men hech narsadan pushaymon emasman, faqat maqsadimga erishmaganim-dan afsusdaman.

Endi imperator qizisha boshladi:

— Ming la’nat! Jinoyat sizga arzimas narsa ekan-da?
— Sizni o’ldirish — jinoyat emas, sharaflı ish! — deydi yigitcha hurmat, hatto ehtirom bilan.

— Hm... Bu kimning surati?

— Men sevgan qizning.

— U sizning bu qilmishingizni ma’qullaydimi?

— U bu ishni amalga oshira olmaganimga afsuslanadi, chunki sizni xuddi men kabi yomon ko’radi.

«Ajoyib bola, — o’ylaydi imperator portretga tikilib. — Aslida bu yigitcha menga nima yomonlik qila olardi? Yo‘q, men uni qutqarib qolaman, kechiraman, mayli meni yomon ko’raversin, menga nima». U portretni qo’lida ushlab turib, yigitchaning yuzlariga tikiladi.

— Agar men sizni afv etsam, bu ishim qizni quvon-tiradimi?

O’smirning ko’m-ko’k ko’zları kengayadi va u qat’iy bayon qiladi:

— Men sizni baribir o’ldiraman!

O’sha tongdayoq yigitchani otib tashladilar.

Napoleon Shenbrunndan qaytib kelishi bilanoq Joze-finaga unga o’g’il kerakligini, o’g’il-bo’lganda ham qirollar naslidan bo’lgan o’g’il kerakligini aytib, u bilan ajrashadi va oradan ko’p o’tmasdan Avstriya imperatorining qizi Mariya Luizaga uylanadi. Bir yil o’tar-o’tmas ular o’g’illik bo’ladilar...

1812-yilning boshlarida Napoleon Bonapart endi unga hech kim, ayniqsa, u ishonadigan va suyanadigan dehqonlar ham ishonmay qo’yanlarini his qiladi. U mamlakat ichkarisida tobora kuchayib borayotgan norozilikni sezib turar va buning oqibati yaxshilik bilan tugamasligini anglardi. Ammo imperator to’laligicha o’z qudratining asiriga

aylangan, oldinda faqat o‘z hayotining asosiy maqsadini-gina ko‘rardi. Kapuadan Tilzitgacha butun Yevropa unga askar yetkazib berib turgan bo‘lsa ham, uning hukmronligi Finisterrdan Bukovinagacha tarqalgan bo‘lsa ham, u o‘zi-ning navbatdagi rejasi — Rossiyaga yurish qilishning oqibati yaxshi bo‘lmasligini his qilardi. Ammo yurgizilgan mashina endi o‘z-o‘zidan olg‘a intilar, uni hech kim to‘xtata ol-masdi.

Napoleonning Aleksandr I bilan Tilzitda tuzilgan shart-nomasidan keyin Erfurtdagi uchrashuvda mustahkamlangan ittifoqi uzoqqa bormadi va ikkala imperator o‘rtasida keskin ajralish bilan yakunlandi. Bu ajralishning bosh sabablari quyidagilar edi: birinchisi, 1809-yili Fransiya bilan Avstriya o‘rtasidagi urushda Rossiyaning o‘z ittifoqchilik majbu-riyatlarini to‘liq bajarmaganligi va Napoleonga yetarlicha yordam ko‘rsatmaganligi; ikkinchisi — Napoleonning rus buyuk knyazxonimlaridan biri Annaga uylanish rejasining amalga oshmay qolganligi bo‘ldi.¹ Bu ishda Aleksandrning roziligiga qaramasdan, imperatorning onasi Mariya Fe-dorovna va Fransiya tashqi ishlar vaziri Sharl Moris Taley-ran (1754—1838) zimdan qarshilik qilishgandi; uchinchi sabab — qit‘a qamalining Rossiya uchun salbiy oqibatlari, ya’ni Buyuk Britaniya bilan savdo aloqalarining uzilganli-gidan Rossiya katta zarar ko‘rayotgan va qiyin ahvolga tushib qolgan edi. Buning ustiga Buyuk Britaniya bilan savdo alo-qalarini tiklash tarafдорлари bo‘lgan doiralarning impera-tor Aleksandr I ga ta’siri ham kuchli edi; to‘rtinchidan, Napoleon imperiyasining muttasil kengayib borayotganligi Aleksandrni tashvishga sola boshlagan edi; beshinchidan,

¹ Shundan so‘ng Napoleon Avstriya imperatorining qizi Mariya Luizaga uylanadi. Avstriya imperatori o‘zining 18 yoshli qizi bilan Napoleon o‘rtasidagi nikohga rozilik berar ekan, bu nikoh Avstriya imperiyasini va Gabsburglar xonardonini muqarrar halokatdan saqlab qoladi deb umid bog‘lagan edi.

1810-yilda Gollandiya qirolligining, Vallisning, 1811-yilda Oldenburg gersogligining, Salm va Orenburg knyazliklaring, Berg buyuk gersogligining va Gannoverning bir qismi Fransiyaga qo'shib olindi deb e'lon qilinishi rus imperatorining qattiq noroziligin keltirib chiqardi; oltinchidan, ikkala imperiya o'tasida janjal chiqishi uchun eng muhim sabab Polsha masalasi edi. Napoleon tomonidan tiklangan Varshava gersogligi aslida Polshaning barcha hududini egallagan va Rossiya chegaralari bilan tutashib turgan edi. Ana shu va boshqa bir qator mayda sabablarning mavjudligi Fransiya bilan Rossiya o'tasida urushning kelib chiqishini muqarrar qilib qo'ydi.

Shu sabablarga ko'ra, Kenigsberg bilan Lombergning o'tasida yarim millionli armiya to'plandi va uning bosh qo'mondoni «Ikkinchi Polsha urushi» boshlanganligini e'lon qildi, chunki u rus podshosidan faqat Polshani – to'g'ri, biroz kengaytirilgan hajmda, ya'ni Smolenskkacha tortib olmoqchi edi.

Urush boshlashdan oldin Napoleon Prussiya va Avstriya bilan, Aleksandr esa Shvetsiya, Angliya va Turkiya bilan hamkorlik to'g'risida kelishib, bitim imzoladilar.

1812-yil 9-may kuni Napoleon rafiqasi bilan Parijdan chiqib, 17-may kuni Drezdenga keladi. Bu yerda uni Buyuk Karlning vorisi sifatida katta tantana bilan kutib olishadi. Napoleon so'nggi bor butun mahobati bilan namoyon bo'ldi. 30-may kuni Napoleon Polshaga kelib, u yerda Rossiyaga yurish boshlashdan oldin o'z armiyasini ko'zdan kechirdi. Armiya juda qudratli edi: unda fransuzlardan tashqari nemislar, italiyaliklar, ispanlar, polyaklar va boshqa xalqlardan iborat jami 11 ta korpus, imperator gvardiyasi va zaxiradagi kavaleriya korpusi mavjud bo'lib, 1812-yil 1-iyunda Germaniya va Polshada joylashgan, Rossiyaga yurish uchun tayyor turgan kuchlar 678 ming kishidan iborat edi. Bularidan tashqari, Napoleon G'arbiy Yevropada ham

kattagina qo'shinga ega bo'lib, armiyasining umumiyligi soni 1 mln.178 ming kishini tashkil qilardi.

1812-yil 23-iyun kuni Buyuk qo'shin Rossiyaning o'sha paytdagi chegarasi bo'lgan Neman daryosidan o'tdi. Napoleon 400 ming dan oshiq qo'shin bilan Rossiyaga yurishni boshlaydi. Unga qarshi turgan rus qo'shinlarining soni 267 ming kishidan iborat edi.

1812-yil 23-iyul kuni Mogilev (Belarussiya) ostonalarda janglar boshlanib, ruslarning chekinishi Moskvaga cha davom etadi. Urushning eng katta janglari Smolensk ostonalaridagi (17—18 avgust) va Borodino janglari bo'ldi (7 sentabr). Borodinoda fransuzlar 40 ming, ruslar esa 45 mingga yaqin askarlaridan ajraldi. Halok bo'lganlar orasida rus qo'mondoni Bagration ham bor edi.

Borodino jangi haqida Napoleon: «Mening barcha janglarim ichida eng dahshatlisi Moskva ostonasidagisi bo'ldi. Bu jangda fransuzlar g'olib bo'lishga loyiq ekanliklarini ko'rsatdilar, ruslar esa mag'lub bo'lmashlikka haqli ekanliklarini namoyish etdilar», — deb yozgan edi.

Shu jangdan keyin rus armiyasining qo'mondoni Kutuzov chekinishni davom ettirib, 13-sentabr kuni Moskvani ham jangsiz tashlab chiqdi. 14-sentabr kuni Napoleon Moskvaga kirib keldi. Rus podsholarining poytaxti bo'lgan Moskva faqat Kreml va uning atrofini hisobga olmaganda, asosan, yog'och uylardan iborat edi. Napoleon bosqini arafasida bu shaharda 250 mingdan oshiqroq aholi yashardi. Yog'ochdan qurilgan imoratlar 16—19-sentabr kunlari bo'lgan yong'inda deyarli to'liq yonib ketdi. Bu yong'inda ko'plab odamlar, jumladan, Borodino jangida yarador bo'lgan va gospitallarda davolanayotgan 15 ming rus soldatlari ham yonib ketdi. Shundan so'ng Napoleon armiyasida ham tartib yo'qolib, soldatlar talonchilik bilan yoppasiga shu-

g'ullana boshladi. Armiyada jangovar ruh yo'qoldi. Endi katta g'alabasiz Moskvani tashlab ketish Napoleonning siyosiy obro'siga ham putur yetkazardi. Shunga qaramasdan, ahvolining yomonlashayotganligini sezgan Napoleon 19-oktabr kuni Moskvani tark etdi. Buyuk armiyaning chekinishi Rossiyaga kirib kelishiga qaraganda ancha murakkab kechdi. Har qadamda rus armiyasi poylab turar, kazaklar va partizanlar holdan toygan, sovuqdan qirilayotgan fransuz qo'shinlariga dahshat solib, ularning jangovar ruhini so'ndirardi. Bir qancha janglar va tabiiy qiyinchiliklar tufayli katta talafot ko'rgan Napoleon armiyasi 1812-yil dekabr oyida Neman daryosidan g'arbga qarab o'tdi. Ammo yo'qotish shunchalar katta ediki, Buyuk armiyadan asar ham qolmagandi. 1812-yil iyunida Rossiya chegaralariga 420 ming kishi o'tgan va keyin yana 150 mingga yaqin askar Rossiya hududida ularni quvib yetgan bo'lib, qo'shining umumiy soni 570 mingga yaqin kishi edi. 1812-yil dekabrdagi bor yo'g'i 18 ming kishi Nemandan ortga qaytib o'tdi. Faqat o'lganlar soni 250 ming kishidan oshiq edi. Buyuk armiya bunday yo'qotishdan so'ng boshqa o'zini o'nglay olmadi. Kechagina Yevropaning barcha tillarida «Yashasin imperator!», deb qichqirishni o'r-gangan, imperator uchun joni-ni tikkan yuz minglab odamlarning jasadlari rus tekisliklarida qolib ketdi. Yevropada Napoleonning obro'si ham shunchalar tu-shib ketdiki, endi Aleksandr Napoleonni xaloskor deb olqishlagan ko'plab xalqlarni birin-ke-tin unga qarshi urushga boshladi. Bu oxir-oqibatda imperiyaning halokatiga olib keldi.



Neman qirg'oqlarida qo'shinni qoldirgan Napoleon Parija kelishi bilan yangi qo'shin tuzishga kirishib ketdi. Sharqda esa Buyuk armiyaning qoldiqlari chekinishni davom ettirardi. Endi Fransiyaga qarshi Rossiya, Angliya, Prussiya, Avstriya, Shvetsiya, Ispaniya va Portugaliyadan iborat kuchli harbiy koalitsiya vujudga kelgandi. Napoleon yulduzining so'nayotganligini ko'rgan nemis knyazliklari va boshqa mayda davlatlarda ham endi kayfiyat yaxshi emasdi. Hatto Fransiyaning o'zida ham to'xtovsiz harbiy chaqiriqlar, doimiy urushlardan aholi charchagandi. Buyuk armiyaning Rossiyadagi halokatidan so'ng Germaniya, Prussiya kabi mamlakatlarda Napoleonga qarshi ozodlik harakatlari boshlanib ketdi.

1813-yil harbiy chaqiriq bo'yicha Napoleon jami 500 ming qo'shin toplashga muvaffaq bo'ldi. Ammo yangi armiyaning ko'pchiligi juda yosh, tajribasiz jangchilar edi. Lashkarni qurollantirishga jamoa yerlarini sotishdan olin-gan 300 million frankdan tashqari Napoleon o'zining shaxsiy jamg'armasi – 160 million frankni ham sarfladi. U o'ziga xos jasorat va samimiylilik bilan qo'shinni aylanar ekan, hammaning qalbini larzaga keltiradigan nutqlar so'zlardi. Hali zo'rg'a miltiq ko'tara oladigan o'smirlar esa «Yashasin imperator!» deb qichqirishar, Fransiya va imperator uchun jonlarini tikishar edi. Aytish lozimki, Rossiyadagi katta talafot, Yevropadagi umumiy dushmanlik kayfiyatiga qaramasdan, Napoleon jangovar ruhga va qahramonlik xususiyatlariga ega bo'lgan yangi armiyanı tuza oldi. Ammo baribir bu janglarda toblangan Buyuk armiya emasdi.

Shunga qaramasdan, Napoleon uning bitta buyrug'i bilan yuz minglab odamlarning jangga otlanganidan ruhlanib, o'zini yana yengilmas his etdi. Aslida 1813-yilda hali sulh tuzish, urushni to'xtatish imkoniyati bor edi. Ittifoqchilar qo'yan talabga binoan, Napoleon butun Fransiyani Reyngacha va Italiyani o'zida saqlab qolardi. Rossiyada ham urushni Visla qirg'oqlarida to'xtatish tarafдорлари anchagini

edi. Hatto Kutuzov ham armiyaning holdan toyganligini aytib, urushni to'xtatish lozimligini Aleksandr I ga uqtirayotgan edi. Ammo Napoleon yon bermasdi. Unda sharoitni real baholashdan ko'ra mag'rurlik va o'ch olish hissi ustunlik qildi.

Urushning dastlabki davrida — yozgi kampaniyada fransuzlar bir nechta g'alabalarni qo'lga kiritdi. Lutsen va Bautsen janglaridagi g'alaba yangi fransuz armiyasiga shonshuhrat keltirdi. Ittifoqchi davlatlar bilan Fransiya Pragada muzokaralar boshlashga kelishib oldilar (Praga kongressi). Ammo qo'yilayotgan talablarning ikkala tomonni ham qanoatlantirmasligi tufayli bu kongress deyarli ochilmasdan tarqalib ketdi. Tomonlar qisqa tanaffusdan so'ng yana janga kirishdilar.

Kuzgi kampaniyada Yevropa davlatlari Napoleonga qarshi 1 milliondan oshiq qo'shin tashlashdi. Asosiy jang Leypsig tekisliklarida bo'lib o'tdi. Bu yerda yangi armiyaning, Napoleonning va u bunyod etgan imperiyaning taqdiri hal bo'ldi. Bu yerda Saksoniya qiroli, 15 nafar fransuz generali va yana 15 ming kishi ittifoqchi qo'shinchalar tomonidan asir olindi. Umumiylar qurban bo'lganlar 130 ming kishi bo'lib, shundan 50 mingi fransuzlar edi. Leypsig jangidan keyin Napoleonning biron ta ham ittifoqchisi qolmadi. 1813-yilning oxiriga kelib Fransiyadan boshqa hech joyda endi fransuz bayrog'i hilpiramasdi: Gollandiya o'zini mustaqil deb e'lon qildi; Italiyada Myurat ittifoqchilar bilan kelishgan holda harakat qila boshladidi. U ittifoqchilar yordamida Italiya taxtini egallamoqchi edi. Bundan tashqari, Reyn ittifoqi barham topdi, Germaniyadagi fransuz va yarimfransuz davlatlar bekor qilindi. (Saksoniya va Vestfaliya qirolliklari), janubi-g'arbiy nemis davlatlari ham Fransiya ta'siridan chiqdi.

Fransiya hududidagi bir qator janglardan so'ng 1814-yil 31-mart kuni ittifoqchilar qo'shinlari Parijga kirib keldilar. Kelgusi kuni Taleyran Senatni to'playdi va bu qonun chiqaruvchi organ qaror qabul qiladi: imperator taxtdan voz kechishi kerak. Napoleonning eng birinchi jangovar safdoshi marshal Marmon va imperatorning eng birinchi vaziri Taleyran dushman tomonning qo'mondoni Shvartsenbergga yozadilar: «Senatning qaroriga ko'ra armiya va xalq Napoleonga bergen qasamyodidan ozod qilindi. Biz fuqarolar urushiga yo'l qo'ymaslik maqsadida xalq bilan armiya yaqinlashishiga ko'maklashish uchun tayyormiz».

Anchagina davom etgan muzokaralardan so'ng Napoleon 6-aprel kuni taxtdan voz kechganlik haqidagi bayonotga imzo chekdi: «Ittifoqchi davlatlar Napoleon Yevropada tinchlik o'rnatilishiga yagona to'siq deb hisoblaganliklari sababli, qasamyodiga sodiq bo'lgan imperator Napoleon o'zi va o'z avlodlari uchun Fransiya va Italiya taxtlaridan voz kechadi hamda Fransiya manfaatlari uchun hamma narsadan, shu jumladan, hayotidan ham voz kechishga tayyor ekanligini bildiradi».

U eski gvardiya bilan xayrashib, 20-aprel kuni Italiya qirg'oqlari yaqinidagi Elba oroliga faxriy surgunga jo'nab ketdi. Xotini Mariya-Luiza esa o'g'lini olib Vena tomon, otasi – Avstriya imperatorining saroyiga yo'l oldi.

Bu orada yangi hukumat imperatorning mol-mulklarini musodara etish uchun ishonchli vakillarini yuboradi. Shaxsan imperatorga tegishli bo'lgan barcha oltinlar va kumushlar, umumiyligi 150 million frank bo'lgan barcha qimmatbaho buyumlar, oltin tamakidondan dastro'molgacha bo'lgan barcha shaxsiy ashyolar musodara qilindi, to'g'rirog'i o'g'irlandi. Bu haqdagi buyruqqa boshqalar bilan birga Taleyran ham imzo chekkandi. Kechagina Yevropaning eng boy kishisi bo'lgan imperatororda, u surgun qilingan Elba oroliga o'zi bilan olib ketgan uch million frank mablag' qoladi.

Fransuz tarixchilari yozishlaricha, Napoleon Elba orolida taqdirga tan berib yashayotgan edi. Ammo bir nechta sabablar

uni Fransiyaga qaytish haqida qaror qabul qilishga majbur qildi. Bu sabablardan biri, Fontanebloda Napoleonning taxtdan voz kechishi haqida kelishuv shartlarining bajarilmaganligi bo'ldi. Napoleonning xotini bilan o'g'li uning oldiga Elba oroliga jo'natalishi kerak edi. Ular esa Metternixning¹ maslahatiga ko'ra Venada qoldirildi; ikkinchidan, Napoleonning Elba orolida hayot kechirishi uchun yiliga ikki million frank to'lanishi lozim edi. Bu ham bajarilmadi; uchinchidan, Restavratsiya davridagi Fransiyaning achinarli ahvoli bu yerga Napoleonni chorlayotgan edi.

Eski gvardiya va Korsika batalonidan tashkil topgan 1100 kishilik qo'shin bilan 26-fevral kuni Elba orolidan chiqqan Napoleon 1-mart kuni Fransiya janubidagi Juan bandargohiga kelib tushdi va Parij tomon yo'l oldi. «Har bir daqiqa g'animat. Uchish kerak, uchish», — derdi Napoleon.

Ludovik XVII «Korsika maxluqi»ga qarshi 30 ming qo'shin yubordi. Qarshisida turgan hukumat qo'shinlarini ko'r-gan Napoleon ularga murojaat qilib: «Askarlar, sizlar meni taniyapsizlarmi? Qaysi biringiz o'z imperatoringizga o'q uzishni istaysiz? Men o'qlaringizga turib beraman», deganida qiroq qo'shinnari «Yashasin Imperator!» deya qichqirishib, to'liq Napoleon tomonga o'tdilar. Poytaxtgä boradigan yo'ldagi askarlar ham u tarasga o'tdilar. Askarlar, dehqonlar va shaharlik qashshoqlar uni «Yo'qolsin zodagonlar va popular» degan xitoblar bilan kutib oldilar. Imperator armiyasi Parijga kirdi, askarlar Napoleonni qo'llarida ko'tarib Tuilri saroyiga olib kirdilar. Shu kuni, ya'ni 20-martda saroy uzra yana inqilob va imperiya bayrog'i hilpiradi.

Napoleon Tuilri saroyiga kirib kelganida, o'zi o'tib kelgan uchta departamentdagina tan olingan edi. Ammo uning zafar bilan kirib kelgani haqidagi xabar tezda butun Fransiya bo'ylab tarqaldi. Hamma joyda oq bayroq o'rniga yana inqilobning uch rangli bayrog'i ko'tarildi. Armiya generallari ham Napoleonning hokimiyatini tan oldilar.

¹ Metternix — Vinneburg, Klimens Vensel Lotar (1773–1859) — knyaz, Avstriya davlat arbobi, diplomat.

Napoleon ijtimoiy fikrni o‘z foydasiga hal etish uchun juda ehtiyyotlik bilan ish tutdi. U Burbonlar tomonidan tayinlangan amaldorlarni ham ishdan bo‘shatmadi. Shunga qaramasdan, amaldorlarning katta qismi imperatorga qarshi dushmanlik kayfiyatida edi. Ular Fransiyaning hozirgi achinarli holati uchun Napoleonni, uning zolimligini ayblashardi. Imperatorni olqishlar bilan kutib olgan Fransiya tezda yangi urushlar xavfidan xavotirga tusha boshladi. Natijada, mamlakatni boshqarishda va armiyani mustah-kamlashda muammolar paydo bo‘ldi.

Bularni hisobga olgan Napoleon faylasuf Benjamin Konstanga (1767—1830) Imperiya konstitutsiyasini liberallashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishni topshirdi. B. Konstan konstitutsiyasi jamiyatning ruhiy holatiga mos kelardi, ammo ko‘pchilik zodagonlar Napoleonning konsitutsion monarxga aylanishiga ishonishmasdi.

Shunday ichki vaziyatda Fransiya butun birlashgan Yevropaga qarshi urushga tayyorlana boshladi. Janglar boshlanishi arafasida Napoleon imperiyasi oxirgi qo‘sining umumiyligi soni 275 ming askardan iborat edi. Ittifoqchilar Napoleonga qarshi 1 milliondan oshiq qo‘sish yig‘ishdi. Asosiy jang Waterloo yonida yuz berdi. Bu yerda Napoleon armiyasi tor-mor qilindi. Fransuzlar 32 ming, ittifoqchilar esa 22 ming askardan ajraldilar.

Vaterloodagi mag‘lubiyat Napoleon Bonapartning taqdirini uzil-kesil hal qildi.

Vaterloo Napoleon taqdiridagi eng mash’um fojia edi. Hukumat mahkamasi va deputatlar yig‘ini uning taxtdan voz kechishini talab qildilar. Napoleon ikkinchi marta taxtdan voz kechdi.

Mana imperator yana yo‘lga chiqishga, Parijni tark etishga majbur. Oxirgi daqiqalarda u sokin, xotirjam kayfiyatda onasi bilan yolg‘iz suhabatlashadi.

Keyin Napoleon yaqinlaridan biriga uning quyidagi so‘zlarini yozishni buyuradi: «Qirol Janobi Oliylari! Men o‘zimning siyosiy faoliyatimni yakunladim va Femistokl singari britan xalqining mamlakatida boshpana topishga umid

qilaman. Men o'zimni Sizning qonunlaringiz himoyasiga topshiraman va Siz qirol Janobi Oliylaridan, raqiblarimning eng qudratlisi, barqarori va oliyjanobi sifatida meni himoya qilishingizni so'rayman. Napoleon»¹. Sakkiz qator, ehtirom bilan yozilgan murojaatda manmanlik yoki iltijodan asar ham yo'q. Ertasi kuni bu xatni Angliyaning «Bellerafont» kemasiga kapitaniga topshirdilar va Napoleon o'z mundirini kiyib shu kemaning sahniga ko'tarildi.

Kema Plimutda langar tashladi va Napoleon uch kun inglizlarning qarorini kutdi. To'rtinchi kuni imperatorning bo'lmasiga ingliz zabitlari kirib keldi va regent shahzodaning emas, Angliya hukumatining qarori bitilgan qog'ozni berdi. Unda quyidagilar yozilgan edi:

«General Bonapartga yana tinchlikni buzishi uchun vosita va imkoniyatlar bermaslik maqsadida uning shaxsiy erkinligini cheklash zarur. Shuning uchun ham u Muqaddas Yelena oroliga yuboriladi. U yerda general Bonapartni sog'-lom iqlim va yolg'izlik kutmoqda. Unga o'zi bilan uchta zabitni, bitta shifokorni va o'n ikkita xizmatkorni olib ketishga ruxsat beriladi»².

«U shon-shuhratda buyuk edi, xo'rlik va haqoratda ham buyuk bo'lib qoldi», deb yozgan edi o'sha davr gazetalaridan biri.

...Qo'llarini beliga qo'ygan bir odam cho'qqida dengizga tikilib turibdi. U yolg'iz. Semiz va past bo'yli bu odam — Napoleon. Uning boshi katta, ko'rinishi salobatli, yelkalari kuchli, kaltabaqay.

Napoleonning mushaklari qancha kuchli bo'lsa, asablari shuncha zaif edi. Buyruq berishga o'rganib qolgan bu odam sal bo'lsa ham majburlashni eslatuvchi biror so'z yoki harakatni ko'tara olmasdi. Asablari juda toliqqan, u issiq vanna bilan davolanardi.

¹ Душенко К.В. Всемирная история в изречениях и цитатах. — М.: «ЭКСМО», 2008. — С. 332.

² Qarang: Сундерс Э. Сто дней Наполеона. // mili-tera.lib.ru

Napoleonda akashak bo'lib qolish va tutqanoq kasalligi bor edi, degan gap-so'zlar mutlaqo asossiz. Uning hech qanday kasalligi bo'Imaganligini sinfdoshlari ham tasdiqlaganlar, chunki bu kasalliklar bolalikdan boshlanadi. Qirq yoshga yaqinlashganida Napoleon oshqozon kasalligidan azob chekadi, u paytlarda bunday kasalliklarni umumiyl qilib saraton deya atashgan. Kasallik ko'rinishdan irlsiy bo'lgan. Qorin sohasidagi kuchli og'riqlar oxirgi uch yillardagi urushlarning hal qiluvchi damlarida imperatorni safdan chiqarib qo'yardi. Bu og'riqlar bo'Imaganida uni odadagi jasorat va qat'iylik tark etmagan bo'lardi va Napoleonning faoliyati tarixi ham balki boshqacha kechishi mumkin edi.

O'limiga uch hafta qolganida, aprelning o'rtalarida Napoleon Bonapart vasiyatnomasi yozadi. Bu vasiyatnomada u o'ziga yaqin deb hisoblagan kishilarni, hatto xizmatkorlarni ham unutmadi. Mol-mulkining asosiy qismini o'g'liga qoldiradi. «Men ingliz hukmron doiralari va ularning yollan-ma qotillari qo'lida bevaqt o'layapman... Mening xokim o'zim benihoya sevgan fransuz xalqi orasida, Sena sohilla-rida dafn etilishini istayman!», — deb yozadi u vasiyatnomasida.

Imperator Napoleon Bonapart 1821-yil 5-may kuni Muqaddas Yelena orolida vafot etadi va shu yerga dafn etiladi. Keyinchalik, 1840-yilda uning xoki Parijga ko'chiriladi.

Uning o'limi sabablari uzoq vaqt bahslarga sabab bo'ldi. 1995-yilda AQSH ning laboratoriyalardan birida Napoleonning soch qoldiqlari tahlil qilinib, u marginush bilan zaharlangan degan xulosaga keldilar. Napoleon Bonapart qay tarzda o'lim topganidan qat'i nazar, Yangi Yevropaning qurilishiga katta hissa qo'shgan ulkan harbiy iste'dod va katta iqtidor sohibi, mashhur insonning umri shu tarzda fojiali ravishda o'z intihosiga yetdi. U tarixda Fransiyaning buyuk insonlari qatoridan o'z o'rnini egalladi.

¹ Oster P. Citations francaises. — Paris: Le Robert, 1993, p. 427.

Sharl de Goll



*Fransiya jangni boy berdi,
ammo urushni yutqazgani yo'q.*

Sharl de Goll.

London, 1940-yil 18-iyun.

1890-yilning kech kuzida Parijda dunyoga kelgan Sharlning otasi Anri de Goll iyezuitlarning Pok Zurriyod kollejida¹ falsafa va matematikadan dars berardi. U o'zining uch o'g'lini tez-tez teatrga olib borar va bu bilan farzandlari qalbida vatanparvarlik tuyg'usini mustahkam-lamoqchi bo'lardi. Zero, fransiyaliklar yangi davr — XX asr boshlarida Vatan, Buyuklik va Fransiya mavzulariga bag'oyat ta'sirchan edilar. Agar gap milliy tuyg'ularning oyoqosti qilinishi haqida, Napoleon haqida ketadigan bo'lsa, vatanparvarlik tuyg'ulari jazavali tus olardi. Fransuzlar o'ttiz yildan buyon 1870—1871-yillarda bo'lgan Prussiya bilan janglardagi sharmandali mag'lubiyat alamini, Fransiya bu urushda Elzas va Lotaringiyaning bir qismini yo'qotganligi, besh milliard frank tovon to'lashga majbur bo'lganligini unuta olmasdilar. Bismark aytganidek, Fransiyaga o'z baxtsizligini yoshlari bilan yuvish uchun, ko'zlarigina qoldirilgan edi, xolos...

1870-yilda Parijni qamal qilgan prussiyaliklarga qarshi kurashgan harakatchan gvardiya leytenant Anri de Goll bu jangda yarador bo'lgandi. U farzandlariga Fransiya tarixinining eng shonli lavhalari haqida gapirib berardi. Bolaligidagi eng kuchli taassurotlar haqida oradan ko'p yillar o'tganidan keyin Sharl de Goll shunday yozadi:

¹ *Iyezuitlar kolleji* — katolik-monarxlar tomonidan tashkil qilingan kollej.

«Hech narsa menda — bolaligidan Parijni ko‘rgan o‘smdirda, mamlakatimiz ramzları:» tun og‘ushiga cho‘mgan Parij Momo Havo ibodatxonasi, o‘z kechki ulug‘vorligini ko‘z-ko‘z qilib turgan Versal, quyosh nurlariga chu‘lg‘angan G‘alaba arki, Nogironlar Saroyi uzra hilpirayotgan zafar bayroqlari kabi kuchli taassurot qoldirmagan»¹.

Anri de Goll farzandlariga tarixiy yodgorliklarni ko‘rsatib turar, o‘zining 1870-yilda olgan jangovor medalini qo‘llariga olib, ushlab ko‘rishlariga ruxsat berardi. Axir bu yodgorliklar ham o‘ziga xos ajdodlar shon-sharafi edi-da. Sharl de Goll asrlar davomida qirollarga Fransiyani «yaratish»da yordam berib kelgan o‘z ajdodlari haqida bolaligidayoq bilib olgandi.

Qadimi ajdodlari aslzodalardan bo‘lgan tengdoshlarining kamdan kamigina hali 1210-yildayoq mashhur qirol Filipp-Avgust Rishar de Gollga Elbejedan o‘lponli mulk in’om qilganligi kabi sharafli voqeot bilan maqtana olishi mumkin edi. Ayniqsa, Yuz yillik urush² ishtirokchisi, jasur shevalye³, Orlean hukmdori Jean de Goll Fransiya tarixida sezilarli iz qoldirgandi. 1406-yilda u arbaletchilar⁴ guruhi bilan Sena daryosini suzib o‘tadi va Sharantonga hujum qiladi, 1413-yilda qirol unga gersog Burgundiy qamal qilgan Sen-Deni darvozasini himoya qilishni topshiradi, ikki yildan keyin esa u Arenkur yonidagi mashhur jangda ishtirok etadi. Inglizlar Normandiyanı egallaganlarida Jean de Gollga ingliz qiroliga xizmat qilishni taklif qiladilar. U kollaboratsionist⁵ bo‘lishni istamaydi, o‘z mulkini yo‘qotadi va Bur-

¹ Молчанов Н.Н. Генерал де Голл. — М.: «Алгоритм: ЭКСМО», 1980. — С.7.

² Yuz yillik urush — Angliya bilan Fransiya o‘rtasida 1337—1453-yillari bo‘lgan va to‘liq Fransiya hududida o‘tgan urush.

³ Shevalye — feodal Fransiyada zodagonlar unvoni.

⁴ Arbalet — G‘arbiy Yevropada o‘rtalarda nayza otish quroli, mukammallaştilrilgan kamon.

⁵ Kollaboratsionizm — mag‘lub bo‘lgan tomonning g‘olib tomon bilan hamkorlik qilishi (ko‘pincha xoinlik).

gundiyada joylashadi: Fransiya qiroli sadoqati uchun uni mukofatlaydi va Kyuzeridan mulk beradi...

De Gollarning shajara daraxti yangi shoxchalar hosil qilaveradi va tarix sahifalarida bu urug'ning goh u, goh bu vakili namoyon bo'laveradi.

1886-yilda Anri de Goll o'z xolavachchasi Janna Meyoga uylanadi: shu tarzda de Gollar xonadoniyanan bir marta shimolning sanoat burjuaziyasi bilan yaqinlashadi. 1890-yilning 22-noyabrida bu oilada ikkinchi o'g'il dunyoga keladi. Ular birinchi o'g'illarini Ksavye deb atagan edilar, ikkinchisiga Sharl degan ism qo'ydilar. U Lill shahrining nufuzli mavzesidagi ikki qavatli hashamatli koshonada tug'ildi. Aslida oila Parijda yashardi va faqat de Goll xonim o'z onasining uyida ko'zi yorishini istaganligi uchungina ularning dastlabki ikki o'g'illari Lill shahrida tug'ilganlar.

Ko'pgina tanishlari Sharl de Goll o'z tabiatiga ko'ra onasining o'zginasi deb hisoblashardi: o'sha-o'sha sovuq-qonlik niqobi ostidagi qaynoq hissiyot, o'shandayin bosiqlik va asabiylik aralashib ketgan jo'shqinlik, o'shandayin qiziq-qonlik. U dunyoqarashiga, madaniyatiga, fikrlash usuliga ko'ra xuddi otasining o'zginasi edi. Sharl o'zining qattiq-qo'llik tabiatini juda erta namoyon qildi. Hech kim uni ko'ngilchan deya olmasdi. «Sharl paydo bo'lган joyda, — deyishardi oiladagilar, — tinchlik yo'qoladi».

Onasi maktabdan umid qilardi: 1900-yilda Sharl Vojirar ko'chasidagi iyezuitlar kollejida o'qiy boshladgi. Iyezuitlar kishilarning ongiga hokimiyatning muqaddas tamoyillariga hurmat g'oyalarni singdira olish san'ati va yoshlardan ruhiyatida so'zsiz itoatni tarbiyalay olishlari bilan mashhur edilar. Hazrat ota Bernard ta'limotiga asoslanib, ular yuqorida beriladigan har qanday buyruqqa, hatto bu buyruqlar jirkanch va dahshatli bo'lsa ham, so'zsiz bo'ysunishni talab qilardilar. Buyruqlarni muhokama qilish, ularning adolatli yoki maqsadga muvofiqligini o'ylab ko'rish og'ir gunoh hisoblanardi. Iyezuitlar ordenining asoschisi Ignatiy Loyo-

laning ta'limotiga ko'ra, nasroniy qavm «bosliqning qo'llidagi jasad»dek bo'lishi kerak edi.

Bunga qarama-qarshi bo'lgan g'oyalar va nuqtayi nazar-larning barchasi, tabiiyki, qat'ian rad etilardi. Kollejning o'qituvchilari Reformatsiyani barcha ko'rinishlarida, ayniqsa, XVIII asrni — fransuz ma'rifatchiligi asrini qoralardilar. Russo, Volter, ensiklopedistlar so'zsiz yomonlanardilar. Masalan, Monteskye «Qonunlar ruhi» nomli mashhur asarida ko'r-ko'rona bo'ysunish g'oyasini tubdan qoralagan bo'lsa, qanday qilib uni «yaxshi» deyish mumkin. «Mutlaq itoat, — deya yozgandi bu donishmand, — kim bo'ysunayotgan bo'lsa, o'shaning nodonligini bildirishdan tashqari, kim buyruq berayotgan bo'lsa, uning ham nodonligini bildiradi»¹.

Ammo bularning barchasi go'yoki boshqa bir olamga daxldor bo'lib, Sharl de Gollning maktabda va oilada o'zlashtirgan g'oyalari uni bu olamdan ishonchli himoya qilib turardi.

Iyezuitlar Sharlning xulqini jilovlashda yutuqqa erisha olmadilar. Kollej uni tartibga soladi, itoatli qiladi, intizomli bolaga aylantiradi degan umidlar puch bo'lib chiqdi. Gap uning iyezuit kolleji berayotgan ta'limni tan olmasligida emas, bu ta'limning o'ta konservativligi, to'g'rirog'i, butunlay reaksiyon ekanligida ham emasdi. U boshqa biror g'oya-viy olamdan xabardor emas, mutaassib iyezuitlarning jaholat dunyosidan boshqa olamni hatto tasavvur ham qilmasdi. Muammoning diniy tarafi ham unda norozilik uyg'otmasdi — majburiy diniy qo'shiq kuylashlar, mashg'ulotlardan oldingi va keyingi ibodatlar, diniy qiroatlar, apologetika², katekizis³ hamda boshqa diniy marosimlar uning nafratini uyg'otmasdi. Din uning uchun o'ziga xos

¹ Монтескье, Шарл де. О духе законов. — М.: «Мысль», 1999. — С.139.

² Apologetika — bosh diniy tasavvurlar haqiqiyligining asosiy isbotlari shakllantirilgan ta'limotning bir bo'limi.

³ KATEKIZIS — nasroniy diniy ta'limotining savol-javob shaklida ifodalaniishi.

odatiy bir hol edi, barcha majburiyatлами xuddi ertalabki yuvinish kabi itoat bilan bajarardi.

Sharl de Goll «boshliqlar qо'lidagi jasad» bo'la olmasdi. Uning tabiatи qарshiliksiz bo'y sunishni ko'tara olmasdi. Va u o'z hayotining eng muhim damlarida aynan faol sarkashligini namoyon qiluvchi xulqini saqlab qoldi.

Sharl maktabdagi majburiy tartiblarni yoqtirmasdi. Muallimlar uning intizomsizligidan, darslarga beparvoligidan nolishardi. Oradan ko'p yillar o'tgach, Fransiya respublikasi prezidenti, general de Goll o'z nevaralari va chevaralariga shunday degandi: «Boshlang'ich sinflarda men hech qachon dars tayyorlamaganman. Ammo bu odatga taqlid qilmaslik kerak!»

U dangasa emasdi va faqat o'zining ma'naviy-ruhiy ehtiyojlariga munosib bo'lgan, o'ziga yoqqan narsalarnigina o'zgacha bir g'ayrat bilan bajarardi. Tabiat ato etgan qobiliyat o'z kuchini ko'rsata boshladi. Buning ustiga oilasi ham unda madaniyatga qiziqish uyg'ota bordi. Kechqurunlari u Rasinni va Senekani o'qiyotgan otasini tinglashni yoqtirardi, aslida o'zi Rostanni o'qishni ma'qul ko'rardi. Sharl uning «Sirano de Berjerak» pyesasini to'laligicha yod olgandi.

Adabiyotga bo'lgan ishtiyоq uning yuragida umrbod saqlanib qolgan bo'lsa-da, tarixga erta uyg'ongan moyillik oldida chekinib, ikkinchi o'ringa o'tadi. Agar adabiyot Sharlga o'z fikrini va nuqtayi nazarini ifodalash shaklini, uslubini, tarzini egallahda yordam bergen bo'lsa, uning dunyoqarashi, asosan, tarixni o'rganish yordamida shakllandi.

Fransuzlar, umuman, tarixni juda yaxshi ko'radilar va o'z mamlakatlarining buyuk o'tmishi bilan faxrlanadilar. Sharl de Goll jon-jahdi bilan tarixni o'rganishga kirishdi, hatto bayram kunlari ham tarixiy kitoblarni o'qish uchun o'yindan, qiziqarli narsalardan va ko'ngilochar tadbirlardan voz kechar edi.

1907-yilda otasi Sharlni Belgiyaga, o'qishni davom ettirishga yuboradi. Bu yerda parijlik iyezuitlar yig'ilgan

bo'lib, ular Muqaddas Ruh kollejiga asos solgandilar. Sharl maxsus matematika sinfida o'qiydi va bu sohada ham ancha qobiliyatli ekanligini ko'rsatadi. O'qituvchilari unga Politeknika maktabida o'qishni maslahat beradilar. Biroq u zabit bo'lishni xohlaydi va Sen-Sir harbiy bilim yurtiga o'qishga kiradi. 1912-yil 1-oktabrda de Goll bu bilim yurtini tugatdi va kichik leytenant unvoniga ega bo'ldi.

U xizmat qilishi lozim bo'lgan 33-polknning komandiri armiyada qiziqkon tabiatiga ya boshliqlar bilan tez-tez bahslashib turishi tufayli mashhur bo'lgan Philipp Peten edi. 22 yoshli, qora ko'zli, baland bo'yli yosh ofitser va 56 yoshli polkovnik bir-birlariga ancha yoqib tushdilar. Sharlning taqdiri uzoq vaqtlar Peten¹ bilan bog'liq bo'ldi.

Kichik unvon va kichik lavozim de Gollning o'z xizmatiga jiddiy munosabatda bo'lishiga xalaqit bermadi. 1913-yilda polkovnik Peten unga shunday tavsifnomasi berган: «Juda qobiliyatli. O'q otish tayyorgarligida ham, o'quv mashg'ulotlarida ham o'zini a'lo darajada namoyon qildi». 1913-yilning oktabrida unga leytenant unvoni berildi.

1912-yilning dekabrida Yevropa umumiylar urush bo'sag'asida turardi. Serbiya, Bolgariya va Gretsiyaning Turkiyaga qarshi urushi oxirlab bormoqda edi. Istambul xavfstida qolgan va turklar sulhga rozi bo'lgandi. Biroq Avstriya-Vengriya qo'shin toplashda davom etardi. Shu munosabat bilan Rossiya Avstriyaning chegarasida katta qo'shinni ushlab turardi. Fransiya esa nemislardan Elzas va Lotaringiyani qaytarib olish orzusida edi.

¹ *Peten, Anri Filipp* (1856–1951) – keyinchalik Fransiya marshali. 1940-yil 16-iyunda Reyno hukumati iste'soga chiqadi va o'rniga Peten hukumat boshlig'i lavozimini egallaydi. 1940-yil 20-iyunda esa nemislardan sharmandali sulh imzolanadi. Fransiyaning 2/3 qismi nemislarning okkupatsiya zonasiga aylandi.

Fransiya qo'shinlarining soni 480 ming kishidan iborat bo'lib, Germaniya armiyasida 830 ming askar bor edi. Farq 350 ming askarni tashkil qilardi. Zaxiradagi tayyor-garlik ko'rgan qo'shinlar soni ham Fransiya foydasiga emasdi. Shunga qaramasdan, hukmron doiralar ishni urushga olib borayotgan edilar. «Qirq yil tinchlik — bu juda katta muddat!» — deya qichqirardilar millatchilar.

1914-yil 28-iyunda Avstriyaning ersgersogi Frans-Ferdinand o'ldirilganidan keyin Yevropada misli ko'rilmagan umumiyl inqiroz ro'y berdi. Bu vaziyat 1-avgustda Birinchi jahon urushining boshlanishiga olib keldi. De Goll hamma narsani hal qiluvchi va tarixning barcha tomonlarini belgilab beruvchi omil, milliy g'oyaning isboti sifatida talqin etgan voqeа yuz berdi. 40 yildan buyon o'zaro nizolar titratib turgan Fransiya bir necha kun, hatto soatlar davomida birlashdi! Hatto sotsialistlar ham, ularning orasidagi eng taniqli odam Jores 31-iyulda o'ldirilganidan keyin birdaniga vatanparvar bo'lib qoldilar. Barcha fransuz siyosiy partiyalarining «muqaddas ittifoqi» paydo bo'ldi.

De Gollning o'zi «muqaddas ittifoq»ning paydo bo'lishini shunday ta'riflaydi: «Barcha qarama-qarshiliklar birlashishi uchun Fransiya qilichini yalang'ochlashi kifoya. Fransiya yagona, barchasini vayron qiluvchi kuchga aylanadi. Birlashishga ko'maklashuvchi barcha g'oyalar — vatan-parvarlik, diniy e'tiqod, dushmanqa nafrat — darhol umumiy g'ayrat bilan ilhomlanadi. Birorta ishchilar birlashmasi milliy g'oyaga qarshi ish tashlashni o'ylab ham ko'rmadi. Askarlikka chaqirishga birorta ham guruuh qarshi chiqmadi. Parlamentda urushga mablag' ajratishga birorta ham qarshi ovoz berilmadi. Odatda harbiy xizmatdan bosh tortganlar safarbar etiladiganlarning 13 foizini tashkil etardi, endi ularning soni 1,5 foizga ham yetmadi. Xizmatga chaqirish joylarida 350000 ko'ngillilar urushga jo'natili-

shini talab qilib turibdi. Boshqa davlatlarda yashovchi fransuzlar o‘z vatanlariga qaytish uchun poyezdlar va kemalarni to‘ldirib yuborgan. Shubha ostidagilar, «B» ro‘yxatidagilar o‘zlarini o‘q ostiga yuborishlarini so‘rab yalinmoqdalar. Tinchlik paytida qochib ketgan 3000 kishi urushda qatnashishni o‘z burchlari deb bildilar va vatanlariga qaytib keldilar»¹.

1914-yilning avgust oyи boshlarida Fransiya aynan ana shunday ko‘rinishda edi. Bir necha kun, ehtimol, bir necha hafta davomida vatanparvarlik tuyg‘usi, haqiqatdan ham, butun mamlakatni qamrab olgandi. Ammo buning sabablari haqiqiy voqealarga asoslangandi. Sotsialistlarning «muqadas ittifoq»qa qo‘shilganlari «II Internatsional»ning opportunistik² qayta tiklanganligining mantiqiy yakuni bo‘ldi, umumiy vatanparvarlik jazavasi esa 1870-yilgi milliy xo‘rlanish haqidagi xotiralar bilan qizdirilgan ko‘p yillik milatchilik ruhidagi tashviqotlarning natijasi edi.

2-sentabrda nemislar Parijni egalladilar, hukumat a’zolari Bordoga qochib ketdilar. Mudofaa tashkil qilinib, ayovsiz qonli janglardan keyin nemislar chekinadilar. De Goll hayotida birinchi marta haqiqiy janglarda qatnashdi.

1916-yilning mart oyida Shampandagi janglar faollashdi. German qo‘mondonligi harbiy harakatlar markazini Verdenga ko‘chirishga qaror qildi. Shaxsan kayzer³ Vilgelm II ning o‘zi 22-fevraldagи artilleriya hujumini boshqardi. Fransuz askarlari hujum shiddatiga dosh bera olmadilar va chekinishga majbur bo‘ldilar. Besh kunlik tinimsiz janglardan so‘ng nemislar yetti kilometr olg‘a siljiydlilar. Ana

¹ Молчанов Н.Н. Генерал де Голь. — М.: «Алгоритм: ЭКСМО», 1980. — С. 44.

² *Opportunism* — ishchilarni burjua manfaatlariga bo‘ysun-dirishga, inqilobiy yo‘ldan voz kechishga da‘vat etuvchi oqim.

³ *Kayzer* — «Muqaddas Rim imperiyasi»da (962—1806 y.) va Germaniya imperiyasida (1871—1918 y.) imperatorlarni shunday atashgan.

shu janglarda kapitan Sharl de Goll qahramonlarcha halok bo‘lganligi haqida xabar beriladi va uni Faxriy legion ordeni bilan mukofotlaydilar. General Kastelyano bilan birga Verden mudofaasini boshqargan general Petenning buyrug‘ida shunday deyilgandi: «Rota komandiri kapitan de Goll o‘zining yuksak aqliy va axloqiy sifatlari bilan ajralib turardi. Dushman barcha tomonlardan uning rotasiga o‘t ochganida, yo‘qotishlar juda ko‘p bo‘lishiga qaramasdan, o‘z jangchilarini olg‘a boshladi, shafqatsiz qo‘l jangiga kirishdi. Bu uning jangchi g‘ururi haqidagi tushunchasiga mos keladigan yagona qaror edi. U jangda jon berdi. De Goll tengsiz zabit edi».¹

De Goll oyog‘idan og‘ir yaralangani tufayli dushmanga asir tushgandi. Bu asirlik qariyb uch yil davom etdi. Bu yillarda u Shetsin, Rozenburg, Fridberg, Magdeburg va boshqa shaharlardagi qamoqxona hamda lagerlarda bo‘ldi. U besh marta asirlikdan qochishga urinib ko‘rdi. Faqat 1919-yilning boshlaridagina u ozodlikka erishdi.

Sharl de Goll 30 yoshda. Bu yoshda aksariyat erkaklar oila qurgan bo‘ladilar. O‘z kelib chiqishi va tarbiyasiga ko‘ra kapitan mansub bo‘lgan e’tiborli katoliklar doirasida shunday udum qabul qilingandi. Sharl de Gollning shaxsiy hayoti uning onasi va yaqinlari davrasida bir necha marta muhokama qilindi. Ularning orasida Sharlning otasiga cho‘qintirgan ona bo‘lgan Danken xonim ham bor edi. Bu xonim Kale shahridagi nufuzli oilalardan birida yashar va u yerdagi barcha voyaga yetgan qizlarni bilardi. Aynan ana shu xonimning xayoliga Kaledagi qandolat korxonalari xo‘jayining qizi Ivonna Vandru haqidagi fikr kelib qoldi. Qiz 20 yoshga yetgan bo‘lib, yaxshigina ko‘rinishli, kamtar, yaxshi tarbiya ko‘rgan edi.

¹ Q a r a n g : Уильямс Ч. Последний великий француз. Жизнь генерала де Голля. – М.: «ЭКСМО», 2003. – С.49.

1920-yilda Sharl bilan Ivonnaning «tasodifiy» uchrasuvlari bo'lib o'tdi. O'sha kuniyoq kechki nonushta paytida har ikkala oila a'zolari Danken xonim rahbarligida Yelisey maydonidagi qandolatxonada uchrashdilar. Ivonna bilan Sharlni yonma-yon o'tqazdilar. Ivonna bu jiddiy, bosiq, ikkita jangovar ordenga ega bo'lgan, xushmuomala va ma'lumotli yigit yoqib qoldi. Navbatdagi uchrashuvlardan biridan keyin Ivonna uyidagilarga shunday dedi: «Kapitan de Goll hozirgina menga turmush qurishni taklif qildi. Men rozi bo'ldim». Tez orada ular unashtirildilar. Ivonna Sharl de Gollga umr bo'yи sodiq yor bo'ldi va ularning o'rtasida hech qachon jiddiy kelishmovchiliklar bo'lgan emas.

1921-yil 1-oktabrda de Goll Sen-Sirda harbiy tarix professorining o'rribbosari lavozimiga tayinlanadi. O'z fanni, ya'ni harbiy tarixni u a'lo darajada bilardi. Ammo talabarning e'tiborini qozonish uchun buning o'zigina yetarli emasdi. Uning ulkan, biroz beso'naqay gavdasi, qo'polroq harakatlari, qandaydir g'ayrioddiy bo'g'iq ovozi – bularning barchasi talabalar bilan muomalani qiyinlashtirishi mumkin edi. Axir tashqi ko'rinishi boshqalardek bo'l-magan, fe'li g'alatiroq o'qituvchi o'quvchilarga masxara uchun nishon bo'lishi mumkin edi-da. Buning ustiga, ko'rinishdan sovuqqon bo'lgan de Goll ma'ruzalarini juda ehtiros bilan o'qirdi. Faqat juda mohir notiq bunday ehtiros va jo'shqinlikni o'ziga odad qila olishi mumkin edi. Sharl de Goll aynan ana shunday ma'ruzachilardan edi.

1924-yilda de Gollni Bosh shtabga ishga chaqirishdi. U yana Germaniyaga bordi, lekin bu safar u yerda endi istilochi qo'shining zobiti sifatida paydo bo'ldi. Fransuz qo'shnlari tez orada Germaniyadan chiqarilgani sababli bu yurtda de Goll faqat uch oygina bo'ldi. U Germaniyada shovinizmning kuchayib borayotganligini va ochiqdan ochiq

revanshizm¹ g‘oyalari ustuvor ekanligini ko‘rdi. Germaniya de Gollda shubha va xavotir tuyg‘ularini uyg‘otardi. Aynan 1924-yilda de Gollning Germaniyaga bag‘ishlangan, Dushman qarorgohida nizo» deb atalgan birinchi kitobi chop etiladi.

Ko‘p yillar davomida ommaning jiddiy e’tiboriga sazovor bo‘limgan bo‘lsa ham, adabiy faoliyat de Goll hayotining ajralmas va g‘oyat muhim qismiga aylanadi.

Germaniyadan qaytgach, de Goll Mudofaa Oliy kengashi raisining o‘rinbosari marshal Peten mahkamasiga ishga olinadi. Marshal avvallari ham o‘z qo‘l ostida ishlagan bu salohiyatli leytenantini unutmagandi. 1927-yilda de Goll mayorlik unvonini oladi. Uni Germaniyani istilo qilgan fransuz qo‘sishnlari tarkibiga kiruvchi 19-batalon komandiri etib tayinlaydilar. Aynan shu davrda uning «Nayza tig‘ida» nomli kitobi nashrdan chiqdi.

1928-yilning 1-yanvarida de Gollning ikkinchi qizi dunyoga keldi. Qizaloqqa Anna deya ism qo‘yishdi. Tez orada Annada tug‘ma kasallik borligi ma’lum bo‘ldi. Bu kasallik aqliy norasolikda namoyon bo‘lardi. Ammo de Goll o‘zining uch nafar farzandlari orasida aynan Annani, 20 yilgina umr ko‘rgan nogiron qizini o‘zgacha, iztirobli bir mehr bilan yaxshi ko‘rardi. Ivonna de Goll bir dugonasiga: «Sharl ham, men ham Annaning boshqa qizlar qatori bo‘lishi uchun barcha bor narsamizni – sog‘lig‘imiz, boyligimiz, muvaffaqiyatlarimiz, omadimiz va amallarimizni jon-jon deb bergen bo‘lardik», – deb yozgandi.

1929-yilning oxirlarida de Goll o‘z iltimosiga ko‘ra Suriya va Livandagi Fransuz qo‘sishnlari shtabiga ishga yuboriladi. 1920-yildan keyin Fransiya bu mamlakatlarni boshqarish uchun Millatlar Ligasining mandatini olgandi. Yaqin Sharq

¹ Revanshizm – o‘z mag‘lubiyati uchun qasos olish siyosati.

hududidagi fransuz qo'shinlarining soni ba'zan yuz ming kishini tashkil etardi. Chunki bu yerda Fransiya mustam-lakachi imperiyasidagi milliy ozodlik harakatining asosiy markazlaridan biri joylashgandi. De Goll bu yerda ko'p narsalarni ko'rdi hamda kelajakda manfaat va samara bera-digan bilimlarga ega bo'ldi. U Qohirada, Bag'dodda, Da-mashqda, Aleppoda, Quddusda Sharq hayoti bilan tanish-di. U hamma joyda Sharqning o'ziga xosligiga maftun bo'l-di va bu yerlarda Fransiya hukmronligini saqlab qolishga umid qanchalar asossiz ekanligini tushundi.

1932-yilda de Gollni Bayrutdan yana Parijga qayta-rishdi. U Milliy mudofaa Oliy kengashining kotibi etib tayinlandi va 1933-yilda podpolkovnik unvoniga sazovor bo'ldi. Bu yerda u 1937-yilga qadar ishladi. Kengashda ishslash jarayonida de Goll fransuz armiyasining tashkiliy tizimini takomillashtirish, qo'shining zamonaviy qurol-asлаha bilan ta'minlanishini yaxshilash kabi masalalar bilan shug'ullandi. 1934-yilda uning «Professional armiya uchun» deb nomlangan kitobi chop etildi. Kitobda strate-giya va taktika, professional tank armiyasini tashkil etish haqidagi fikr-mulohazalar, nazariy va amaliy bilimlar bayon etilgan.

Kitobning «To'siq» deb atalgan birinchi bobida de Goll Napoleonning «davlatning siyosati uning geografiyasи bilan belgilanadi» degan fikriga asoslanib, eng avvalo Fransyaning geografik holatiga e'tibor qaratadi. U bo'lajak urush-da Belgiya hududi dushman hujumi uchun foydalaniladi degan fikrni bildiradi. Keyin u «ikki irq» — gallar va german-larning milliy psixologiyasi va an'analarini taqqoslaydi, bunda Germaniyaning boshqa yurtlarni egallashga bo'lgan doimiy ishtiyoqi va Fransyaning doimo bunga moyil emas-ligi sabablarini ko'rsatib o'tadi.

Ikkinci bob «Texnika» deb ataladi. Unda muallif armiyani mexanizatsiyalashtirish zarurligini ta'kidlaydi.

«Siyosat» deb nomlangan uchinchi bobda de Goll tashqi siyosat bilan harbiy tashkillashtirish o'rtasida uzilmas aloqa mavjudligini ochib beradi. Fransiya bilan Germaniyaning iqtisodiy va sanoat zaxiralari solishtirar ekan, de Goll shunday yozadi: «20 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan har bir fransuzga ikkita nemis, ikkita italiyalik, beshta rus to'g'ri keladi...»

Kitobning keyingi boblarida ham bo'lajak urushga armiyani tayyorlash, tashqi va ichki siyosatda o'zgarishlar qilish zarurati, armiya tarkibini mustahkamlash hamda uning jangovarligini oshirish haqida gap boradi.

Gitler Germaniyada hokimiyatni egallab olganidan so'ng oradan bir yil ham o'tmasidan «Mayn kampf» kitobida ochiqdan ochiq bayon qilingan bosqinchilik siyosatini amalga oshira boshladi. 1933-yilning oktabrida Germaniya Millatlar Ligasini namoyishkorona tark etdi.

1934-yilda Avstriyani bosib olishga tayyorgarlik boshlandi. O'sha yilning iyul oyida Avstriya kansleri Dalfus o'ldirildi. Oktabr oyida fashist qotilining o'qi bilan Fransiya tashqi ishlari vaziri Bartu va Yugoslaviya qiroli Aleksandr o'ldirildi. 1935-yilning yanvar oyida Gitler «Versal» shartnomasi bo'yicha fransuzlar nazorati ostida bo'lgan Saar sanoat mintaqasini egalladi. Gitlerning Germaniya ichidagi hokimiyati va uning xalqaro o'rni mustahkamlandi.

Umuman olganda, de Goll hayotining beshinchi o'n yilligi uning uchun yengil ham, yoqimli ham, muvaffaqiyatlari ham bo'lmadi. U 1932-yilda otasini dafn etdi. Qizi Anna ning kasalligi qalbida og'ir tosh bo'lib turardi. 1936-yilda uni polkovnik unvoniga nomzod zabitlar ro'yxatidan o'chirib tashlashdi. Faqat yuqori lavozimlardagi qo'mondonlarning harakatlari bilan 1937-yilda unga polkovnik unvoni berildi. Shu yili iyul oyida polkovnik de Goll 507-tank polkiga komandir etib tayinlandi.

1939-yilning sentabr oyida Ikkinci jahon urushi boshlandi va german tank diviziylari ikki hafta ichida

Polshani tor-mor qildilar. Urush boshlanishi arafasida de Goll Elzasdagi 5-armiyaning tank qo'shinlari komandiri etib tayinlangandi. Bu lavozim de Gollni unchalik ham quvontirmadi.

May oyining boshlarida ittifoqchilar qo'mondonligi inglizlar va fransuzlarning eng sara kuchlarini Belgianing ichkarisiga jo'natishga qaror qildi. 10-may kuni nemislar to'satdan ittifoqchi qo'shinlar bilan fransuz mudofaa chiziqlari o'rtasida paydo bo'lgan tirqishdan o'tib, dahshatlizarba berdi. 10 ta zirhli tank va 6 ta motorlashtirilgan diviziylar G'arbga tomon bostirib kirdilar. Hujumning to'rtinchi kuni nemislar Fransiya chegaralarini buzib o'tdilar. General Guderianning tank korpusi Maas daryosidan o'tib o'ngga burildi va La-Manshga yo'l oldi.

«Ochig'ini aytganda, – deb yozgan edi de Goll – bir hafta davomida urushning taqdiri hal bo'lgandi. Armiya, davlat hokimiysi, butun Fransiya bosh aylanadigan tezlikda katta qiyalikdan pastga tomon quladi. Aslida bu pastlikka biz yo'l qo'yan xatolarimiz tufayli allaqachon qulashni boshlagan edik... Ammo jangda, hatto boy berilgan jangda ham, askar o'ziga tegishli emas. O'z navbatida, men ham to'laligicha ro'y berayotgan voqealar ichida qoldim».

1940-yilning 16-may kuni de Goll Lionning shimoli-sharqida, Monkorn yo'nalishida hujum boshlashga qaror qildi. Tong oldida de Goll qo'shimcha kuchlarni – uchta tank batalonini qabul qildi va o'z diviziyasini olg'a boshladи. Uning qo'shinlari nemislarni uloqtirib tashlab, 20 kilometr oldinga siljidi va Monkornga yaqinlashdi. Uning shosha-pisha tuzilgan diviziysiga ko'p narsalar yetishmasdi. Artilleriya yordami ham, havodan himoya ham, radioaloqa ham yo'q edi. Shunga qaramasdan, 19-may tongida polkovnik de Goll yana o'z diviziyasini hujumga, endi Liandan shimol tomonga tashladi. Nemislarning og'ir artilleriyali asosiy kuchlari turgan narigi qirg'oqqa ular shoshilmasdan yaqinlashdilar. Ammo artilleriya, aviatsiya

va piyodalarining yordamisiz hech narsaga erishib bo‘lmadi. Nemislар fransuz tanklarini osongina yo‘q qilib tashladilar.

De Gollning Lion ostonalaridagi harakatlari, tabiiy-ki, voqealar rivojiga katta ta’sir o’tkaza olmasdi. Shunga qaramasdan, polkovnik de Goll diviziya komandiri sifatida jasorat va bilimdonlik namunalarini ko‘rsatdi. Nemis generali Kurt Tippelskirx o‘zining «Ikkinchi jahon urushi tarixi» asarida shunday yozadi: «General de Goll qo‘sishinlarining Lion hududidagi faol harakatlari janub tomonidan bostirib kirgan nemis qo‘sishinlariga qarshi chiqsa olgan yagona kuch edi»¹.



Ammo de Gollning diviziysi chekinganidan keyin 22-mayda G‘arbga tomon siljidi va u yerda jang olib bordi. U besh kecha-kunduzda 180 kilometr oldinga siljidi va La-Mansh qirg‘og‘i yaqinidagi Abvil shahrining janubi-sharqida joylashdi. 27-may kuni soat oltida 20 ming askar, 140 ta tank va oltita piyodalar bataloniga ega bo‘lgan diviziya oltita artilleriya divizioni yordamida

hujumga o‘tdi. Nemislар ko‘plab qurol-aslaha va texnikani tashlab, ortga chekindilar. Bundan keyin ham de Goll qo‘mondonlik qilgan qo‘sishinlar ko‘plab yutuqlarga erishdilar.

Ammo baribir Germaniya qo‘sishinlarining son jihatidan ko‘pligi, yaxshi qurollanganligi, Fransiya hukumati ning uquvsizligi natijasida dushman Parijgacha bo‘lgan katta hududni egallab oldi.

De Goll Fransiyaning qolgan qo‘sishinlarini urushni davom ettirish uchun Shimoliy Afrikaga ko‘chirish rejasini ishlab chiqadi.

¹ Qarang: *Tunnel’skirkh K. История второй мировой войны.* – М.: ACT, 1999. – С. 271.

500 ming askarni, aviatsiyaning-anchagina qismini, bir necha yuz tankni olib o'tish uchun Fransiyaga 500 ming tonna suv sig'imiiga ega bo'lgan, ya'ni 50 ta yirik transport kemasi etishmasdi. Ularni faqat Angliya berib turishi mumkin edi.

9-iyunda general de Goll o'z o'rribbosarlari va hukumat boshlig'inining diplomatik korpusi raisi bilan Londonga keldi. O'sha kuniyoq de Gollni Buyuk Britaniya bosh vaziri U. Cherchill qabul qildi. Bu ularning birinchi uchrashuvi edi. Katta siyosatda o'zining birinchi qadamlarini qo'yayotgan de Gollga Cherchill ulkan siyosatchi bo'lib ko'ringandi. Ammo ba'zi bir kichik yordamlarni va'da qilgan Cherchill ayni paytda Angliya Fransiya bilan harbiy hamkorlik qila olmasligini bildirdi.

Frontdagi mag'lubiyat tobora yaqinlashib borardi. Hukumat Parijdan ketishga qaror qildi. De Goll poytaxtni himoya qilishni va garnizon boshlig'i qilib qat'iyatli odamni tayinlashni taklif etdi. Ammo hukumat boshlig'i Reyno Parijni «ochiq shahar» deb e'lon qildi va qochib ketishni mo'ljalladi. 1940-yilning 14-iyun kuni hukumat buyrug'i-ga ko'ra Parijning harbiy gubernatori Dens shaharni nemislarga topshirdi. Bu Fransiya tarixidagi eng sharmandali mag'lubiyat edi.

1940-yilning 18-iyun kuni general de Goll Londonda turib radio orqali o'z vatandoshlariga murojaat qildi:

«Ko'p yillar davomida Fransiya armiyasiga qo'mondonlik qilgan harbiy rahbarlar hukumat tuzdilar. Bizning qo'shinlarimizning mag'lubiyatini bahona qilib, bu hukumat qarshilikni to'xtatish uchun dushman bilan muzokara olib bormoqda. Biroq oxirgi so'z aytib bo'lindimi? Boshqa umid yo'qmi? Uzil-kesil mag'lubiyatga uchradi? Yo'q! Fransiya yolg'iz emas! U yolg'iz emas! U yolg'iz emas!... Bu urush faqat ko'plab uqubatlarni boshidan kechirgan bizning mamlakatimiz hududi bilangina cheklanib qolmaydi. Bu

urushning natijasi faqat Fransiya uchun bo‘lgan jangdagina hal etilmaydi. Bu jahon urushi... Hozircha biz mexanizatsiyalashtirilgan kuchlardan yengilgan bo‘lsak ham, kela-jakda xuddi o‘shanday kuchli mexanizatsiyalashtirilgan kuchlar yordamida g‘alaba qilishimiz mumkin. Men, general de Goll, ayni damda Londonda turib, Britaniya hududida turgan fransuz ofitserlari va askarlariga, muhandislar va ishchilarga, qurol-aslahha ishlab chiqarish bo‘yicha mutaxassislarga murojaat qilib, men bilan aloqa o‘rnatishga chiqiraman. Nima bo‘lishidan qat’i nazar, fransuz qarshilingining alangasi o‘chmasligi kerak va o‘chmaydi ham».¹

Bu tarixiy da’vat de Gollning tarjimai holida eng muhim marra bo‘ldi. U ofitserlik martabasini yakunladi va davlat arbobi hayotini boshladi.

22-iyunda de Goll «Ozod Fransiya» qo‘mitasining tashkil etilganligini e’lon qildi. 28-iyunda esa Londonda quyidagi bayonot e’lon qilindi: «Janobi Oliylarining hukumati general de Gollni, qayerda bo‘lishidan qat’i nazar, ittifoqchilar ishini himoya qilish uchun unga qo‘shilgan ozod fransuzlarning rahbari deb tan oladi».

«Ozod Fransiya» tashkil etilganidan bir yil keyin, 1941-yil 22-iyun kuni de Gollning fikricha, «Fransiya uchun yangi, katta umidlar tug‘diradigan» voqeа ro‘y berdi. Gitlerning tajovuziga qarshi SSSR urushga kirdi. «Ruslar nemislarga qarshi urush olib borayotganligi uchun, biz so‘zsiz ular bilan bиргамиз», — dedi darhol de Goll. U general de Gollning nomidan sovet elchisiga shunday bayonot berishni buyurdi: «Fransuz xalqi Germaniyaga qarshi kurashda rus xalqini qo‘llab-quvvatlaydi. Shu tufayli biz Moskva bilan harbiy hamkorlik o‘rnatishni istaymiz».

¹ История Франции в трех томах. — М.: «Наука», 1971. Т.3. — С. 229.

Biroq de Goll avval boshdanoq bir tomonlama yo'naliishda ish olib borishga qarshi edi. Eng muhimi, har qanday sherikka nisbatan, ayniqsa, bu sherik juda kuchli bo'lsa, to'liq mustaqillikni saqlab qolish lozim. General tashqi siyosatdagi mustaqillikni diviziylar sonidan, quyilgan po'lat miqdoridan yoki valyuta xazinasi hajmidan ham muhimroq siyosiy omil deb hisoblardi.

24-noyabrda de Goll tashqi ishlar vaziri Bido, generallar Juen, Palevski va Dejan hamrohligida Sovet Ittifoqiga uchib ketdi. Qohira va Tehron orqali ular 26-noyabrda Bokuga yetib keldilar. Bu yerda ularni rasmiy kutib olish marosimi bo'ldi. 2-dekabrda fransuz delegatsiyasi poyezdda Moskvaga kirib keldi va o'sha kunning o'zidayoq ularni Stalin qabul qildi. O'zaro muzokaralarda fransuz — sovet shartnomasini tuzish, har ikkala tomonning Yevropadagi umumiyl manfaatlari, urushdan keyingi Germaniya va Polshaning qanday davlatlar bo'lishi kerakligi haqida gap bordi. 1944-yilning 10-dekabr kuni Moskva shahrida tarihiy fransuz-sovet shartnomasi imzolandi. Bu shartnomani Fransiya quvonch va hayajon bilan olqishladi. Darhaqiqat, aynan ana shu shartnoma asosida Sovet Ittifoqining yordami bilan urushdan keyin Fransiya yer yuzining eng buyuk davlatlari qatoridan joy egalladi. Uch buyuk mamlakat rahbarlarining Yaltadagi konferensiyasida Fransiyaga Germaniyadan okkupatsiya zonasini ajratildi va SSSR, AQSH, Angliya bilan bir qatorda Fransiya ham Ittifoqchilar nazorat kengashiga kiritildi. Bundan tashqari, Fransiya BMT Xavfsizlik kengashidagi beshta doimiy a'zo o'midan birini egalladi. 1945-yilning yozida Potsdam konferensiysiga uch buyuk davlatlar qatori Fransiya ham tashqi ishlar vazirlari Kengashiga kiritildi. Nemislari tomonidan tor-mor qilingan, urushning faqat yakunlovchi qismidagina arzimas yordamini ko'rsata olgan davlatning bunchalar katta darajada o'z huquqlarini tiklaganligi hayratlanarli hol edi. Germaniya qurolli kuchlarining so'zsiz taslim bo'lish aktiga imzo chekish

marosimidagi bir voqeа juda ahamiyatli. Bu tarixiy marosim yuz berayotgan zalga Germaniya qo'shinlarining vakillarini kiritishganida, g'oliblar safida fransuz generali Derattrni ko'rgan Feldmarshal Keytel xitob qiladi:

Bu qanaqasi?! Fransuzlar ham g'olibmi?!

Ammo urushdan keyin general de Gollning talablarini g'ayriodatiy tus oldi. U Reyn daryosining chap sohilidagi hududlarning Fransiyaga berilishini talab qila boshladи. Shuningdek, general de Goll Fransiyaning xavfsizligini ta'minlash maqsadida Germaniyaning bo'lib tashlanishini, bu bo'laklarning yarim mustaqil holatda tutib turilishini, ularning «federallashtirilishi»ni ham talab qildi.

De Goll o'z sheriklariga tazyiq o'tkaza boshladи. 1945- yilning birinchi yarmida mayda diplomatik janjallar bo'lib turdi. Ancha jiddiy kelishmovchiliklar har doimgidek de Goll bilan Cherchill o'rтasida yuz berdi. Avvallari bo'lganidek, ular Suriya va Livan masalasida bahs olib borardilar. Bu mamlakatlarning aholisi allaqachon mustaqillik e'lon qilgan, lekin shunga qaramasdan Yaqin Sharqdan ketishga shoshilmayotgan fransuzlarga qarshi qurolli qo'zg'olon olib borardilar. Janjalga inglizlar qo'shildilar. Cherchill harbiy harakatlarning to'xtatilishini va bu mamlakatlar ustidan nazoratni Angliyaga topshirishni talab qilib de Gollga talabnoma yubordi. De Goll bo'ysunishga majbur bo'ldi, lekin 4-iyunda Britaniya elchisiga shunday dedi: «Hozirgi paytda biz sizlar bilan urusha olmaymiz, men buni tan olaman. Ammo sizlar Fransiyani qattiq haqorat qildinglar. Bu esa unutilmaydi»¹.

¹ Q a r a n g : Вильямс Ш. Последний великий француз. Жизнь генерала де Голля. – М.: «ЭКСМО», 2003. – С. 186.

De Gollning tashqi siyosati asta-sekin maqsad aniqligini yo'qota boshladi. Uning siyosati mamlakat ichkarisida ham noroziliklarni keltirib chiqarayotgandi. «Harbiy memuarlar» kitobining uchinchi jildida de Goll turli doiralar undan «ajrala boshlagani», uni «bu kelishmovchiliklar o'zini juda xavotirga solayotganligi» haqida yozadi. 1945-yilning oxiriga kelib de Gollning yuritayotgan siyosati uning busiz ham omonat turgan ichki siyosiy ahvolini yanada zaiflashtirdi.

Bu Fransiya tarixidagi muhim davr edi. Qarshilik ko'r-satish harakati Kommuna davridan keyingi misli ko'rilmagan inqilobiyoq ko'tarinkilikka aylanib ketdi. Ishchilar sinfining partiyalari, kommunistlar va sotsialistlar fransuzlarning juda katta qismi tomonidan qo'llab-quvvatlanardi. Shunga qaramasdan, cheklanmagan, mutlaqo shaxsiy hokimiyat de Gollning qo'lida edi.

Baribir u mehnatkashlarning talablariga quloq solishga majbur bo'ldi. Ijtimoiy ta'minot tizimiga ijobiy o'zgarishlar kiritildi, ishchilarining ish haqlari oshirildi. Biroq narxlar bu o'zgarishlardan ko'ra tezroq o'sib borardi. De Goll mu-xolifatchi partiyalarning ta'siri tobora oshib borayotganligini xavotirlik bilan kuzatib turardi.

Ayniqsa, kommunistlar partiyasi kuchayib borardi. Kommunistlarning bosqinchilar bilan qahramonlarcha jang qilganlari partianing mavqeyini oshirib yubordi. Partiya a'zolarining soni million kishidan oshib ketdi.

Fransiyaning xalqaro nufuzini mustahkamlash, uning iqtisodini tiklashga doir barcha sohalarda urushdan keyingi davrda kompartiya general de Gollni qo'llab-quvvatladi. Ammo u ishchilar sinfi manfaatlariga mos kelmaydigan va siyosiy hayotni demokratlashtirishga qarshi bo'lgan har qanday faoliyatni qat'iy rad etardi.

Sotsalistik partiya ham o'z ta'sir doirasini kengaytirib borardi. Urush yillari sotsialistlar de Gollni faol qo'llab-

quvvatladilar, ulardan ba'zi birlari, masalan A. Filipp generalning yaqin hamkori edi. Ammo, albatta, bu ittifoq ham vaqtinchalik xususiyatga ega bo'lgandi.

Siyosiy partiylar hech qachon general de Gollning ishonchini qozonmagan. «Men ufqda siyosiy ziddiyatlarning qora bulutlari quyuqlashib kelayotganini ko'rib turardim, – deb yozgandi u, – va men bundan buyon tanqid va muxolifatning murakkab sharoitida yashashimga to'g'ri kelishini tushundim».

Bu holatning dastlabki belgilari urush tugallanishidan ancha avval namoyon bo'lgandi. 1945-yilning 19-martida de Gollning qabuliga Maslahat assambleyasining barcha guruhlaridan vakillar kelgan va hukumat ularning fikrlari bilan hisoblashishini talab qilgandi. De Goll hokimiyat faqat unga tegishli ekanini va bu hokimiyatni Fransiya nomidan qo'llashini hamda urushdan keyin bo'ladigan umum-xalq saylovlariiga qadar faqat uning oldida mas'ul ekanligini aytdi. Ammo tez orada urush tugadi va saylovlarni belgilash hamda bo'lajak davlat tizimi taqdirini hal qilish zarurati eng muhim masala bo'lib qoldi. Dastlab de Goll saylovlardan voz kechish va kuchdan foydalanish yo'li bilan o'zining cheklanmagan hokimiyatini saqlab qolishga urinib ko'rdi. Ammo tezda general de Goll o'zi va'da qilganidek, umum-xalq saylovlarini o'tkazishga qaror qildi. De Goll monarxiyadan ham, respublikadan ham ko'p narsalarni olgan, asosiy shaxsiy huquqlar va erkinliklarga hurmatini saq-lab qolgan hamda uning fikriga ko'ra Fransiyaning boy tarixiy tajribasi bergen eng yaxshi jihatlarni birlashtirgan hokimiyat andozasini yaratgan edi. To'g'ri, bu tajriba faqat general de Gollning shaxsiy nuqtayi nazaridan tushunilgan va ideal davlat ham uning qarichi bilan o'lchangandi. Davlat tuzilishining bu rejasini prezidentlik respublikasi, monarxiya respublikasi, avtoritar hokimiyat tuzumi va shu kabi nomlar bilan atadilar. Shunisi aniqki, harholda, bu tuzum haqiqiy xalq hokimiyat ham, haqiqiy demokratik hokimiyat ham emasdi.

21-oktabrda o'tkazilgan referendum de Gollning aniq muvaffaqiyatini ta'minlagandek bo'ldi, ammo o'sha kunning o'zidayoq saylovchilar Ta'sis kengashiga 160 komunist, 142 sotsialist, 270 dan ortiq radikallar va o'ng partiyalar vakillarini sayladilar. De Goll partiyalar bilan o'zi o'rtasida kechadigan muqarrar kurashdan qochib bo'lmasligini va u salmoqli yordamdan umid qila olmasligini tushundi.

Shunday vaziyatda bo'lsa-da, Ta'sis kengashi unga misli ko'rilmagan ishonch bildirdi. U generalni bir ovozdan hukumat boshlig'i etib sayladi va bayonnomae'lon qildi: «Sharl de Goll Vatan yo'lida katta xizmat ko'rsatgan».

Ammo bu hokimiyat uzoq vaqt saqlanib qololmadi. 1946-yilning 19-yanvar kuni de Goll o'z hukumatining barcha vazirlarini ertasi kuni, yakshanbada, o'zining Sen-Dominik ko'chasidagi xonardoniga tashrif buyurishlarini so'radi. Ertasi kuni vazirlar to'plangan xonaga general de Goll harbiy kiyimda kirib keldi. De Goll ularning har biri bilan qo'l berib so'rashdi va o'tirishga taklif qilib, quyidagi so'zlarni aytdi: «Partiyalarning monopolistik tuzumi qaytib keldi. Men uni ma'qullamayman. Shuning uchun men ketishim kerak. Bugunning o'zidayoq men Milliy majlis raisiga xat yuboraman va unda hukumat iste'fosi haqida xabar beraman. Menga ko'rsatgan yordamlaringiz uchun har biringizga minnatdorlik izhor qilaman...»

Hech kim hayron bo'lmasdi, afsuslanmadi, generaldan o'z qororini o'zgartirishini so'ramadi. Hamma jum edi. De Goll vazirlar bilan xayrlashdi va chiqib ketdi. Shunda kompartiyaning Bosh kotibi, de Gollning o'rinnbosari Moris Torez: «Mana ulug'vorlikdan mahrum bo'lmagan iste'fo», — dedi¹.

¹ Молчанов Н.Н. Генерал де Голь. — М.: «Алгоритм: ЭКСМО», 1980. — С. 280—281.

Birorta ham hayajonlanish belgisini sezdirmagan holda, birorta ham namoyish yoki mitingsiz general de Goll o'zining Kolombedagi «Buasseri» qarorgohiga jo'nab ketdi.

Kolombeda mehmonlar kamdan kam bo'ladi, chunki u Parijdan ikki yuz elliq kilometr uzoqlikda joylashgan. Shunga qaramasdan, generalga sodiq kishilar vaqtiga vaqtiga bilan uning huzuriga kelib turardilar.

Kolombeliklar «Buasseri» bog'ini o'rabi turgan o'simliklar orasidan generalni ko'rib qolardilar. U hassaga tayanib, har kuni daraxtlar va butalar orasida kezib yurardi.

Yuksak aql-zakovat sohibi bo'lgan de Goll o'zi sevgan kitoblar olamiga sho'ng'iysi. U Bergsonni, Barres, Pegi, Sen-Simon, Laroshfuko, Valerini qayta-qayta o'qiysi. General har doim, hatto davlat ishlari bilan band bo'lgan davrlarida ham, o'zining ruhiy-ma'naviy ehtiyojini qondirish uchun vaqt topa olardi. «Umumiy madaniyat – hukmronlik qilish san'atini o'rgatadigan haqiqiy maktabdir», – deya ta'kidlardi u. Aleksandr Makedonskiyning g'alabalari u Aristotelning ruhini, Sezarning muvaffaqiyatlarida esa – Sitseronning madaniyatini ko'rardi. Shatobianni o'qiyotib, doimo uning bir fikri ustida o'ylanib qolardi: «Bilimga asoslanmagan faoliyat bu – jinoyat». Aslida boshqarish – oldindan ko'ra bilishdir, ammo oldindan ko'ra bilish uchun ko'p narsani bilish kerak... De Goll o'zining yaqindagi o'tmishiga xayolan qaytar ekan, kelajagining mavhum alomatlarini aniqlashga harakat qildi.

De Goll bir kechaning o'zida Ernest Xemingueyning «Chol va dengiz» asarini o'qib chiqadi. Uni qahramonning qaysarligi qoyil qoldirardi. «Aslida o'sha chol mening o'zimman, – o'ychanlik bilan deydi u. — Gap nahanglar mening jussamdan g'ajilgan suyakni qoldirgunlariga qadar, sohilga yetib olishim haqida bormoqda».

Tashqaridan qaraganda de Gollning hayoti ancha xotirjam va tinch ko'rinardi, ammo yigirma yoshli qizi Anna uning ko'z o'ngida vafot etganligi bir dam ham xayolidan

ketmasdi. General doimo unga alohida mehr bilan munosabatda bo'lardi, uni soatlab o'ynatardi, uning uchun multiplikatsion filmlarning nuxxalarini topib kelardi. Voga yetgan qiz go'daklik ongida qolib ketgandi...

Jazoirdagi urush xuddi saraton shishi kabi Fransiyaning tanasini yemira boshladi. Gi Molle hukumati qo'shni Tunis va Marokashning mustaqilligini tan oldi, Jazoirning mustaqilligi masalasi esa fransuz hukumatini boshi berk ko'chaga taqab qo'ydi. Jazoir muammosining o'ziga xosligi shundan iborat ediki, bu mamlakatda 9 million tub arab aholisidan tashqari, ko'p vaqtlardan buyon 1 million 200 ming yevropaliklar (asosan fransuzlar) ham yashar edilar. Kamchilikni tashkil etuvchi bu yevropaliklarning asosiy qismi ashaddiy mustamlakachilar bo'lib, istilo qilingan mahalliy aholiga yon bosishga tish-tirnoqlari bilan qarshi edilar. Fransiyaning o'zida ham Jazoirga xuddi Elzas va Lotaringiya singari o'z mamlakatlarining bir qismi sifatida qarar edilar. 1954-yilning oxirida Jazoirda ozodlik urushi boshlandi. Saylovlar oldidan Gi Molle Jazoir muammosini tinch yo'l bilan hal qilishga va'da bergandi. Ammo hukumat boshqaruvini qo'liga olganidan keyin u tezda mustamlakachilarning talablariga bo'ysundi va urush miqyosini kengaytirdi.

1956-yilning bahoridan boshlab matbuotda Jazoir muommosini de Golldan boshqa hech kim hal qilishga qodir emasligi haqidagi fikrlar tez-tez ko'zga tashlanadigan bo'lib qoldi. O'sha paytlarda de Gollning qabuliga ko'plab yuqori martabali, nufuzli, mashhur kishilar, davlat arboblari kela boshladilar.

General de Goll asta-sekin umid ramziga aylanib bora-yotgan bir paytda Gi Mollening ishi o'ngidan kelmaydigan hukumati mamlakatni jar yoqasiga keltirib qo'ydi. Bu sobiq ingлиз tili o'qituvchisi — qo'rkoq, izzattalab va zaif odam hokimiyat tepasiga kelganidan so'ng aqlga sig'maydigan qal'tis ishlarga qo'l urdi. Gi Molle yashirin tarzda Isroil bosh

vaziri Ben-Gurion va Angliya bosh vaziri Iden bilan til biriktirib, 30-oktabr kuni ular bilan birga Misrga qurolli hujum boshladi. Bu Fransiya tarixida eng qisqa va eng sharmadali urush bo'ldi. Fransuz qo'shinlari inglizlar bilan birga 5-noyabrd Port-Saidga kelib tushdilar. 6-noyabrd esa bosqinchilar harbiy harakatlarini to'xtatganliklarini e'lon qildilar. BMTning qoralashi, Moskvaning qat'iy ogohlan-tirishi, dunyo jamoatchiligining g'azabi va Vashingtonning bu tajovuzlarni qo'lllashdan voz kechganligi yashin tezligidagi, misli ko'rilmagan mag'lubiyatga olib keldi. Shundan so'ng Jazoirdagi ahvol yanada keskinlashdi, chunki vatanparvarlar Fransiyaning Suvayshdag'i mag'lubiyatidan ilhomlandilar va urushdagi kuchlarini ikki barobar ko'paytirdilar.

Hukumat inqirozi davom etardi. Avvaliga Gi Molle, keyin R. Pleven, A. Pine, M. Shuman, yana Gi Molle... vazirlar mahkamasini tuzishga urinib ko'rdilar. Keyin Feliks Gayyar boshchiligidagi to'qqizta partiya vakillaridan iborat hukumat tuzildi.

1958-yilning 8-fevralida Fransiyaning harbiy aviatsiyasi Tunisning Siket Sidi-Yusef qishlog'ini bombardimon qildi. Qishloq Jazoir chegarasi yaqinida joylashgan edi. Fransuz qo'mondonligining fikricha, bu qishloqda jazoirlilik vatan-parvarlar yashiringan edi. Bomba va pulemyot o'qlari oqibatida hech qanday gunohi bo'limgan 75 tunislik, ular orasida 21 nafar yosh bolalar halok bo'ldi. Qishloqda hech qanaqa jazoirlilik yo'q edi. Bu vahshiyona jinoyat butun dunyoni larzaga keltirdi. Tunis Fransiya bilan diplomatik aloqalarini uzdi va BMT ga ariza bilan murojaat qildi. De Gollning «gollchilar» deb ataluvchi tarafдорлari bu yangi inqirozdan darhol foydalanib qolishga urindilar. Gollchilar-ning rahbarlaridan biri — Mishel Debre o'zining «Kurye de la koler» gazetasida Gayyar hukumatiga qarshi maqolalar e'lon qildi.

1958-yilning 30-may kuni Burbon saroyida Milliy majlis yig'iliishi ochildi va uning raisi Le Troker majlis ishtirokchilariga prezidentning xatini o'qib berdi: «Shunday qilib, biz fuqarolar urushi bo'sag'asida turibmiz... Men eng atoqli fransuzning o'ziga murojaat qildim...» Xatning yakunida prezident, agar majlis de Gollning nomzodiga qarshi ovoz beradigan bo'lsa, unda o'zi ham iste'foga chiqishi haqida ogohlantirgandi.

31-may kuni de Goll Jorj Pompiduning maslahati bilan «Laperuz» mehmonxonasida 26 deputatni — barcha non-kommunistik partiyalarning yetakchilarini qabul qildi va ularning shubhalarini tarqatishga, ikkilanishlarini yengib o'tishga urindi.

1958-yil 1-iyun, yakshanba kuni general de Goll 1946-yilning yanvaridan buyon birinchi marta Burbon saroyining majlislar zaliga tashrif buyurdi. Deputatlardan 329 kishi — unga xayrixoh, 224 kishi — qarshi. Kommunistlardan tashqari sotsialistlarning yarmi, de Goll eng qobiliyatli siyosiy arboblardan biri deb hisoblagan Mendes Frans boshchiligidagi so'l radikallar qarshi ovoz berdilar. Biroq unga faoliyat uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlarni bergen, uzoq kutilgan g'alaba ham uni hamma narsaga ishonchsizlik bilan qarashdan ozod qila olmadni. Endi uni o'zining keksaligi iztirobga solmoqda edi. «Men o'n yil kechikib keldim... Agar men oldinda yana o'n yil borligini bilganimda edi...» U bir necha marta oltmis yoshdan keyin kishi o'ziga oliv mas'uliyatni olmasligi kerakligi haqida gapirgandi. Uning yoshi esa oltmis yettida. Shunisi hayratlanarli ediki, aynan ana shu yoshda generalning hayotida yangi sahifa boshlandi. U ana shu yoshida shunchalar ko'p kuch-quvvat, maqsad sari intilish, faoliyat qirralarini namoyon qildiki, uning atrofidagi ancha yosh kishilar hayratda qoldilar. U go'yoki, keksalik — yoshlikning in'ikosidir, degan mashhur haqiqatni tasdiqlayotgandek edi.

De Goll tuzgan hukumat tarkibi ko‘plarni lol qoldirdi. Bu yerda ko‘pgina taniqli shaxslar bor edi: Gi Molle va Pyer Polimlen uning o‘rinbosarlari bo‘ldilar. De Goll tarafdarlaridan uch kishi hukumat tarkibiga kiritildi.

4-iyun kuni de Goll Jazoirga uchib keldi. Juda ko‘p odam yig‘ilgan maydonda u nutq so‘zлади. Unda birodarlik, ulug‘vorlik, Fransiyaning ochiq ko‘ngilliligi haqida ko‘p gapirildi, biroq uning yonida turgan qo‘zg‘olon yo‘lboshchilari — Salan, Sustel va boshqalar kutgan so‘zlar aytildi.

Ammo de Goll isyonkor harbiylarga unvonlar va amallarni sochib tashladi. Salan harbiy medal — oliv hurmat belgisini oldi, Zeller — divizion generallar boshlig‘i, Massyu — divizion general, A. Sustel axborot vaziri bo‘ldi: bu tinib-tinchimas to‘polonchilarni nazorat ostida saqlash ma’qulroq edi...

14-iyul kuni Milliy bayram¹ munosabati bilan sarangan qo‘sishinlar Parijdagi Yelisey maydonidan tantanali namoyish bilan o‘tdilar. Parij de Gollning qudratini yana bir bor o‘z ko‘zlarini bilan ko‘rdi: hali may oyidayoq butun poytaxtni dahshatga solgan isyonkor kallakesarlar endi intizomli askarlar qatori safda yurardilar.

De Goll dekabrda prezident etib saylandi. 1959-yil 8-yanvarda u rasmiy ravishda o‘z lavozimini egalladi va Elisey saroyiga ko‘chib o‘tdi. Vakolatlarni topshirish marosimida sobiq prezident Rene Koti shunday dedi: «Fransuzlarning birinchisi Fransiyada birinchi bo‘ldi».

1959-yil 16-sentabrda de Goll nutq so‘zлади va Jazoir ahonisining o‘z taqdirini o‘zi hal qilish huquqiga ega ekanligini tan oldi. Jazoirliklarning o‘zlarini o‘z yo‘llarini belgilab oladilar. Ularning oldida uchta yo‘l bor. Birinchisi — to‘liq mustaqillik va Fransiya bilan aloqalarni uzish. Bunday holatda, generalning fikricha, Jazorda to‘s-

¹ 1789-yil 14-iyul Bastiliya zabit etilgan kun har yili Fransiyada milliy bayram sifatida nishonlanadi.

to'polon, kambag'allik va oxir-oqibatda «harbiy kommunistik diktatura» hukmronlik qiladi. Ikkinchi yo'l — fransuzlashtirish. Bu yo'l Jazoir aholisiga fransuzlardek barcha huquq va majburiyatlarni beradi. Uchinchchi yo'l — birlashish. U quyidagicha tasvirlanardi: «Jazoirliklar boshqaradigan Jazoir hukumati Fransiyaning yordamiga tayanib ish ko'radi, iqtisodiyot, ta'lim, mudofaa va tashqi siyosatni Fransiya bilan hamkorlikda olib boradi».

1960-yil 14-noyabr kuni vazirlar kengashida de Goll Jazoir masalasini referendum yo'li bilan hal etishga qaror qilganini va bu referendum 1961-yil 8-yanvarda bo'lishini bildirdi.

Aynan ana shu kunlarda Sharl de Goll 70 yoshga kirgandi. General o'z kuch-quvvati zaiflashganligini va sog'ligi yomonlashayotganligini sezib turardi. Yaqinlari undan «mening umrim so'nib bormoqda» degan gapni tez-tez eshitardilar. De Goll odamlar orasida tashqi qiyofasini saqlashga, ko'pchilik oldida ko'zoynak taqmaslikka harakat qilardi. Ammo suhbatdoshining qiyofasini aniq ko'ra olmasdi, uning oldida faqat soyalar turgandek ko'rindar. Aynan ana shu paytlarda Kongo Respublikasi bosh vaziri, abbat Yulber Yuluni qabul qilar ekan, de Goll unga «Xonim...» deya murojaat qilgandi. Biroq iroda kuchi ustun keladi va o'sha davr haqida shunday deydi: «Millatning hayotida bo'lganidek, insonning hayotida ham umidsiz soatlar bo'ladi. Lekin irodasi bor odam tushkunlikka berilmasligi kerak».

Shu yili 8-sentabrda birinchi marta de Goll hayotiga suiqasd qilindi. Umuman, turli noqonuniy tashkilotlar tomonidan generalning hayotiga 15 marta tajovuz qilingan. Bu suiqasdlarning aksariyati prezidentning Jazoirga mustaqillik berish siyosatiga qarshi bo'lgan fashistik tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgandi.

Fashistik «ultra»larning varaqlarida shunday yozilgandi: «Bugun yoki ertaga baribir sotqin general de

De Goll tuzgan hukumat tarkibi ko'plarni lol qoldirdi. Bu yerda ko'pgina taniqli shaxslar bor edi: Gi Molle va Pyer Polimlen uning o'rinnbosarlari bo'ldilar. De Goll tarafdarlaridan uch kishi hukumat tarkibiga kiritildi.

4-iyun kuni de Goll Jazoirga uchib keldi. Juda ko'p odam yig'ilgan maydonda u nutq so'zladi. Unda birodarlik, ulug'vorlik, Fransiyaning ochiq ko'ngilliligi haqida ko'p gapirildi, biroq uning yonida turgan qo'zg'olon yo'lboshchilari — Salan, Sustel va boshqalar kutgan so'zlar aytilmadi.

Ammo de Goll isyonkor harbiylarga unvonlar va amalarni sochib tashladi. Salan harbiy medal — oliv hurmat belgisini oldi, Zeller — divizion generallar boshlig'i, Massyu — divizion general, A. Sustel axborot vaziri bo'ldi: bu tinib-tinchimas to'polonchilarni nazorat ostida saqlash ma'qulroq edi...

14-iyul kuni Milliy bayram¹ munosabati bilan sarangan qo'shinlar Parijdagi Yelisey maydonidan tantanali namoyish bilan o'tdilar. Parij de Gollning qudratini yana bir bor o'z ko'zлari bilan ko'rdi: hali may oyidayoq butun poytaxtni dahshatga solgan isyonkor kallakesarlar endi intizomli askarlar qatori safda yurardilar.

De Goll dekabrda prezident etib saylandi. 1959-yil 8-yanvarda u rasmiy ravishda o'z lavozimini egalladi va Elisey saroyiga ko'chib o'tdi. Vakolatlarni topshirish marosimida sobiq prezident Rene Koti shunday dedi: «Fransuzlarning birinchisi Fransiyada birinchi bo'ldi».

1959-yil 16-sentabrda de Goll nutq so'zladi va Jazoir aholisining o'z taqdirini o'zi hal qilish huquqiga ega ekanligini tan oldi. Jazoirliklarning o'zлari o'z yo'llarini belgilab oladilar. Ularning oldida uchta yo'l bor. Birinchisi — to'liq mustaqillik va Fransiya bilan aloqalarni uzish. Bunday holatda, generalning fikricha, Jazoirda to's-

¹ 1789-yil 14-iyul Bastiliya zabit etilgan kun har yili Fransiyada milliy bayram sifatida nishonlanadi.

to'polon, kambag'allik va oxir-oqibatda «harbiy kommunistik diktatura» hukmronlik qiladi. Ikkinci yo'l — fransuzlashtirish. Bu yo'l Jazoir aholisiga fransuzlardek barcha huquq va majburiyatlarni beradi. Uchinchi yo'l — birlashish. U quyidagicha tasvirlanardi: «Jazoirliklar boshqaradigan Jazoir hukumati Fransiyaning yordamiga tayanib ish ko'radi, iqtisodiyot, ta'lim, mudofaa va tashqi siyosatni Fransiya bilan hamkorlikda olib boradi».

1960-yil 14-noyabr kuni vazirlar kengashida de Goll Jazoir masalasini referendum yo'li bilan hal etishga qaror qilganini va bu referendum 1961-yil 8-yanvarda bo'lishini bildirdi.

Aynan ana shu kunlarda Sharl de Goll 70 yoshga kirgandi. General o'z kuch-quvvati zaiflashganligini va sog'ligi yomonlashayotganligini sezib turardi. Yaqinlari undan «mening umrim so'nib bormoqda» degan gapni tez-tez eshitardilar. De Goll odamlar orasida tashqi qiyofasini saqlashga, ko'pchilik oldida ko'zoynak taqmaslikka harakat qildi. Ammo suhbatdoshining qiyofasini aniq ko'ra olmasdi, uning oldida faqat soyalar turgandek ko'rindirdi. Aynan ana shu paytlarda Kongo Respublikasi bosh vaziri, abbat Yulber Yuluni qabul qilar ekan, de Goll unga «Xonim...» deya murojaat qilgandi. Biroq iroda kuchi ustun keladi va o'sha davr haqida shunday deydi: «Millatning hayotida bo'lganidek, insонning hayotida ham umidsiz soatlar bo'ladi. Lekin irodasi bor odam tushkunlikka berilmasligi kerak».

Shu yili 8-sentabrda birinchi marta de Goll hayotiga suiqaqd qilindi. Umuman, turli noqonuniy tashkilotlar tomonidan generalning hayotiga 15 marta tajovuz qilingan. Bu suiqaqlarning aksariyati prezidentning Jazoirga mustaqillik berish siyosatiga qarshi bo'lgan fashistik tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgandi.

Fashistik «ultra»larning varaqalarida shunday yozilgandi: «Bugun yoki ertaga baribir sotqin general de

Goll quturgan it kabi yo‘q qilinadi». General bunday po‘pisalarga sovuqqonlik bilan qarardi va xavfsizlik xizmati talablariga xohlamaygina itoat qilardi: «Men o‘zimning xizmatimni qilyapman, marhamat qilib, sizlar ham o‘z vazifangizni bajaring». Shunga qaramasdan, u endi Kolombega vertolyotda uchib boradi, aerodromgacha bo‘lgan masofaning yo‘nalishi doim o‘zgarib turadi. 1962-yilning yozida avtomatlar bilan qurollangan jangovar guruh prezidentga hujum uyuştiradi. 22-avgustda ular qo‘llarida qurollari bilan Parijning shahar chekkasidagi Pti-Klamar degan joydagi chorrahada mashinada o‘ti-rardilar. Kechki soat 8 da prezident eskorti¹ ko‘rinadi. Oldindagi «Sitroyen»da, orqa o‘rindiqda general de Goll xotini bilan, haydovchining yonida ularning kuyovi polkovnik de Buasye o‘tirardilar. Birdaniga bir necha avtomatlardan o‘t ochiladi. Bir o‘q orqa oynani, boshqasi mashina kuzovini teshib o‘tadi. Bosqinchilar uzgan 150 o‘qdan oltitasi de Gollning mashinasiga tegadi. Haydovchi gazni bosadi va «Sitroyen» katta tezlikda ketib qoladi. Vil-lakuble qarorgohida prezident mashinadan tushib, oyna parchalarini kiyimlaridan qoqib tushrigach, shunday dedi: «Bu janoblar umuman otishni bilmas ekanlar».

General de Goll prezidentni saylash uslubini o‘zgartirishga qaror qildi va bu bilan raqiblarining qo‘lidagi siyosiy qurollarini foydasiz qilib qo‘ydi. «Umumxalq ovozi bilan saylangan prezident, — degandi de Goll, — monarxlik maqomiga ega bo‘ladi». U fransuz respublikachilik an‘analariga, radikalizm ruhiga qarshi bordi. Konstitutsiyani o‘zgartirish uchun, albatta, Milliy kengash va Senatning roziliği lozimligi belgilangan asosiy qonunga rioya qil-

¹ *Eskort* — harbiy qorovul, muhim rasmiy shaxslarni qo‘riqlab yuruvchi harbiylar guruhi.

masdan, de Goll islohotni bir yo'la referendumga olib chiqdi. G'azabli noroziliklarga javoban u Fransiyaning va davlatning manfaatlari har qanday qonundan ustun ekanligini aytdi. Xalq bilan muloqot qilishning barcha odatdag'i aloqa vositalaridan de Goll bevosita omma bilan gaplashishni ma'qul ko'rardi. U doimo Fransiyaning shaharlardan yiroqda joylashgan hududlariga borib, odamlar bilan suhbatlashardi. Hokimiyatga qaytganidan keyingi 10 yil ichida u ko'plab oddiy odamlar bilan uchrashadi va mu-loqotda bo'ladi. 1965-yilning kuzida de Goll 6 yil ichida 15 million fransuz bilan yuzma-yuz uchrashganini, 250 mingta kommunalarga borganini, 400 munisipal maslahatchining va yana ko'plab kishilarning olqishlariga javob bergenini, omma qarshisida 600 marta nutq so'zlagani va son-sanoqsiz kishilarning qo'lllarini qisganini faxrlanib aytgandi.

Isroiuning arab mamlakatlariga hujum qilganini eshitgan de Goll bosqinchi davlatga har qanday qurol-yarog' berishni to'xtatishni buyurdi. U kim birinchi bo'lib hujum qilsa, Fransiya o'shani bosqinchi deya hisoblashini yana bir bor ta'kidladi. Ammo Isroiil ogohlantirishlarga qulq solmadi va bosqinchilikni amalga oshirdi. Fransiyaning BMT dagi vakili SSSR va bir guruh betaraf mamlakatlar vakilari bilan birga Tel-Avivni qoralab chiqdi.

Dunyoning barcha burjua matbuoti uchun de Goll tanqid nishoniga aylandi. Zaharli va haqoratli so'zlar unga hamma tomondan o'qday yog'ila boshladi. Agar avvallari uning ashaddiy tanqidchilari antikommunistlar va NATO taraf-dorlari bo'lsa, endi bundan tashqari turli mamlakatlarda joylashgan butunjahon sionizmi tarmoqlari ham ishga kiringdi. Fransiyada de Gollni kam tirajda chiqadigan gollchilarning gazetalaridan tashqari kompartiyaning matbuoti himoya qilardi, xolos.

Goll quturgan it kabi yo‘q qilinadi». General bunday po‘pisalarga sovuqqonlik bilan qarardi va xavfsizlik xizmati talablariga xohlamaygina itoat qilardi: «Men o‘zimning xizmatimni qilyapman, marhamat qilib, sizlar ham o‘z vazifangizni bajaring». Shunga qaramasdan, u endi Kolombega vertolyotda uchib boradi, aerodromgacha bo‘lgan masofaning yo‘nalishi doim o‘zgarib turadi. 1962-yilning yozida avtomatlar bilan qurollangan jangovar guruh prezidentga hujum uyushtiradi. 22-avgustda ular qo‘llarida qurollari bilan Parijning shahar chekkasidagi Pti-Klamar degan joydagi chorrahada mashinada o‘tirardilar. Kechki soat 8 da prezident eskorti¹ ko‘rinadi. Oldindagi «Sitroyen»da, orqa o‘rindiqda general de Goll xotini bilan, haydovchining yonida ularning kuyovi polkovnik de Buasye o‘tirardilar. Birdaniga bir necha avtomatlardan o‘t ochiladi. Bir o‘q orqa oynani, boshqasi mashina kuzovini teshib o‘tadi. Bosqinchilar uzgan 150 o‘qdan oltitasi de Gollning mashinasiga tegadi. Haydovchi gazni bosadi va «Sitroyen» katta tezlikda ketib qoladi. Vil-lakuble qarorgohida prezident mashinadan tushib, oyna parchalarini kiyimlaridan qoqib tushirgach, shunday dedi: «Bu janoblar umuman otishni bilmas ekanlar».

General de Goll prezidentni saylash uslubini o‘zgartirishga qaror qildi va bu bilan raqiblarining qo‘lidagi siyosiy qurollarini foydasiz qilib qo‘ydi. «Umumxalq ovozi bilan saylangan prezident, — degandi de Goll, — monarxlik maqomiga ega bo‘ladi». U fransuz respublikachilik an‘analariga, radikalizm ruhiga qarshi bordi. Konstitutsiyani o‘zgartirish uchun, albatta, Milliy kengash va Senatning roziliigi lozimligi belgilangan asosiy qonunga rioya qil-

¹ *Eskort* — harbiy qorovul, muhim rasmiy shaxslarni qo‘riqlab yuruvchi harbiylar guruhi.

masdan, de Goll islohotni bir yo'la referendumga olib chiqdi. G'azabli noroziliklarga javoban u Fransiyaning va davlatning manfaatlari har qanday qonundan ustun ekanligini aytdi. Xalq bilan muloqot qilishning barcha odatdag'i aloqa vositalaridan de Goll bevosita omma bilan gaplashishni ma'qul ko'rardi. U doimo Fransiyaning shaharlardan yiroqda joylashgan hududlariga borib, odamlar bilan suhbatlashardi. Hokimiyatga qaytganidan keyingi 10 yil ichida u ko'plab oddiy odamlar bilan uchrashadi va mu-loqotda bo'ladi. 1965-yilning kuzida de Goll 6 yil ichida 15 million fransuz bilan yuzma-yuz uchrashganini, 250 mingta kommunalarga borganini, 400 munisipal maslahatchining va yana ko'plab kishilarning olqishlariga javob bergenini, omma qarshisida 600 marta nutq so'zlagani va son-sanoqsiz kishilarning qo'llarini qisganini faxrlanib atygandi.

Isroiuning arab mamlakatlariga hujum qilganini eshitgan de Goll bosqinchi davlatga har qanday qurol-yarog' berishni to'xtatishni buyurdi. U kim birinchi bo'lib hujum qilsa, Fransiya o'shani bosqinchi deya hisoblashini yana bir bor ta'kidladi. Ammo Isroiil ogohlantirishlarga qulq solmadi va bosqinchilikni amalga oshirdi. Fransiyaning BMT dagi vakili SSSR va bir guruh betaraf mamlakatlar vakilari bilan birga Tel-Avivni qoralab chiqdi.

Dunyoning barcha burjua matbuoti uchun de Goll tanqid nishoniga aylandi. Zaharli va haqoratli so'zlar unga hamma tomondan o'qday yog'ila boshladi. Agar avvallari uning ashaddiy tanqidchilari antikommunistlar va NATO taraf-dorlari bo'lsa, endi bundan tashqari turli mamlakatlarda joylashgan butunjahon sionizmi tarmoqlari ham ishga kiringdi. Fransiyada de Gollni kam tirajda chiqadigan gollchilarning gazetalaridan tashqari kompartiyaning matbuoti himoya qilardi, xolos.

1968-yilda de Gollning hokimiyat tepasiga kelganiga o'n yil bo'ldi. Bu davr ichida u ko'pgina qiyinchiliklarni yengib o'tdi, murakkab muammolarni hal qildi, jiddiy xavf-xatarlardan o'zini va Fransiyani asrab qola oldi. 1968-yilning boshlarida ichki siyosiy holat de Goll uchun qulay bo'l-gani yo'q. 1967-yildagi parlament saylovlaridan keyin so'l kuchlar o'z ahvollarini tinimsiz yaxshilab borardi. Kom-munistlar va boshqa so'l partiyalar asta-sekin o'z kelish-movchiliklarini hal qilib, tobora birlashishga tomon yaqinlashib kelmoqda edilar. Aksincha, hukumat tarafdorlari bo'lgan partiyalar o'rtaida kelishmovchiliklar kuchayib borardi.

Urushdan keyingi davrda hali hech qachon Fransiya dunyoda bunchalar mustahkam o'ringa ega bo'lmaganligi bilan general faxlanardi. Uning mustaqil tashqi siyosati natijasida Fransyaning xalqaro ahvoli barqaror va mustahkam bo'lib borardi. Ammo kuchayib borayotgan bu qudrat monopoliyalarning hukmronligi tufayli ishchi-larga, barcha mehnatkashlarga hech narsa bermayotgandi. Ular o'z mehnatlarining mahsuldarligi oshib borayotganidan ham, ilmiy-texnik inqilobning samarasidan ham moddiy manfaatdor emasdilar.

1968-yildagi voqealar de Gollning siyosiy mavqeyi va shaxsiy taqdirining inqiroziga zamin bo'ldi. Uning faoliyat ko'lami, tashqi siyosatdagi jasurligiga zid o'laroq ichki, ayniqsa, ijtimoiy siyosatdagi parvosizligi, cheklanganligi namoyon bo'lib bordi. General, eng avvalo, o'ziga kerak bo'lgan xislatlar o'miga sarosimaga tushib qolish, zaiflik si-fatlarini namoyon qildi. Bu salbiy omillar avvallari unga butunlay yot edi. Uning ommaga shaxsiy ta'sirini o'tkaza olish qobiliyati ham susayib ketdi. 77 yoshli general o'z hokimiyati vayron bo'layotganini, irodasining ta'sir kuchi yo'qolayotganini ko'rib turardi.

1968-yil 2-mayda Parij yaqinidagi Nanterrda talabalar isyoni boshlandi. Nanterrdagi g' alayon tez orada Parijning yuragi bo'lgan Lotin kvartaliga, qadim Sorbonnaga ko'-chib o'tdi. Bu yerda mitinglar boshlandi, turli guruhdagi talabalarning o'zaro to'qnashuvlari yuz berdi. Rektor yordam so'rab hukumatga murojaat qildi va ko'p yillar davomida birinchi marta auditoriyalarga politsiya kirdi. Ikki ming talaba va politsiya o'rtasidagi to'qnashuv bir necha soat davom etdi. Ko'plab avtomashinalar yondirib yuborildi, barrikadalar qurildi. Politsiya 596 talabani hibsga oldi. Kelgusi kuni talabalar namoyishi yana davom etdi. 600 kishi yaralandi, yana 460 kishi qamoqqa olindi. Namoyishlar va to'qnashuvlar 7 maygacha davom etdi. Shundan keyin butun mamlakat bo'y lab ishchilarining namoyishlari boshlandi.

De Goll o'z vakolati tugagunga qadar, yana uch yil hokimiyat tepasida qolishi mumkin edi. Ammo uning ta'sir kuchi, obro'si, hokimiyatining asoslarini susaytirgan 1968-yilning may oyidagi voqealardan so'ng bu faoloiyat — so'nish, tubanlikka qulash va qaltirab yashash bo'lardi. U kelishish, yaldoqlanish va bo'ysunishga majbur bo'lardi. Uning hukmronligi tobora oshib borayotgan dushmanlik va nafratlanish sharoitida yakunlanardi. U, ayniqsa, keksalikning qochib bo'lmas oqibatlaridan qo'rqardi. Shunday qilib, muxolifatdan yengilganligini tan olib, uning talablariga yon berish yoki davlat boshqaruvidan ketish kerak. Lekin de Goll uchinchi yo'lni tanladi. U yana bir marta o'z ahvolini yaxshilashga, xalqdan yordam olishga, referendumda g'olib chiqsa, avvalgidek qat'iylik va matonat bilan harakatlanishga qaror qildi.

Ammo fransuzlar, yuzlab yillar davomida ozodlik va mustaqillik uchun kurash tajribasiga ega bo'lgan xalq, o'z erkini hamma narsadan ustun qo'yadigan millat, hatto

de Golldek milliy qahramonning ham nufuzi oldida bo'yunishni xohlamadi, uning avtoritar rejimini boshqa qabul qila olmadi.

De Goll so'zsiz mag'lubiyatini sezib harakat qildi. Ovoz berishdan uch kun oldin u o'z qo'li bilan ikkita hujjat yozdi va ularni agar mag'lubiyatga uchrasagina ochishni buyurdi. 25-aprelda de Goll Kolombega ketadi. 27-aprelda u qishloq meriyasida ovoz berdi va referendum natijalarini kuta boshladi. Kechqurun Parijdan telefon qilishdi va uning referendumda mag'lubiyatga uchragani haqida xabar berishdi. Soat 22 da u tayyorlab qo'yilgan xatlarni bosh vazir Bernar Trikoga berishlarini buyurdi. Kuv de Murvilga atalgan xatda u bosh vazirning o'ziga va barcha vazirlarga hamkorlikda ishlaganlari uchun minnatdorchilik bildirgan hamda ular bilan xayrashgandi. Ikkinci maktubning mazmuni kechasi soat birda radio orqali e'lon qilindi: «Men Respublika Prezidenti vazifasini bajarishni to'xtataman. Bu qaror bugun tush paytida kuchga kiradi».

Hech qanaqa nutqlarsiz, xayrashuv marosimisiz, ana shu ikki qator yozuv bilan general de Goll o'z siyosiy faoliyatini yakunladi. «Bu — degandi o'shanda u yaqin kishilaridan biriga, — men Fransiyaga qilishim mumkin bo'lgan oxirgi xizmatim edi».

Generalning kelajakda mo'ljallagan rejalari bor edi, u darhol xotiralar yozishga kirishdi. 4-may kuni u o'zining 1958-yilda hokimiyatga kelishi haqidagi bиринчи bobni yozish uchun hujjatlarni tanlab, olib kelishlarini buyurdi. «Men endi yozaman va balki, shu bilan Fransiyaga xizmat ko'rsatarman», — degan edi u.

...1970-yil 9-noyabr kuni Sharl de Goll odatdagidek erta uyg'ondi. Bir soatdan so'ng, qora kostyum kiyib, qo'ng'ir galstuk taqqan general yog'och zinapoyadan tuшиб, ish xonasiga boradi. U xotiralar yozishni davom

ettiradi. 1963-yilning xavotirli voqealarini yozishga kirishadi. Orada fikrlarni tartibga solish uchun yo'laklari xazonlar bilan to'lgan bog'ni aylanishga chiqadi. Keyin de Goll yana olti yarimgacha ishlaydi. Shundan so'ng kutubxonasiga boradi. Xona burchagida televizor turardi. General soat 7 da boshlanadigan mahalliy yangiliklarni kutadi. Stol yonidagi kresloga o'tiradi. To'satdan qo'llari pastga tushib ketadi, u turishga urinadi, qaltirab ko'kragini ushlaydi. «O, qanchalar qattiq og'riq! U yerda, yelkada...» deya bo'g'iq ovoz chiqradi. Og'riq qilich zarbasidek uni yiqitadi, u hushidan ketadi. De Gollning tizzalari bukiladi, qo'llari kresloni kuchsizgina ushlaydi, ko'zoynagi polga tushib ketadi. De Goll xonim uydagilarni yordamga chaqiradi va xizmatkorga qichqiradi: «Shifokor kerak». U telefonga yuguradi. Kechki soat 19 dan uch daqiqa o'tgan.

Soat 19 dan 8 daqiqa o'tdi. Generalning haydovchisi Maru uning bo'yinbog'ini yechib, yoqasini ochdi. Keyin shifokor bilan rohib Jojey bir vaqtda yetib keladilar. Rohibning kutib turishini so'raydilar, shifokor esa bemorni ko'radi. Kasallik belgilari aniq — aortaning yorilishi, bunday hollarda o'lim yarim soatga yetmasdan ro'y beradi. Shunga qaramasdan, vrach unga morfiy ukolini qiladi, ammo general hech narsani sezmaydi. Endi ruhoniyni chaqiradilar va u hayajondan qaltirayotgan ovozi bilan oxirgi gunohdan forig' qilish so'zlarini aytadi: «O'g'lim Sharl, bu muqaddas, xushbo'y moy surtish marosimi bilan Xudo siz yo'l qo'ygan barcha gunohlarni kechiradi».

General Sharl de Gollning hayoti qarama-qarshiliklarga boy va g'ayrioddiy kechdi. Uning o'limi ham shunday bo'ldi. Siyosiy mag'lubiyat tufayli lavozimidan ketgan davlat arbobining o'limi doim ham keng, dunyo miqyosidagi shov-shuvlarga sabab bo'lavermaydi. Ammo sakson yoshga to'lishiga o'n uch kun qolgan Sharl de Gollning vafoti aynan ana shunday keng shov-shuvga sabab bo'ldi.

«Ko‘proq askarlar, ko‘proq musiqa», — degan ekan Cherchill o‘zining dafn marosimi haqida o‘ylab. General de Goll uni Kolombedagi kichik qabristonga, hech qanaqa yuqori lavozimdagи rasmiy kishilarning — prezidentning ham, bosh vazirning ham, vazirlarning ham ishtirokisiz ko‘mishlarini vasiyat qilgandi.

1970-yilning 12-noyabrida generalning so‘nggi irodasiga ko‘ra Kolombedagi qabristonda dafn marosimi bo‘ldi. Unda faqat yaqin qarindoshlarigina qatnashdilar. Ammo kichkinagina qishloq qo‘rg‘onidagi dafn marosimi butun mamlakatda e’tibor va hayajon uyg‘otdi. Kolombedagi dafn qo‘ng‘irog‘iga Fransiyaning barcha qishloq va shaharlaridagi 50 ming qo‘ng‘iroq ovozi jo‘r bo‘ldi. Umumxalq motami chin yurakdan, samimiyl va ommaviy ko‘lam kasb etdi. Prezident Jorj Pompidu radio orqali nutq so‘zlab: «Fransiya yetim bo‘lib qoldi...», degan edi.

O‘sha kuniyoq Parijdagi Momo Havo ibodatxonasida 84 mamlakatning vakillari ishtirokida motam ibodati o‘qildi. To‘da-to‘da odamlar ko‘chalarda gul ko‘tarib turar yoki Napoleon g‘alabalari sharafiga o‘rnatilgan Zafar darvozasi hamda Noma'lum askar qabri joylashgan Yulduzlar maydoniga gulchambarlar bilan borishardi. Fransiyaning shon-shuhrati ramzi bo‘lgan bu maydonga Sharl de Goll nomi berildi. Nyu-Yorkda uni xotirlab Bir-lashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining maxsus majlisi o‘tkazildi.

O‘z hayoti davomida fransuz xalqi va Fransiya uchun qilgan ishlari uning obro‘sini va mashhurligini ta’miladi. O‘z hayotining ko‘pgina bosqichlarida de Goll butun dunyo uchun Fransiyaning — o‘z milliy madaniyati bilan dunyo madaniyatini ham yuksaltirgan mamlakatning ramzi bo‘lib qolgandi. Bu beqiyos insonning shaxsiy sifatlari, uning tabiatni, jasorati, qat’iyati, madaniyati, undagi haqiqiy mustaqillik ruhi, barcha buyuk narsalarga muhabbati, uning o‘zi va ishi kabi yuksak tafsinga loyiqidir.

XOTIMA

Rishelye, Napoleon, de Goll. Bu hukmdorlar Fransiyani bevosita boshqargan yillar hammasi bo'lib ellik yilga yetmaydi. Ammo ularning faoliyati Fransiya davlat siyosatiga 350 yil davomida katta ta'sir ko'rsatib keldi. Shu bois ham, Fransiya tarixining eng muhim, burilish davrlarida jamiyat qayta-qayta bu uch arbobga, ularning tarixiy merosiga murojaat qiladi, ulardan ma'naviy-ruhiy madad olishga intiladi.

Fransyaning keyingi uch yarim asrlik tarixida yuz bergan siyosiy va etnomadaniy jarayonlarning muhim bosqichlari shu arboblar nomlari bilan bog'liq. XVI asr Fransiya tarixida juda katta ijtimoiy bo'hronlar davri bo'ldi. Yuz berayotgan jarayonlar aholining turli qatlamlari tomonidan bir xilda qabul qilinmadi. Keng tarqalgan kalvinizm (bu diniy oqim izdoshlari Fransiyada gugenotlar deb atalgan) jamiyatdagi noroziliklarning mafkuraviy tayanchi bo'lib qoldi. Ularning absolutizmga qarshi va o'zaro kurashlari uzoq davom etgan, yuz minglab fransuzlarning o'limiga olib kelgan fuqarolar urushiga aylanib ketdi. Bir-biriga qarama-qarshi feodal guruqlar mamlakatda siyosiy hokimiyatni egallash uchun hayot-mamot jangini olib bordi. Aynan Rishelyening siyosiy salohiyati bu urushlarga barham berish, davlatni markazlashtirish, absolutizmni kuchaytirishda hal qiluvchi rol o'ynadi. Diniy qobiqqa o'ralgan bu kurashlar aslida Fransiyada paydo bo'layotgan kapitalistik hayot tarzi, davlatning siyosiy markazlashuvi va ichki iqtisodiy aloqalarning kuchayishi natijasida fransuz umummiliy madaniyatining shakllanishi va milliy tilning qaror topishi bilan bog'liq jarayonlar edi. Aynan shu davr Fransiya uchun Uyg'onish, fan, falsafa, adabiyot, arxitektura va san'atda yuksalish davri bo'ldi, keyinchalik «Buyuk asr» degan nom oldi. Bu davrda madaniy va siyosiy sohada Fransiya erishgan ulkan yutuqlar unga Yevropaning ma'naviy yetakchisi bo'lish

imkonini berdi. Fransiya Yevropaning madaniy markaziga aylandi va asrlar davomida Yevropa madaniyatini yuksaltirgan, jahon madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatgan eng ilg'or madaniy makon bo'lib qoldi.

Fransiya faqat madaniyatda emas, siyosatda ham Yevropaga katta ta'sir ko'rsatdi. Kardinal Rishelye boshlab bergen tashqi siyosat tufayli XVII asrdan Fransiya mustamlaka imperiyasiga aylanib bordi. Ammo Fransiyaning buyukligi, avvalo, madaniyatda namoyon bo'ldi.

Fransiya madaniyatida paydo bo'lgan juda ulkan g'oyaviy oqim – Ma'rifatchilik F. Volter, D. Didro, Sh. Monteskye, J-J. Russo singari buyuk mutaffakkirlarni dunyoga keltirdi, ular nomini butun bashariyat hozirgacha hurmat bilan tilga oladi. Fransuz ma'rifatchiligi faqat Yevropa emas, butun dunyoning ilg'or tafakkuriga katta ta'sir ko'rsatdi.

1789-yil 14-iyulda boshlangan Buyuk fransuz burjua inqilobi feodal munosabatlarni yo'q qildi, monarxiyanı ag'darib tashladi. Fransiya respublikaga aylandi, fransuz millatining shakllanish jarayoni yakunlandi. Inqilob ilgari surgan «Ozodlik», «Tenglik», «Birodarlik» shiorlari «Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi»da o'z aksini topdi va qariyb ikki asr butun insoniyat orzu-intilishlarining mazmungina aylanib qoldi.

Napoleon Bonapart shu buyuk inqilobning buyuk farzandi sifatida kurash maydoniga chiqdi. Napoleon olib borgan urushlar Yevropaga katta kulfat keltirdi. Ammo, shunga qaramasdan, Napoleon dahosining buyukligi shundaki, u qariyb ikki yuz yildan keyin amalgalashigan «Birlashgan Yevropa»ga asos soldi. Napoleon Yevropa xalqlarining faqat siyosiy emas, madaniy integratsiyalashuv jarayonini boshlab berdi.

Napoleon davridan ikkinchi jahon urushigacha o'tgan vaqt davomida fransuz jamiyati taraqqiyotning katta yo'lini bosib o'tdi, sifat jihatdan o'zgardi. Davlat rahbarlarining kaltabin siyosati oqibatida nemis fashistlari tomonidan

okkupatsiya qilingan Fransiya xalqi keng Qarshilik harakatini tashkil qildi. Fransuzlar uchun ma'naviy-psixologik ta'siri kuchli bo'lgan okkupatsiya davrida xalqqa yana bir buyuk inson — general Sharl de Goll yo'lboshchilik qildi va «Fransuz xalqi hech qachon tiz cho'kmaydi!» degan chaqiriq bilan millionlab fransuzlarning qalbidan abadiy joy oldi. De Goll urushdan keyin Fransiyada Beshinchi respublika-ga asos soldi. U Fransiyada zamonaviy prezidentlik tizimini yaratdi, xalq tomonidan bevosita ovoz berish yo'li bilan saylangan bиринчи prezident bo'ldi. Prezidentlik lavozimini egallab turgan davrida de Goll Fransiyaning xalqaro obro'si va jahon siyosatidagi rolini oshirish uchun muttasil harakat qildi.

Kardinal Rishelyedan Napoleon Bonopart va Sharl de Gollgacha o'tgan uch yarim asr, umumiy ma'noda, Fransyaning har tomonlama yuksalish davri sifatida tan olinadi. Fransuz madaniyati jahon sivilizatsiyasiga «Ma'rifatchilik asri»ni, diplomatiya tilini, ozod inson to'g'risidagi konsepsiyasini, buyuk yozuvchilar, matematiklar, faylasuflarni, fan va texnologiyalarda erishilgan ulkan yutuqlarni berdi, shuningdek, avloddan avlodga o'tib kelayotgan fransuzcha hayot tarzini shakllantirdi.

Albatta, fransuzlardek boy tarixga ega bo'lgan millat jahon tamadduniga katta hissa qo'shgan, insoniyatning ma'naviy olamini o'z asarlari bilan boyitgan yana boshqa ko'plab ardoqli farzandlari bilan ham faxrlanadi. Bugun jahon taraqqiyotining yalovbardorlaridan biri bo'lgan Fransiyani uning tarixini yaratgan buyuk insonlari, jumladan, Rishelye, Napoleon Bonopart va Sharl de Gollsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Fransuzlar o'z milliy qahramonlarini doimo hurmat bilan yod etadilar, lekin ilohiylashtirmaydilar, ularni olqishlaydilar, lekin sig'inmaydilar. Ularning ko'pchiligi fransuzlar uchun milliy jasorat va ma'naviy yuksaklik ramzidir.

ADABIYOTLAR

1. *Андреев А.Р.* Политическое завещание кардинала герцога де Ришелье французскому королю. — М.: «Мысль», 1991.
2. *Вандаль А.* Возышение Бонапарта (Сочинения. Т.1.) — Ростов-на-Дону, 1995.
3. История Франции в трёх томах. — М.: «Наука», 1973.
4. История XIX века в восьми томах. Под ред. Лависса и Рамбо. — М.: «ОГИЗ», 1938—1939.
5. *Манфред А.З.* Наполеон Бонапарт. — М.: «Мысль», 1986.
6. *Мирович М.О.* Генерал де Гольль: штрихи к политическому портрету. — Ростов-на Дону: «Феникс», 2000.
7. *Молчанов Н.Н.* Де Гольль. — М.: «Алгоритм: ЭКСМО», 2003.
8. *Сундерс Э.* Сто дней Наполеона. // militera.lib.ru
9. *Типпельскирх К.* История второй мировой войны. — М.: АСТ, 1999.
10. *Тюлар Ж.* Наполеон или миф о «Спасителе». — М.: «Молодая гвардия-Палимпсест», 2012.
11. *Уильямс Ч.* Последний великий француз. Жизнь генерала де Голя. — М.: «ЭКСМО», 2003.
12. *Черкасов П.П.* Кардинал Ришелье. — М.: «Международные отношения», 1990.
13. *Эмиль Людвиг.* Наполеон. — М.: «Захаров-Вагриус», 1998.
14. *Barraf J., Ferro C., Wang Ch.* Geopolitique de L'Uzbekistan. — Paris, 2010.

MUNDARIJA

Tarixni yaratgan siymolar.....	3
Kardinal hazrati oliylari.....	5
Napoleon Bonapart.....	47
Sharl de Goll.....	101
Xotima.....	137
Adabiyotlar.....	140

Ilmiy-ommabop nashr

SHUHRAT ERGASHEV

UCH BUYUK FRANSUZ

Muharrir *N. Qidiraliyev*

Rassom *Sh. Xo'jayev*

Texnik muharrir *L. Xijova*

Kichik muharrirlar: *D. Xolmatova, G. Yeraliyeva*

Musahhih Z. Qudratov

Kompyuterda sahifalovchi F. Chanisheva

Nashriyot litsenziyasi №AI 158, 14.08.2009,
Bosishga 2016-yil 18-aprelda ruxsat etildi. Offset qog'ozি.
Bichimi $84 \times 108^1/_{32}$. «Times Uz» garniturasida offset usulida
bosildi. Shartli bosma tabog'i 7,56.
Nashr tabog'i 7,13. Adadi 3000 nusxa.
Buyurtma №16-286

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining
«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20
Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.
e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz
www.iptd-uzbekistan.uz

Ergashev, Shuhrat

E 74 Uch buyuk fransuz / Sh. Ergashev. — Toshkent:
«O‘zbekiston» NMIU, 2016. — 144 b.

ISBN 978-9943-28-049-6

Ushbu kitob Fransiyaning uchta davlat arbobi, mam-lakatning yuksalishiga ulkan hissa qo‘shtgan va shu sababli fransuz xalqining ulug‘ kishilari qatoridan joy olgan, o‘z nomlarini tarixda qoldirgan shaxslar — kardinal Rishelye, Napoleon Bonapart hamda Sharl de Goll hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan.

UO‘K: 94(44)

KBK 63.3(4 Fra)